

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**A.A.IKRAMOV, G.N.DAVRANOVA, A.A.IKRAMOVA**

## **QIYOSIY PEDAGOGIKA**

**Oliy o‘quv yurtlarining 60110200 - «Maktabgacha ta‘lim»  
bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma**

**BUXORO-2022**

**UO‘K 004.92 (075)**

**KBK 32.973**

**Z-18**

**A.A.Ikramov, G.N.Davranova,  
A.A.Ikramova «Qiyosiy pedagogika»  
O‘quv qo‘llanma – Buxoro, BDPI, 2022.  
150 b.**

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining 60110200 –«Maktabgacha ta’lim» bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari va professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma mazmunida qiyosiy pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari, qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlari va taraqqiyot bosqichlari, pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiqot qilish bosqichlari o‘z aksini topgan. Shuningdek, O‘zbekiston, Osiyo va Yevropa davlatlari, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlari va qiyosiy tahlili berilgan. Qator davlatlar ta’lim tizimi, uning yurtimiz ta’lim tizimi bilan o‘xshash va farqli jihatlari haqida aniq ma’lumotlar bilan birga jahon mamlakatlari ta’lim tizimi mazmuni ko‘p variantli test, mavzuga doir amaliy topshiriqlar, rasmlar, chizmalar orqali yoritib berilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanmadan oliy o‘quv yurtlari talabalaridan tashqari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumiy o‘rta maktab o‘qituvchi hamda o‘quvchilari va mustaqil o‘rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

#### **Mualliflar:**

**A.A.Ikramov** – Buxoro davlat pedagogika instituti IT,I va IPKTB boshlig‘i, p.f.f.d (PhD), dotsent

**G.N.Davranova** – BuxDPI ”Maktabgacha ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

**A.A.Ikramova** – Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

#### **Taqrizchilar:**

**G.T.Boymurodova** — Buxoro davlat pedagogika instituti «Maktabgacha ta’lim» kafedrası mudiri, p.f.d (DSc), dotsent.

**A.R. Hamroyev** — Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrası mudiri, p.f.d. (DSc), professor

*Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.*

## ANNOTATSIYA

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining 60110200 –“ Maktabgacha ta’lim” bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari va professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. Mazkur o‘quv qo‘llanma 10 mavzudan iborat bo‘lib, har bir mavzu uchun nazorat savollari keltirilgan. O‘quv qo‘llanmada quyidagi asosiy tushuncha va tamoyillar to‘liq yoritib berilgan:

- Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika fanining sohasi va vazifalari.
- Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika fanining rivojlanish bosqichlari va tadqiqot metodlari.
- Buyuk Britaniya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari
- Germaniya ta’lim tizimi va uning shakllanish jarayoni. Germaniya va O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan qiyosiy tahlillar.
- Fransiya ta’lim tizimining tuzilishi va uning asosiy xususiyatlari. Fransiya ta’lim tizimining dastlabki bosqichi, boshlang‘ich ta’lim va uning tuzilishi.
- Yaponiya ta’lim tizimi, strukturasi va xarakterli tomonlari, uzluksiz ta’lim tizimi va xususiyatlari.
- Xitoy ta’lim tizimining asosiy jihatlari. O‘zbekiston – Xitoy ta’lim tizimining qiyosiy tahlili.
- AQSH ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Amerikadagi maktab: ichki qoidalar, mavzular, o‘qish shartlari.
- Italiya ta’lim tizimining rivojlanish yo‘llari.
- Rossiya ta’lim tizimi va uning qiyosiy tahlili.

Ushbu o‘quv qo‘llanma talaba yoshlarda Yurtimiz ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo‘la olish uchun ta’limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta’limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o‘rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o‘quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etishga yordam beradi.

## АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие предназначено для студентов и преподавателей высших учебных заведений по направлению 60110200 - «Дошкольное образование» бакалавриат. Данное учебное пособие состоит из 10 тем, по каждой из которых предусмотрены контрольные вопросы. В учебном пособии подробно объясняются следующие основные понятия и принципы:

- Область и задачи сравнительной педагогики в дошкольном образовании.
- Этапы развития и методы исследования сравнительной педагогики в дошкольном образовании.
- Особенности британской системы образования
- Немецкая система образования и процесс ее становления. Сравнительный анализ системы образования Германии и Узбекистана.
- Структура французской системы образования и ее основные черты. Начальный этап французской системы образования, начальное образование и его структура.
- Японская система образования, структура и особенности, система непрерывного образования и особенности.
- Основные аспекты китайской системы образования. Сравнительный анализ узбекско-китайской системы образования.
- Особенности системы образования США. Школа в Америке: правила внутреннего распорядка, предметы, условия учебы.
- Пути развития итальянской системы образования.
- Российская система образования и ее сравнительный анализ.

Данное учебное пособие представляет собой современную теорию развития образования, модернизации и модернизации образования с целью улучшения достижений нашей страны в области образования, чтобы быть конкурентоспособным с развитыми странами в этой области помогает изучать, сравнивать, анализировать и применять к образовательному процессу.

## ANNOTATION

This study guide is intended for students and professors of higher educational institutions of the 60110200 - "Preschool education" bachelor's education. This study guide consists of 10 topics, and control questions are provided for each topic. The following basic concepts and principles are fully explained in the training manual:

- Field and tasks of comparative pedagogy in preschool education.
- Stages of development and research methods of comparative pedagogy in preschool education.
- Peculiarities of the British education system
- German education system and its formation process. Comparative analyzes related to the educational system of Germany and Uzbekistan.
- The structure of the French education system and its main features. The initial stage of the French education system, primary education and its structure.
- Japanese education system, structure and characteristics, continuous education system and features.
- The main aspects of the Chinese education system. Comparative analysis of Uzbekistan-China education system.
- Specific features of the US education system. School in America: internal rules, subjects, study conditions.
- Ways of development of the Italian education system.
- Russian education system and its comparative analysis.

This study guide is a modern theory of education development, modernization, and modernization of education in order to improve the achievements of our country in the field of education, to be competitive with developed countries in this field. helps to study, compare, analyze and apply to educational process.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	7
1. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining sohasi va vazifalari.....	8
2. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining rivojlanish bosqichlari va tadqiqot metodlari. ....	14
3. Buyuk Britaniya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari .....	20
4. Germaniya ta'lim tizimi. ....	31
5. Fransiya ta'lim tizimining tuzilishi va uning asosiy xususiyatlari.....	<b>Ошибка!</b>
<b>Закладка не определена.</b>	
6. Yaponiya ta'lim tizimi, strukturasi va xarakterli tomonlari.....	59
7. Xitoy ta'lim tizimi.....	86
8. AQSH ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. ....	102
9. Italiya ta'lim tizimining rivojlanish yo'llari.....	114
10. Rossiya ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili.....	126
XULOSA.....	140
ATAMALARNING IZOHLI LUG`ATI .....	141
TEST SAVOLLARI.....	147
ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	150

### KIRISH

So'nggi vaqtlarda respublikamizda jahon ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida qiyosiy pedagogik tadqiqotlarga hozirgi kundagi qiziqish ikkita eng muhim tendensiyaga bog'liqligi bilan tushuntiriladi. Birinchisi yurtimizning mustaqillikka erishishi va milliy ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi bo'lsa, ikkinchisi - globallashtirish va jamiyatni

axborotlashtirish, mavjud jahon tendensiyalari hamda jahon ta'lim sarhad-lariga integratsiyaning zarurligidadir.

Iqtisodiyotning globallashtirish jarayoni, transmilliy kompaniyalar, jahon moliyaviy korporatsiyalari va shu kabi tashkilotlarning rivojlanishi dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislariga qat'iy talab qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida turli davlatlar ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish va tenglashtirish masalasidir. Uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlarning mavjud holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib qolmoqda.

Yurtimiz ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbir etish, bo'lajak tarbiyachilarga milliy istiqbol g'oyasi va bugungi kun mafkurasi talablari asosida jahon pedagogikasining aktual masalalari ayniqsa, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi, ta'limning turlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlari va tashkil etish shakllari, amalga oshirish yo'llari haqida ma'lumot berish va shu orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, ta'lim mazmunini rivojlantirish, uni jahon talablari darajasiga olib chiqish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadidir.

**Mualliflar**

## **1-mavzu: Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining sohasi va vazifalari.**

### **Mavzu rejasi:**

1. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining o'rni va ahamiyati, boshqa ilmiy fanlar bilan uzviy aloqasi.
2. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining maqsadi va vazifalari, asosiy funksiyalari.
3. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining obyekti va predmeti.
4. Dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'limdagi tipik o'zgarishlar.

**Tayanch so'z va iboralar:** qiyosiy pedagogika, maktabgacha ta'lim tizimi, Y.A.Komenskiy, qiyoslash, M.Sokolova, B.Navrochinskiy, A.M.Stolyarenko, maktabgacha pedagogika, etnopedagogika, bashoratlash, strategik reja, rivojlangan mamlakatlar, pedagogik madaniyat.

## **Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining o'rni va ahamiyati, boshqa ilmiy fanlar bilan uzviy aloqasi.**

So'nggi vaqtlarda respublikamizda jahon ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu sababli hozirgi kunda "qiyosiy pedagogika" atamasi keng ommalashdi. Shuningdek, mazkur tushuncha turli davlatlar ta'lim tizimida ham o'ziga xos talqiniga ega. Jumladan, nemis tilida "ver- gleichende- Pedagogik", fransuz tilida "pedagogie cotparee" atamaları bilan izohlanadi. Ingliz tili asosiy til hisoblangan davlatlarda "comparative ta'lim" tushunchasini qiyosiy pedagogika bilan sinonim sifatida foydalaniladi. Ana shu sababli olimlar o'rtasida qay bir tushunchani qo'llash o'rinli bo'ladi degan munozatali fikr mavjud. "Comparative ta'lim" tushunchasi tarafdorlari taqqoslash obyektı sifatida ta'lim tizimi aks etishini ta'kidlaydilar. Biroq qiyoslash ma'lum bir pedagogik muammoga tegishli narsa-hodisa va jarayonlarni qiyosiy o'rganishi, buning uchun ilmiy-pedagogik tahlilga asoslanishi lozim. Qiyosiy pedagogika xuddi ana shu masalani hal etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdek muhim vazifani bajarishi lozim.

Hozirgi kungacha qiyosiy pedagogika va chet el pedagogikasi - bir fan sohasining turlicha nomlanishi bo'lib, sinonim tushunchalardir degan qarash mavjud. Biroq mazkur yondashuv aniq tuzatish kiritishni talab etadi. Chet el pedagogikasi tavsifiy xarakterga ega bo'lib, iming asosiy maqsadi - chet el ta'limining o'ziga xosligini tavsiflovchi hodisa va dalillarni to'plash va tizimlashtirishdir. Shubhasiz, bu jahon pedagogik tajribasini chuqur va har tomonlama to'liq o'rganishning muhim jihati va zaruriy sharti. Biroq qiyosiy pedagogika o'zida zaruriy nazariy- metodologik komponentlarni tashkil etadi. To'g'ri ayrim holatlarda qiyosiy pedagogika axboriy funksiyani ham bajaradi, biroq uning asosiy funksiyasi turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning muhim global qonuniyatlari va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etishdir.

Qiyosiy pedagogika tushunchasiga komparativist olimlar turlicha ta'rif beradilar. Rus olimi M.Sokolova qiyosiy pedagogikani ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining yo'nalishlari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy va falsafiy asoslari hamda milliy o'ziga xoslikni ochib beradigan soha deb qaraydi. N.Belkanov qiyosiy pedagogikani ta'limdagi globallashtirish, baynalmilallik va integratsiya natijasi deb qaraydi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikada taqqoslash -bu ta'lim va pedagogika sohasida dunyo tendentsiyalari bilan aloqadorlikni anglash demakdir. K.Musmning ta'kidlashicha, qiyosiy pedagogika dunyoning turli davlatlarida turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya pedagogic nazariyasi va amaliyotining holatini o'rganadi, pedagogika va maktab amaliyotining xalqaro tajribasini o'rganish va




foydalanish yo'llari hamda shaklini aniqlaydi, o'z davlatida ta'lim-tarbiya modelining kelajagini bashorat qiladi. B.L.Vulfson esa qiyosiy pedagogikani pedagogik fanlarning sohasi deb qaraydi va u qiyosiy aspektida turli davlat, hudud umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogik nazariya va amaliyotning mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadi, deb ta'riflaydi.


Ijtimoiy hayotning turli sohalarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi olimlar oldida xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishning qanday eng maqbul shakl va usullarini topish, qo'lga kiritilgan natijalardan milliy ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni qay tarzda ta'minlash, xalqaro tadqiqotlar ishtirokchilarining nuqtai nazarlari va qarashlarini uyg'unlashtirishga qanday qilib erishish kabi qator savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Mazkur savollarga aniq va to'liq javobni qiyosiy pedagogikaning nazariy-metodologik mummosi sifatida qarash orqali olish mumkin.

«Qiyosiy pedagogika» fanining bozor iqtisodiyoti jarayonidagi tutgan o'rni va ahamiyati, talaba yoshlarda milliy mafkuraviy qarashlarni shakllantirish, jamiyatning ilg'or nufuzli kuchi sifatida sog'lom e'tiqodni, erkin fikrlovchi, komil insonlar bo'lishi jarayonidagi o'rni va rolini aniqlashdan iborat. Bo'lg'usi o'qituvchilarni Markaziy Osiyo va jahon xalqlarining pedagogik me'rosi bilan tanishtirish jarayonida ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini hosil qilish, ta'limni boshqarish muassasalari xodimlari jamoasiga jahon pedagogikasida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'limning amalga oshirilishi, istiqboli to'g'risida batafsilroq ma'lumot berish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

“Qiyosiy pedagogika” fani o'zining taraqqiyot bosqichlaridagi turli xil qarashlar bilan birgalikda, barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy fanlar bilan aloqadorligi, hamda uning ilmiy-nazariy asoslariga tayanib maktabgacha pedagogika, etika, estetika, bola anatomiyasi, etnopedagogika, pedagogik sotsiologiya, falsafa, madaniyat, ta'lim menejmenti kabi fanlar bilan bevosita bog'liq holda yoritib boriladi va bular fanning metodologik asoslari hamda ilmiy tadqiqot metodlari borasida katta ahamiyatga ega bo'lib, talabalarda mustaqil izlanish, ularda ilmiy qiyoslay olish mahoratlarini shakllantiradi.

Shuningdek, qiyosiy pedagogik fanlarga oid bo'lgan falsafa, sotsiologiya, xronologiya, iqtisodiyot kabi fan sohalarini ham bog'liq. Bugungi kunda fanning pedagogika, qiyosiy pedagogika sohalarida falsafaning metodologik funksiyalari tan olingan, zero falsafa pedagogik tajribani anglashda va pedagogik konsepsiyalarni yaratishda nazariy maslak hisoblanadi. Undan tashqari qiyosiy pedagogik tadqiqot doirasida pedagogik bilimlarni olish jarayoni falsafaning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi.





Shuningdek, qiyosiy pedagogik fanlarga oid bo‘lgan falsafa, sotsiologiya, xronologiya, iqtisodiyot kabi fan sohalari bilan ham bog‘liq. Bugungi kunda fanning pedagogika, qiyosiy pedagogika sohalarida falsafaning metodologik funksiyalari tan olingan, zero falsafa pedagogik tajribani anglashda va pedagogik konsepsiyalarni yaratishda nazariy maslak hisoblanadi. Undan tashqari qiyosiy pedagogik tadqiqot doirasida pedagogik bilimlarni olish jarayoni falsafaning umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

Bu kurs bo‘yicha talabalar bilimlari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat: talabalar qiyosiy pedagogikadan egallagan nazariy bilimlarini, amaliyotda qo‘llay olishlari lozim. Shuningdek, kurs bo‘lajak o‘qituvchilarni ixtisosligi bo‘yicha bilimlarni egallash davomida o‘zining ma‘naviy, axloqiy darajasini kengaytiradi, jahon mamlakatlarining ta‘lim sohasida erishayotgan yutuqlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanadi. Har bir xalq o‘z yashash tarzi, tarihiy va ijtimoiy darajasi, milliy madaniyatiga ega ekanligiga mos ravishda, o‘ziga xos takrorlanmas milliy-tarbiya madaniyatiga ega bo‘lishi va bulardan hayotda foydalana bilishi kerakligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

### **Maktabgacha ta‘limda qiyosiy pedagogika fanining maqsadi va vazifalari, asosiy funksiyalari.**

O‘zbekiston ta‘lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Bulardan ko‘zda tutilgan maqsad ta‘lim tizimini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o‘quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakli va metodini kompleks yangilash hamda yanada takomillashtirishdan iborat. Bu vazifalarni muvafaqqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el ta‘lim tizimi va pedagogikasi tajribalarini o‘rganishni talab etadi. Bu tajribalarni o‘rganish orqali ta‘lim-tarbiya tizimini yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Bu yo‘lda bizga pedagogika fanlari tizimi dagi sohalardan biri - **“Maktabgacha ta‘limda qiyosiy pedagogika”** fani katta yordam beradi.

**Qiyosiy pedagogika** - jahon, mintaqaviy, milliy ta‘lim tizimi rivojining umumiy va alohida istiqbolli yo‘nalishlari, qonun va qonuniyatlarimng o‘ziga xosliklarini taqqoslash haqidagi fan.

**“Maktabgacha ta‘limda qiyosiy pedagogika” fani** global doirada maktabgacha ta‘lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo‘nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etadi, milliy va hududiy o‘ziga xosliklardagi umumiy ko‘rinishlarni ochib beradi,

xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va usullarini aniqlashtiradi.

“**Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika**” kursining **maqsadi** talabalarni fanning nazariy metodologik muammolari, taraqqiyot bosqichlari, Chet el maktabgacha ta'limi, uning mazmuni, tuzilishi, rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya orasidagi o'zviyliklar, ilg'or g'oyalar va tajribalar xususidagi bilimlar bilan tanishtiradi.

“**Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika**” kursining asosiy **vazifasi** bo'lajak tarbiyachilarga milliy istiqloq g'oyasi va bugungi kun mafkurasi talablari asosida jahon pedagogikasining aktual masalalari ayniqsa, rivojlangan davlatlar maktabgacha ta'lim tizimi, ta'limning turlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlari va tashkil etish shakllari, amalga oshirish yo'llari haqida ma'lumot berish. Shu orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, ta'lim mazmunini rivojlantirish, uni jahon talablari darajasiga olib chiqish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Qiyosiy pedagogikaning vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Chet el ta'lim tizimi rivojining real jarayonlarini aks ettiruvchi yangi va yaxshi, ma'lum bo'lmagan jihatlarni tizimli bayon etish.
2. Jahon mamlakatlarida ta'lim tizimi rivojlanishining muhim qonuniyat va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etish va tizimlashtirish.
3. Turli davlatlar ta'lim tizimi sifati va samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini aniqlash.
4. Talim sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
5. Uzlüksiz ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlarning mavjud holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish.
6. Turli davlatlar ta'lim tizimining rivojlanishidagi salbiy va ijobiy jihatlari, yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash.
7. Ta'lim sohasida ijobiy va salbiy holatlarning yuzaga kelishini aniqlovchi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy sharoitlarni o'rganish.
8. Bir davlat ta'lim tizimini boshqa davlatga ko'chirishning natijalarini bashorat qila olish.
9. O'rganilayotgan ta'lim tizimidagi umumiylik va o'ziga xoslik jihatlari aniqlash.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy **funksiyalari**:

1. Mutaxassislarining chet el tajribasini o'rganishlarini yengillashtirish maqsadida pedagogik hujjatlardagi atama va tushunchalarni unifikatsiyalash va tartibga solish.
2. Turli ta'lim modellari va talim sohasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarni taqqoslash.
3. Kelgusida ta'limni rivojlantirishning istiqbolli va ishonchli yo'llarini bashoratlash.
4. Ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqish.

**Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining  
obyekti va predmeti.**

Qiyosiy pedagogika - mustaqil ilmiy bilim sohasi sifatida o'zining obyekt, predmet, maxsus funksiya va vazifalariga ega. Qiyosiy pedagogikaning obyekt sifatida V.L.Vulfson va Z.A.Malkova hozirgi zamon ta'lim tizimining rivojlanishini, M.L.Rodionov dunyoning turli davlatlaridagi pedagogika nazariyasi va amaliyotini, A.N.Djurinskiy esa hozirgi davr ta'lim va tarbiyasini tushunganlar.

Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining **obyekti**- zamonaviy dunyoda insonni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish jarayoni, shuningdek, global, hududiy va milliy doirada ijtimoiy institut hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi.

Qiyosiy pedagogikaning predmeti haqida pedagog olimlar turlicha fikr bildiradilar. Jumladan, polyak olimi B.Navrochinskiy qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti maktab tizimi, ta'lim - tarbiya metodlari, sharoitlari va omillari, bu sohada erishilgan natijalar va pedagogik nazariya deb hisoblaydi. B.Suxodolskiy esa qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti ancha keng ekanligini, u ta'lim mazmuni va metodlari, o'qitishni tashkil qilish masalalarini ham qamrab olishini ta'kidlaydi.

Rus olimi A.M.Stolyarenko qiyosiy pedagogikaning predmetini pedagogika va maktab amaliyoti bo'yicha butun dunyo miqyosidagi tajribalar deb hisoblaydi va qiyosiy pedagogikaning asosiy maqsadi pedagogika va maktab amaliyotini takomillashtirish bo'yicha dunyo ta'lim tizimi tajribalariga asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qiyosiy pedagogikaning predmeti turli davlatlarda, turli tarixiy davrlarda mavjud bo'lgan ta'lim tizimidir. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining **predmeti** - jahon (chet el va milliy) pedagogik tajribani rivojlanish holati, tendentsiyalari va qonuniyatlari hamda zamonaviy milliy pedagogik madaniyat.

### **Dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'limdagi tipik o'zgarishlar.**

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirishni talab etilayotgan hozirgi davrda chet el tajribasini o'rganish ayni muddaodir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-davlat ichki siyosatiga faol tasir etuvchi ijtimoiy jarayon. Yaponlar «maktab insonlarni yaxshilaydi» deb hisoblaydilar. Ta'lim sohasiga g'amxo'rlik qilish taniqli siyosatchilardan doim diqqat e'tiborida bo'lgan. (R.Reygan, M.Techcher. F.Mitteran va b). Rivojlangan mamlakatlardagi pedagogik tadqiqotlar o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. Maktab dasturlarini o'zgartirish 2 asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: ekstensiv va intensiv.

1-o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi. 2-mutlaqo yangi dastur yaratiladi.

Ko'pchilik mutaxassislar 2-yo'lni ma'qulroq deb hisoblamoqdalar. O'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlar kiritish alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, o'quvchilarni ortiqcha «yuk» dan xalos qiladi. Bunga erishish uchun o'quv kurslari integratsiyasi talab qilinadi.. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. (Fransiyada o'quv soatlaridan 61%, B.Britaniyada 15% ini integratsiyalashgan

kurslar tashkil etadi.) Integratsiyalashgan o'quv dasturlari yondosh o'quv kurslarini o'zak predmet va g'oya atrofida jipslashtiradi, bu o'quvchilarga ijodiy tafakkur yurgizishga yordam beradi. Lekin integratsiyalashgan o'quv kurslari mutlaq ko'pchilik uchun mo'ljallangan bo'lib, ular tarkibidagi fanlardan biri kimgadir juda zarur bo'lsa, kimgadir unchalik emas. Bu muammoni hal etish o'quvchilarni u yoki bu kursga bo'lgan ehtiëjini to'laroq qondirish uchun maktablar aloxida fanlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tashkil etmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limi hamda kasbga yo'naltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

AQShda 1977- yil «Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti» qabul qilingan, unga muvofiq, masalan, avtomobillarni ta'mirlash, kompyuterlarni yig'ish kabi amaliy faoliyat amalga oshiriladi. Fransiyada mehnat ta'limi uchun ajratilgan soatlar 1,5 barobar oshirilgan. Buyuk Britaniya da 1973 yilgi «Mexnat ta'limi va kasbga tayyorlash» aktiga binoan maktab o'quvchilari bir qancha sohalar bo'yicha majburiy kasb-kor dasturini o'zlashtirmoqdalar. O'quv jarayonini tabaqalashtirish muammolarini tadqiq etish chet elda hamon davom etmoqda.


Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Iqtidorli bolalar maktablari g'arbda 60 yillardayoq paydo bo'lgan. AQShning ayrim shaharlarida oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan, ularda 4-5 yoshli bolalar maktab dasturi bo'yicha o'qitiladi. Shuningdek aqli zaif bolalar uchun ham maxsus maktablar tashkil etilmoqda.

Rivojlangan maktablar ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil ishlashiga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Germaniyada sinf o'quvchilari sonini qisqartirish hisobiga ular bilan individual ishlashni takomillashtirish sari yo'l tutilmoqda. Bunda o'quvchilarning har biriga individual paketlar tarqatiladi. Topshiriqlarni o'quvchilar mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda o'qituvchilardan konsultatsiya oladi. Shubhasiz chet el ta'limidagi yuqoridagidek ibratli jihatlarni mamlakatimiz ta'lim tizimiga olib kirish mustaqil respublikamizda o'quv tarbiya - ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining o'rnini va ahamiyati haqida ma'lumot bering.
2. Qiyosiy pedagogika fani qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?
3. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining maqsadi nimadan iborat?
4. Qiyosiy pedagogika fanining vazifalari haqida so'zlab bering.
5. Qiyosiy pedagogika fanining qanday funksiyalari bor?
6. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining obyektini deganda nimani tushunamiz?
7. Qiyosiy pedagogika fanining predmeti nimadan iborat?
8. Dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'limdagi tipik o'zgarishlar haqida so'zlab bering.

**Topshiriq.** Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



## **2-mavzu: Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining rivojlanish bosqichlari va tadqiqot metodlari.**

### **Mavzu rejasi:**

1. Zamonaviy qiyosiy pedagogikadagi uslubiy yondashuvlar.
2. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot metodlari.
3. Qiyosiy pedagogikaning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini davrlashtirish.
4. Qiyosiy pedagogika rivojlanishining asosiy bosqichlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** Mark Antuan Jyulen Parijskiy, Melioristik yondashuv, tarixiy-falsafiy yondashuv, tizimli-sotsiologik yondashuv, fanlararo yondashuv, ma'lumotli yondashuv, etnomadaniy yondashuv, qiyoslash, tasvirlash, tavsiflash, tarixiy, analitik, statistik, tashviqot metodlari, davrlashtirish, o'zlashtirish, bashorat, ilmiy- qiyosiy tadqiqotlar davri.

### **Zamonaviy qiyosiy pedagogikadagi uslubiy yondashuvlar.**

Qiyosiy pedagogikaning asosiy metodologik muammosi zamonaviy chet el tajribasidan milliy miqyosda qay tarzda va qanday shaklda maqsadga muvofiq foydalanish mumkinligini aniqlashdir. Komparativist olim N.Belkanov qiyosiy pedagogikada melioristik, tarixiy-falsafiy, tizimli-mantiqiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatadi.

**Melioristik yondashuv** (M.A.J.Parijskiy): boshlang'ich, o'rta, oliy ta'lim kabi ta'lim bosqichlari va xotin-qizlarning ta'lim olishi, o'qituvchilarni tayyorlash kabi muammolar bo'yicha savollardan iborat bo'lgan so'rovnomalar hamda kuzatuvlar asosida o'tkazilgan tahlillardan iborat.

**Tarixiy-falsafiy yondashuv** vakillaridan bin rus pedagogi K.D.Ushinskiy bo'lib, u har bir ta'lim tizimining milliy xususiyatlarini saqlash tarafdori edi, bu esa chet el tajribasini tadbiiq etishga birmuncha to'sqinlik qilardi. Ingliz kompa-

rativistikasining klassik vakili M.Sendler ham ma'naviy va madaniy omillarni bilmagan turib, milliy ta'lim tizimini taqqoslash mumkin emas deb hisoblardi.

XX asr boshlarida qiyosiy pedagogikada **tizimli-sotsiologik yondashuv** yuzaga keldi, bunda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy xarakterdagi omillar qiyosiy tadqiqotlarning asosi deb qabul qilindi.

**Ma'lumotli yoki mamlakatshunoslikka oid yondashuvda** aniq davlatlardagi ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holati tavsifiy bayon etiladi.

**Fanlararo yondashuvda**, birinchidan, ta'lim tizimi rivojlanishining mamlakat iqtisodi bilan, demak, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy fanlar bilan bog'liqligi, ikkinchidan, tadqiqotlarda didaktika, tarbiya nazariyasi, etnopedagogika, pedagogika tarixi, oliy maktab pedagogikasi kabi sintezning zarurligi bilan bog'liqdir.

**Etnomadaniy yondashuv** ayrim davlat, hudud va global miqyosda xalq ta'limi va madaniyatining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlar va milliy xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutadi, bu yondashuv hozirgi kunda juda muhim sanaladi, milliy ta'lim tizimlarining globallashtirish va integratsiyalashuv yo'nalishi qiyosiy pedagogik tadqiqotlarda mazkur yondashuvning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

**Resursli yondashuv** qiyosiy pedagogik tadqiqotlarda ta'lim tizimining resursli ta'minot muammolarini o'rganishni nazarda tutadi: qonunchilik va siyosiy resurslar, ijtimoiy-siyosiy muhit va sharoit, moddiy-moliyaviy resurs, inson resurslari, ta'lim sohasidagi axborot resurslari majmui shular jumlasidandir.

### Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot metodlari

Qiyosiy pedagogikaning tadqiqot metodlariga tavsiflash, statistik, tarixiy, sotsiologik va analitik metodlar kiradi.

**Tavsiflash metodi** nihoyatda aniqlik va obyektivlikni talab etadi. Ushbu metod ta'lim tizimini boshqarish, o'qituvchilar tayyorlash, o'quv "Qiyosiy pedagogika" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari yurtlarining dastur va rejalari, bolalar va yoshlar faoliyatini tashkil etishda qo'llanadi.

**Statistik metod** tavsiflash metodi bilan uzviy bog'langan. Bu metod ta'lim tizimiga oid raqamlar, ma'lumotlarni tahlil va talqin qiladi, baholaydi. Xususan, o'qitish bosqichlari bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishi, o'quvchilarning ijtimoiy tarkibi kabilarni shular jumlasidandir.

**Tarixiy metod** ta'lim tizimining paydo bo'lishi va shakllanishi, uning rivojlanishidagi an'analar va turli tarixiy davrdagi o'zgarishlarni tadqiq etadi. Zero, tarixiy metod tahlil qilinayotgan pedagogik hodisaning hozirgi holatini ancha chuqur tushunishga yordam beradi.

**Sotsiologik metod** boshqa metodlar bilan uzviy bog'liq. U ta'lim tizimining ijtimoiy xarakterini baholash, ta'lim tizimining maqsadi, vazifalari, mazmuni va metodlarini tahlil qilish kabilarni nazarda tutadi.

**Analitik metod** orqali ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy jihatdan baholanadi, ta'lim tizimining tuzilishiga asos bo'ladigan umumiy tamoyil-

lar belgilanadi, ta'lim mazmuni va uning fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi talablariga mosligi aniqlanadi.

### **Qiyosiy pedagogikaning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini davrlashtirish.**

Pedagogik fanlarning zamonaviy tizimi pedagogika tarixi, etnopedagogika, androgogika, oliy maktab pedagogikasi kabi pedagogikaning qator mustaqil sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Hozirgi globalizatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq holda tezkor rivojlanayotgan pedagogika sohalari qatoriga qiyosiy pedagogikani ham kiritishimiz mumkin. Shu o'rinda qiyosiy pedagogikani fan sifatida davrlashtirishga oid qator yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

D.Beredey va uning izdoshlari qiyosiy pedagogikaning tarixiy nuqtai nazardan shakllanish va rivojlanish jarayonini uchta davrga bo'ladi.

*Birinchi davr - o'zlashtirish davri* - XIX asrga to'g'ri keladi. Bunda chet el pedagogik tajribalari haqidagi aniq ma'lumotlarni yig'ish, tasnif qilish, ta'riflash ishlariga alohida e'tibor beriladi. Bu davr uchun qiyosiy pedagogika tadqiqotlari natijalaridan foydalanish Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ta'limning G'arb modelini yoyish maqsadida amalga oshirilgan.

*Ikkinchi davr - "bashorat"(prognostik) davri* - XX asming birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu davrda sof ko'chirmakashlikdan voz kechish kuzatiladi, o'rganilayotgan davlatlarning madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq holda qiyosiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish ahamiyati ortib boradi, qiyosiy pedagogikaning prognostik vazifalari rivojlanadi. Qiyosiy tahlil asosida bir davlatdan ikkinchi davlatga pedagogik tajribani o'tkazishi mumkinligi yoki mumkin emasligi haqidagi bashoratli (prognostik) tavsiyalar tuziladi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish sharoitlari o'xshash bo'lgan davlatlarda ham o'ziga xos milliylikning mavjudligi o'zlashtirilgan tajribaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga ta'sir etishiga e'tibor qaratiladi.

*Uchinchi davr - ilmiy-qiyosiy tadqiqotlar davri* deb ataladi va bu davrda qiyosiy tadqiqotlarning ahamiyati va ishonchliligi yanada ortib boradi. Rus olimlari M.A.Sokolova va boshqalarning qiyosiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlarini davrlashtirish bo'yicha fikrlari D.Beredeyning yuqoridagi fikrlari bilan mos keladi, lekin rus olimlari bunday bo'linishning mezonlarini mafkura bilan bog'laydi. Unga ko'ra birinchi bosqich - XVIII asming oxiridan 1917 yilgacha, ikkinchi bosqich - 1917 yildan 1945 yilgacha, uchinchi bosqich urushdan keyingi yillarni o'z ichiga oladi.

### **Qiyosiy pedagogikaning rivojlanishining asosiy bosqichlari.**

Rus olimi *A.M.Stolyarenko* qiyosiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishini to'rtta bosqichga bo'ladi:

- birinchisi - qiyosiy pedagogikaning burjua inqiloblari va kapitalizm rivojlangan davrda vujudga kelishi (XIX asr boshlari - 1917 yil);



- ikkinchisi - qiyosiy pedagogikaning sobiq ittifoq xalq ta'limining yangi tizimi tashkil topishi davrida rivojlanishi;
- uchinchisi - qiyosiy pedagogikaning sobiq ittifoq ta'lim tizimining chet el ta'lim tizimlari bilan kuchli raqobati, qarama-qarshiligi davrida rivojlanishi (1935-1991yillar);
- to'rtinchisi - qiyosiy pedagogikaning jahon hamjamiyati, demokratiyasi va insonparvarligi yaratilishi davridagi rivojlanishi (1991yil).

Yuqoridagilarni tahlil qilib, qiyosiy pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini izchillik bilan, har bir davming o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan holda bayon etamiz.

### ***“Qiyosiy pedagogika” fanining vujudga kelishi (XVIII asr oxiri-XX asr boshi)***

Qiyosiy pedagogikaning asoschisi - **Mark Antuan Jyulen Parijskiy**. U birinchi marta “qiyosiy pedagogika”, “qiyosiy tarbiya” atamalarini o'zining “Qiyosiy pedagogika bo'yicha tadqiqotlarga oid ocherklar va mulohazalar” degan asarida qo'llagan (Parij, 1817 yil). 1870 - 1900 yillar turli davlatlar umumiy majburiy ta'lim haqidagi hukumat qarorlarini qabul qiladi va o'z milliy ta'lim tizimini yaratadi. Shu tariqa XIX asr oxirlarida qiyosiy pedagogika quyidagi vazifalarni amalga oshirdi:

- chet el pedagogik tajribasidan ma'lumotlar to'plash, qayta ishlash va chop etish;
- ma'lum davlat ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish uchun ilg'or tajribalarni o'zlashtirish maqsadida turli ta'lim tizimlarning ijobiy jihatlarini aniqlash.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- ✚ Londondagi Xalqaro ko'rgazma (1851 yil);
- ✚ Vashingtondagi “Ma'rifat xizmatlari” (1866 yil);
- ✚ Parijdagi “Pedagogika” muzeyi (1898 yil);
- ✚ Birinchi xalqaro pedagogik jumal “Slavyanskiy pedagog” (1871- yil).

### ***Qiyosiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi (XX asrning birinchi yarmi)***

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika tadqiqotlari chuqur va maqsadli xarakterga ega bo'ldi, qiyosiy pedagogikaning xususiy tadqiqot metodlari paydo bo'ldi, ta'lim tahlili o'rganilayotgan davlatlarning madaniy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti sharoitini hisobga olgan holda olib borildi, qiyosiy pedagogikaning prognostik (bashoratga doir) vazifalari rivojlandi, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faolligi va chet el tajribasini o'rganuvchi olimlar~tadqiqotchilarning ish sur'ati ortdi. 1920-1930-yillarda qiyosiy pedagogika sohasiga oid qator ilmiy ishlar nashr qilindi. Masalan, I.Kendl “Qiyosiy pedagogika sohasiga oid tadqiqotlar” nomli kitobida qiyosiy pedagogikaning ahamiyati, predmeti va metodlari haqida so'z yuritadi, Yevropa-ning yetakchi davlatlari ta'lim tizimlarini ta'riflaydi.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- ✚ Kolumbiya universitetining xalqaro instituti va uning davriy nashri “Yejegodnikprosvesheniya” (1923 yil);
- ✚ Xalqaro maorif byurosi (Jeneva, 1928 yil);
- ✚ “Xalqaro pedagogik jurnal” (bir necha Yevropa tillarida).

### ***Qiyosiy pedagogikaning jadal rivojlanish bosqichi (1945 yildan XX asrning 80 yillarigacha)***

Dunyoda siyosiy vaziyatning o'zgarishi, fan va texnikaning tezlik bilan rivojlanishi, davlatlararo madaniy aloqalarning o'sishi, uzluksiz ta'lim g'oyasining tug'ilishi va shu bilan bog'liq turli davlatlar ta'lim tizimining yangilanishi kabi omillar birgalikda qiyosiy pedagogikaning jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi.

1945 yilda Parijda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tuzildi. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha YUNESKO tashkiloti 1946 yilda tashkil topdi. Uning vazifalariga barcha bosqichlarda ta'limni rivojlantirish, tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish kabi masalalar kiradi. 1970 yilning boshlarida YUNESKO xalqaro ta'lim standarti klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. Qiyosiy pedagogika nazariyasi, ta'limining ayrim muammolari va ba'zi qirralariga oid ko'plab ilmiy ishlar nashr qilindi.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- ✚ Gamburgdagi Pedagogika instituti "Xalqaro ta'lim" jumalini chop etdi (1951 yil);

- ✚ AQSHda "Qiyosiy pedagogika" jamiyati yuzaga keldi (1956 yil);

- ✚ Qiyosiy pedagogikaning Yevropa jamiyati tuzildi (London, 1961 yil) va Buyuk Britaniya, Germaniya, Belgiya, Ispaniya kabi davlatlarda bo'limlari ochildi;

- ✚ Zaltsbnrg "Qiyosiy pedagogika" instituti (Avstriya);

- ✚ Kyusyu "Qiyosiy pedagogika" instituti (Yaponiya);

- ✚ Chikago "Qiyosiy pedagogika" instituti (AQSh);

- ✚ Kolumbiya, Garvard universitetlarida (AQSh) "Qiyosiy pedagogika" kafedralari, laboratoriya markazlari;

- ✚ Gamburg, Margburg imiversitetlari (Gennaniya) va boshqalar ham shular jumlasidandir.

### ***Qiyosiy pedagogikaning o'ta jadal (giperintensiv) rivojlanish bosqichi (XX asrning 80 yillari oxiridan hozirgi vaqtgacha)***

Dunyo ta'lim makonining yuzaga kelishi, faol integratsion jarayonlar, ta'limni "inson kapitali" sifatida e'tirof etilishi, ma'lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo'ylab tan olinishi chet el tajribasini o'rganish jarayonini tezlashtiradi. 1997-yilda XTSK (Xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko'rsatilgan.

1. maktabgacha ta'lim;

2. boshlang'ich ta'lim;

3. o'rta ta'limning birinchi bosqichi;

4. o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi

5. o'rta ta'limdan keyingi ta'lim, oliy ta'lim emas;

6. oliy ta'limning birinchi bosqichi;

7. oliy ta'limning ikkinchi bosqichi -oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- ✚ Qiyosiy pedagogikaning Osiyo assotsiatsiyasi (1995 yil);

- ✚ “Ta’lim hamma uchun” konferentsiyasi (Tailand, 1990 yil 165 davlatdan 1500 delegat ishtirok etgan);
- ✚ “Erazmus” dasturi (1987 yil; mazkur dastur bo’yicha 1988 yildan 1995 yilgacha 400 ming talaba va 50 ming o’qituvchi ishtirok etgan);
- ✚ Rossiyada “Obuchenie za rubejom”, “Obrazovaniye bez granits” kabi jumal nashrlari;

O‘zbekistonda pedagogikaga oid barcha nashrlarda qiyosiy pedagogika masalalarini muntazam yoritib boriladi.

### NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qiyosiy pedagogikaning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlariga doir qanday yondashuvlar mavjud?
2. Qiyosiy pedagogika fanining asoschisi kim?
3. XVIII asr oxiri - XX asr boshlarida qiyosiy pedagogikaga oid qanday tashkilot va muassasalar tashkil topdi?
4. Qiyosiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi qaysi yillarga to‘g‘ri keladi?
5. Nechanchi yilda ilk bor YUNESKO xalqaro ta’lim standart klassifikatsiyasini ishlab chiqdi?
6. “Ta’lim hamma uchun” konferensiyasi qachon va qaysi davlatda bo‘lib o‘tdi?

**Topshiriq.** Qiyosiy pedagogika fanining metodologik asosiga doir quyidagi toifalash jadvalini to‘ldiring.

Obyekti	Predmeti	Funksiyalari	Tadqiqot metodlari

### 3-mavzu: Buyuk Britaniya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

#### Mavzu rejasi:

1. Buyuk Britaniyada ta'lim rivojlanishining geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillari.
2. Buyuk Britaniyada ta'limning xususiyatlari.
3. Qiyosiy ta'lim bo'yicha tadqiqotchilar.
4. Buyuk Britaniyada ta'limning ijtimoiy modellari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ta’lim tizimi, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik maktabi, zamonaviy maktab, texnik maktab, umumlashtirilgan maktab, maktab-pansionat, kollej, oliy ta’lim, universitet, bakalavriyat, magistratura, doktorantura, Angliya va Uels ta’lim tizimi, Shimoliy Irlandiya ta’lim tizimi, Shotlandiya ta’lim tizimi, falsafa magistri, falsafa doktori.

**Buyuk Britaniyada ta'lim rivojlanishining geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillari.**

Buyuk Britaniyada so‘nggi yillarda ta‘lim davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o‘rin egallamoqda. Bu mamlakatning Angliya, Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya ga bo‘linishiga qaramay, ularda ta‘lim tizimi tarixan o‘xshash tendensiyalarga ega. Biroq har bir mintaqa bir-biridan ta‘limga oid muammolarni hal qilishda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Buyuk Britaniya xalq ta‘limining tarixi Rim imperiyasi hukmronligi davrlarini qamrab oladi. O‘rta asrlarda maktablar lotin savodxonligi uchun tashkil etilgan bo‘lib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ustozlar va shogirdlar tizimi ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Bu davrda ikkita universitet, biri Oksfordda, ikkinchisi Kembrijda ochilgan edi. Eduard IV<sup>1</sup> qirolligi davrida savodxonlik (savod) maktab (grammar school)larining bepul tizimi shakllandi. XIX asrning boshlarigacha Buyuk Britaniyaning maktablari cherkovlar huzurida bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bepul boshlang‘ich dunyoviy ta‘lim joriy etildi. Mamlakatda, shuningdek, oliy va maxsus ta‘lim ham rivojlandi. Poytaxtda London universiteti va Qirol kolleji (hozirgi London universiteti) faoliyat ko‘rsata boshladilar. Bulardan tashqari, XIX asrning oxirlarida yirik shaharlarda «Qizil g‘isht universitetlari (Redbrick university)» ochildi. Ularda aniq va muhandislik fanlari o‘qitilar edi. Qayd etish joizki, Buyuk Britaniyaning boshlang‘ich ta‘lim tarixida «Yakshanba maktabi» jamoatchilik tomonidan ma‘qullanib, bunday maktablar ommaviylashib bordi. 1798 yilda «Yakshanba maktablari jamiyati» tashkil etildi. O‘sha davrda Shotlandiyada 600 nafar, Angliya va Uelsda 5 mln. nafar bolalar bu maktablarda tahsil olar edilar. Buyuk Britaniyada 1918 yilga kelib bepul xalq ta‘limi joriy etildi. Umuman olganda, XIX asrda Angliyada umumiy xalq ta‘limi tizimi shakllandi. Shuningdek, XIX asr oxirida mamlakatda kechki maktablar ham keng tarqalgan edi. 90-yillarda kasbiy va texnik maktablar keng rivojlana boshladi. Bular bilan birga XIX asrning ikkinchi yarmida «real maktablar» va «san‘at maktablar»i ham shakllandi. XIX asrning o‘rtalarida qizlar uchun o‘rta maktablarda va 1860 yildan boshlab ayollarga universitetlarda o‘qishga ruxsat etildi. 1918 yilga kelib Angliyada 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘qishi majburiy qilib qo‘yildi. 20-yillarda mamlakatda «O‘rta ta‘lim barcha uchun» degan shior ommaviylashdi va shu tariqa Buyuk Britaniyada xalq ta‘limi takomillashib bordi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Angliyada quyidagi ta‘lim tizimi shakllandi:

- a) maktabgacha ta‘lim;
- b) boshlang‘ich ta‘lim;
- v) savodxonlik maktabi;
- g) zamonaviy maktab;
- d) texnik maktab;
- e) umumlashtirilgan (uyushgan) maktab.

Buyuk Britaniyada bunday maktablardan tashqari xususiy maktablar ham uzoq davrdan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ikkinchi Jahon urushidan keyin, ayniqsa 1960-yillarda Buyuk Britaniyada zamonaviy maktablarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-tajriba ishlari keng olib borildi. Bu ishlardan ko‘zlangan

---

<sup>1</sup> (1441-1483) Hukmronlik davri 1461–1470 va 1471-1483 yillar. (tahr.)

maqsad Angliyada jahondagi eng yuqori andozalarga javob beradigan ta'lim tizimini shakllantirish edi. Mazkur ishlarni bajarishga nafaqat pedagogik muassasalar, balki universitetlar ham o'z hissalarini qo'shdilar. Bu ishlar zamirida Buyuk Britaniya ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish va ingliz ta'lim tizimini eng ilg'or mamlakatlar darajasiga yetkazish yotar edi. Shunday qilib, mamlakatda yetarli darajada ixcham va mukammal zamonaviy ta'lim tizimi shakllandi.



Buyuk Britaniya ta'lim tizimida uning tayanchi bo'lib hisoblangan boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratilgan. Bu ta'lim shaklining tarixi ham XIX asrga borib taqaladi. Hozirgi davrda Buyuk Britaniyada kichik yoshdagi bolalar ta'limiga alohida e'tibor berilib, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari kengayib, bunday bolalar uchun adabiyotlarni chop ettirish ko'lami ortib bormoqda. So'nggi 35 yil davomida Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ijobiy o'zgarishlarning tavsifi va mazmuniga qarab, maktabgacha ta'limning taraqqiyotini ikki bosqichga: 1980-1996 yillar va 1997 yildan hozirgi davrgacha bo'lgan davrlarga shartli ravishda bo'lish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining birinchi bosqichi Buyuk Britaniya jamoatchiligining bolalarni maktabgacha tayyorlashning sifati, natijasi va barcha uchun mos kelishiga qaratilgan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishga qaratilgan. Bu davrda pedagoglarning diqqati maktabgacha ta'lim tizimining istiqbolda rivojlanishini «pastdan» boshlashga, ya'ni mazkur tizimdagi tarbiya maskanlarining dars turlarini takomillashtirishga qaratildi. Keyinchalik pedagoglar bu sohaning rivojiga tizimli yondashish zarurligini anglab, bu jarayonga davlat aralashuvi lozimligi, ya'ni sohaning rivojini «yuqoridan» amalga oshirish lozimligini tushunib yetdilar. Buyuk Britaniyada 1996 yilda barcha maktabgacha ta'lim muassasalari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan me'yoriy hujjat qabul qilindi. Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining ikkinchi bosqichida esa mamlakatda davlat va jamoatchilikning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid dasturiy-uslubiy va me'yoriy-huquqiy majmuaviy hujjatlar (2007 yil) yaratilib amaliyotga tatbiq etildi. Bu davrda maktabgacha ta'lim tizimiga «bazaviy daraja» maqomi berilib, barcha bolalarning yuqori sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash yo'nalishi belgilab olindi.

**Buyuk Britaniyada ta'limning xususiyatlari.**

Buyuk Britaniya noyob madaniyat va an'analar davlati hisoblanadi. Ingliz ta'lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb hisoblanadi, Britaniya ta'lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim berish kambag'al ishchi oilalar bolalariga ko'ngilli yordam berish harakatiga asosan vujudga kelgan. 1816 yilda Robert Ouen ilk bor Shotlandiyada o'z fabrikasi ishchilarining farzandlari uchun ilk bor bolalar bog'chasini ochgan. XX asr boshlarida opa-singil Makmillanlarning tashabbusi bilan bir nechta bolalar bog'chalari ochilib, ularda asosan kam ta'minlangan oilalar farzandlarining salomatligi va yaxshi ovqatlanishlari uchun g'amxo'rlik ko'rsatilgan. 1988-yilda «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni kuchga kirib, unda nafaqat ta'lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan.

Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta'lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. O'qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta deb hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim ustuvor yo'nalish toifasiga 1996 yilda maktabgacha ta'lim tizimi haqidagi qonun qabul qilingandan keyingina tushgan. Uni qabul qilishdan asosiy maqsad bolalar bog'chalarida ta'lim berish sifatini yaxshilash, ta'lim standartlarini oshirish va erta ta'lim berishni moliyalashni oshirishdan iborat. Taklif qilingan tizim doirasida o'ziga xos o'quv rejasi o'rnatilib, uning bajarilishi maktabgacha ta'lim muassasasining davlat ta'lim tizimi talablariga javob berishi lozim. Maxsus ehtiyojlarga muhtoj va ingliz tili ularning ona tili bo'lmagan bolalarga alohida e'tibor berilgan. Shuni ta'kidlash joizki, bolalar tarbiyasi va ta'lim olishi o'rtasidagi farq hamma mamlakatlarda mavjud emas. Buyuk Britaniyada esa ikkalasi ham ahamiyatli va zarur, deb tan olingan. Birlashgan Qirollikda bunday xizmat ko'rsatuvchi 25 turdagi muassasalar faoliyat olib boradi va shuning uchun bu yerdagi ta'lim tizimi turlicha va ahamiyati ham teng emas.

1997 yildan Angliyada erta ta'lim islohoti amalga oshirilmoqda. Bu davrgacha erta ta'lim olish va tarbiyalashga yondashish tizimlashtirilmagan edi – maktabgacha tarbiya muassasasi xohlaganicha o'qitish dasturi yoki xizmat ko'rsatish turlarini qo'llashi mumkin edi. Bu holat yagona ta'lim tizimiga jamlanmagan «noyob» yondashishlarning tarqalishiga olib keldi. O'qitish uchun xizmatlar sifati o'zgarib turar edi. Angliyadagi 3-4 yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim Yevropada eng yaxshilardan biri deb tan olingan bo'lsa-da, Buyuk Britaniyada o'tgan asrning 90-yillar boshiga kelib undan faqat 20 foizgina bolalar foydalanar edilar. Qabul qilingan islohot 3-4 yoshdagi bolalar tarbiyasi uchun yagona ta'lim dasturi ishlab chiqarilishiga yo'naltirilgan edi. 1988-yilda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun 15 mlrd. dollar miqdorida mablag' sarflangan. Shu bilan birga 1997-yilga kelib, Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'limning birorta ham xususiy tizimi bo'lmagan bo'lsa-da, hozirga kelib ularning soni 20 tadan oshib ketdi. Bolalar bog'chasi faqat davlat ro'yxatidan o'tgandan keyingina davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bolalar bog'chalarida inspeksiya mustaqil ekspertlar tomonidan o'tkazilib, natijalari ochiq axborot vositalarida e'lon qilinadi. 1977-yilgi davlat tekshiruv natijalariga ko'ra 77 foiz maktabgacha ta'lim muassasalari qabul qilingan

standartlarga mos kelmagan: bolalar bog'chalarida batafsil ta'lim rejaları mavjud bo'lmagan, bolalar rivojlanishining monitoring tizimi taqdim etilmagan, ta'lim dasturlarining turli jihatlari o'rtasidagi aniq bog'lanish belgilanmagan. Ekspert hisobotlarining 40 foizida pedagoglarning bolalar rivojlanishining holati to'g'risida tushunchalar yetarli emasligi ko'rsatilgan; bola tomonidan taklif etilgan faoliyat va ta'lim dasturiga mos ravishda pedagog tomonidan tashkil etilgan faoliyat o'rtasidagi o'zaro harakatning mutanosib tizimi mavjud emasligi.



Bugungi kunda bunday muammolar qisman o'z yechimini topgan, lekin bolalar bog'chasi bitiruvchilarining tayyorgarligi va maktablarning maktabgacha ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yilgan haddan tashqari oshirilgan talablari orasidagi katta farq «Bola qanday rivojlanishi kerak?» degan masalaga nazariy nuqtai nazar va pedagoglarning amaldagi yondashuvi o'rtasida bir qator kelishmovchiliklar tug'dirmoqda. Shuni ham aytib o'tish lozimki, Buyuk Britaniyaning hamma yerida maktabgacha ta'lim muassasalarida bir xil ta'lim standartlari doirasida ish olib borilmaydi. Masalan, Shotlandiyada erta ta'lim sohasidagi islohotlar - erta qo'llab-quvvatlash markazlari bilan bog'liq emas (bu haqida quyida ma'lumot berilgan). Undan farqli ravishda ochiq seminar va konferensiyalar o'tkazilib, u yerda pedagoglar ta'lim jarayoniga yondashuv xususiyatlarini namoyon etish yo'llari bilan tajriba almashadilar.

### **Qiyosiy ta'lim bo'yicha tadqiqotchilar**

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi.

O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yin davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat. Buyuk

Britaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish bo'yicha Y. Kvong katta tadqiqot ishlarini olib borgan. U bolalar bog'chalari xodimlari va ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazgan, bolalar bog'chalari faoliyatini kuzatgan. Tadqiqot o'tkazish uchun erkin ravishda 10 ta maktabgacha ta'lim muassasasi tanlanib, ulardan har birining ikki guruhida muntazam besh kunlik uzluksiz kuzatuv olib borilgan. Ingliz bolalar bog'chalar guruhlarida 25 nafardan ortmagan miqdorda bola tarbiyalanadi (tarbiyachilar va bolalar soni birga o'n nisbatda olinadi). Natijalarning ko'rsatishicha, ingliz pedagoglarining 75 foizi bolalarni ta'lim olishga qiziqtirish uchun tashqaridan motivatsiya qilish ni noma'qul deb hisoblaydilar (masalan, bolalar o'rtasida musobaqalashish shaklini). Bunday pozitsiya negizida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yotadi. Masalan, M.Lepper va D.Grin tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizish (bolalar bunga juda qiziqadilar) uchun mukofotlanganlari misoli keltirilgan. Shundan so'ng bolalar bo'sh vaqtida o'zicha rasm chizishni xohlamay, faqat mukofot uchun rasm chizishni istab qolganlar. Boshqacha qilib aytganda, bolalarda ichki motivatsiya yo'qolib, uning o'rnini tashqi motivatsiya egallagan. Ingliz bolalar bog'chasida bolalar uzoq muddat mustaqil shug'ullanadilar, tarbiyachi esa ularni chetdan kuzatib boradi. Umumiy vaqtning faqat 15 foizi pedagog rahbarligida guruh ko'rinishda o'qitishga ajratiladi. Bunday o'qitish rivojlanish darajasi bir-biriga teng bolalardan tuzilgan kichik guruhlarda o'tkaziladi. Shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini inobatga olish qoidasi amalda qo'llaniladi. Deyarli hamma tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash usulidan foydalanish kerak, deb hisoblaydilar. Amalda ingliz bolalar bog'chalarida (amaldagi til va matematika bo'yicha majburiy mashg'ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Mazmuniy-rolli o'yinlarga pedagoglarda deyarli vaqt qolmaydi.

Qanday qilib tarbiyachi bo'lib ishlash mumkin? Bolalar bog'chasida ishlashga ruxsat olish uchun alohida tegishli tayyorgarlik qilish lozim. Bu tayyorgarlik yo uch yil asosiy va bir yil qo'shimcha o'qishdan yoki to'rt yil turli ta'lim tuzilmalarda tahsil olishdan iborat. Tarbiyachilarning atigi 20 foizi bakalavr maqomiga ega. Pedagog yordamchisi yoki enaga bo'lish uchun maxsus 15 soatlik tayyorlov dasturi o'qishlari kerak. Bunday o'qishni hozirgi kunda ko'payib borayotgan ta'lim assotsiatsiyalarida o'tash mumkin. Buyuk Britaniyadagi mutaxassislar tayyorlash tizimining shubhasiz afzalligi uning yuqori darajada amaliyotga qaratilganligi. Bu borada 50 foiz mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladi (qiyoslaganda Ispaniyada bu ko'rsatkich 12 foizni, Italiya va Daniyada 20 foizni, Fransiya, Belgiya va Niderlandiyada 25 foizni, Germaniya va Shvesiyada 30 foizni tashkil etadi). Mutaxassislarning baholashicha, Buyuk Britaniyada maktabgacha tarbiya muassasalarida yaqin 10 yil ichida ish joylari 250000 taga ko'payadi.

**Ota-onalarga yordam.** 1997 yilda Buyuk Britaniyada kam ta'minlangan oilalar bolalariga yo'naltirilgan erta qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish dasturi joriy etila boshlandi. Bu markazlar bolani parvarishlash va o'qitish uchun barcha zarur xizmatlarni amalga oshiradi va bu jarayonga ota-onalar ham jalb etiladi. 1998 yilda bunday markazlar soni 11 ta edi, 2001 yilga kelib ularning soni 35 taga yetdi,



bugunga kelib esa 100 dan ortiq. Bunday muassasa qanday ishlashini yaxshiroq tushunish uchun, shunday markaz rahbarlaridan biri fikrini keltirish o'rinli. Uning aytishicha, ijtimoiy past tabaqaga mansub yosh ona farzandini ilk bor markazga olib kelganida bola uchun barcha qulayliklar muhayyo bo'lgan, bolalar uchun yumshoq mebdan tortib o'yinchoqlargacha bo'lgan barcha zarur narsalar bilan ta'minlangan tibbiy punkt mavjud. Onalarning 85 foizi va otalarning 60 foizi bola rivojlanishini o'rganish guruhlarida qatnashadilar. Bola bilan qanday shug'ullanish kerak va uni qanday yaxshiroq tushunish mumkinligini bilish uchun ota-onalar mashg'ulotlar vidoyozuvlarini ko'radilar va ota-onalarga berilgan «uy vazifalarni» tahlil qiladilar», deydi markaz rahbari. Maktabgacha tarbiya masalalariga, xususan yosh bolali ota-onalarga diqqat-e'tibor qonun hujjatlarida ham o'z aksini topdi. 1999 yilda bolani parvarishlash uchun ta'til 14 haftadan 18 haftagacha uzaytirildi. Biror-bir korxonada bir yildan ortiq ishlagan har bir ayol bunday huquqqa ega. Shu bilan birga ularga 5 yillik muddatga ish joyini saqlab qolish kafolatlanadi. 60 foizdan ko'proq onalar dekret ta'tilidan so'ng o'z ish joylariga qaytadilar.

Angliyadagi maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar tarbiyasi uchun to'lov Yevropada eng ko'pni tashkil etadi. Kam ta'minlangan oilalarga yordam tariqasida kredit dasturi ishlab chiqilgan va unga asosan haftasiga kamida 16 soat ishlaydigan ota-onalar 14 yoshgacha bo'lgan bitta farzandi uchun 105 AQSh dollari miqdorida, ikki va undan ko'p shu yoshdagi bolalari uchun 158 AQSh dollar miqdorida kredit puli olishlari mumkin. Oilalar zimmasiga bolalarni parvarishlash va ta'lim berish uchun asosiy moliyaviy majburiyat yuklatiladi. Bepul va hammabop tarbiya bilan esa 3-4 yoshdagi bolalar bilan kuniga ozgina vaqt (bir necha soat) shug'ullanish mumkin. Shu bilan birga Buyuk Britaniyada oilada faqat yoki ota, yoki ona bo'lgan oilalar soni Yevropa miqyosida eng ko'p foizni (20%) tashkil etadi. Bunday ota-onalarning ko'pchiligi (60%) ishsizlar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har uchinchi bola (4,3 million bola) muhtojlikda yashaydi (bu ko'rsatkich ota-onalarning daromadi aholining o'rtacha daromadidan kam bo'lganda aniqlangan). Quyida (pastki) ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalaridagi bolalarni qo'llab-quvvatlash erta qo'llab-quvvatlash markazlaridan tashqari «Qat'iy start» dasturi yordamida amalga oshiriladi. Bu dasturni tashkil etuvchi qismlari: mutaxassislar bilan bolalarning uyida uchrashuvlar, bolaning o'ynash faoliyati yuqori sifati xislatini qo'llab-quvvatlash, bolaga zarur parvarish berishni ta'minlash, maxsus ehtiyojlarga muhtoj bolalarga alohida e'tibor qaratish.

**Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dasturlar.** Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta'lim o'quv rejasida nafaqat umumiy ta'lim jarayoniga urg'u beriladi, balki boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishning olti yo'nalishidagi aniq ko'nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiyemotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p o'ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o'yin uchun vaqt qolmaydi. Masalan, savodxonlik borasida gap ketganda besh yasharlik bolalar quyidagilarni bilishlari kerak:

– so'z boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlash;

- tovush va harflarni ajrata bilish;
- alifbodagi hamma harflarni aytish;
- oddiy soʻzlar va gapni oʻqish;
- oʻz ismini yozish;
- oddiy soʻzlarni yozishda fonetika bilimlaridan foydalanish.

Bunday maqsadlar yuqori texnologiyali dasturlar yaratilishiga olib keladi. Ularda har bir mashgʻulot uchun nafaqat pedagog tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi, balki olinadigan natijalar ham bayon etilgan.

### Buyuk Britaniyada ta'limning ijtimoiy modellari.

Soʻnggi yillarda Britaniya hukumati maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki maktabgacha ta'lim tizimini mazmunan boyitish mamlakat kelajagini belgilaydi. Ayni paytda Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagoglar va otionalarning roli katta boʻlib, ular hukumatning bu sohadagi siyosatini belgilashga oʻz hissalarini qoʻshmoqdalar. Umuman olganda bugungi kunda mamlakatda milliy xususiyat va an'analarni saqlagan holda maktabgacha ta'limga oid yangi oʻquv-metodik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib amalga tatbiq etilmoqda.

Buyuk Britaniyada bazaviy-maktabgacha ta'lim tizimi dunyodagi eng ilgʻor oʻquv-uslubiy me'yorlarni oʻziga singdirgan hamda u ta'limning boshqa tizimlari bilan uygʻunlashtirilgan (2.1-rasm).

Doktorantura (3-5 yil)					Oliy ta'lim
Magistratura (1-2 yil)					
Bakalavriat 3-4 yil (tibbiyot yoʻnalishi 6 yil)					
Oltinchi sinf «Sixth Form»					
Umumiy maktab	Savodxonlik maktabi	Zamonaviy oʻrta maktab	Shahar texnologik kolleji	Umumiy majburiy ta'lim	Toʻliq oʻrta ta'lim
Boshlangʻich ta'lim					
Maktabgacha ta'lim					

**2.1-rasm. Buyuk Britaniya ta'lim tizimining asosiy bosqichlari.**

Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi quyidagi toʻrt bosqichga boʻlinadi:

- boshlangʻich ta'lim (Elementary school) – 5–11 yoshdagi bolalar;
- oʻrta ta'lim (Secondary school) – 11–16 yoshdagi bolalar va oʻsmirlar;
- keyingi ta'lim (Further school) – 16–18 yoshdagilar;
- oliy ta'lim (Higher education) – 18 yoshdan yuqori boʻlgan talabalar.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Вяземский Е.Е. Современная система образования в Великобритании. // Журнал «Проблемы современного образования». 2010, № 6. 3

Ba'zi adabiyotlarda Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarga ajratgan holda tadqiq qilingan: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, keyingi ta'lim tizimi va oliy ta'lim.

Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi ma'muriy jihatdan va an'analarga binoan quyidagi uch tizim osti guruhlariga bo'linadi:

- 1) Angliya va Uels;
- 2) Shimoliy Irlandiya;
- 3) Shotlandiya ta'lim tizimlari.

Ta'kidlash lozimki, Angliya va Uels hamda Shimoliy Irlandiyaning ta'lim tizimlari bir-biridan unchalik ko'p farq qilmaydi. Biroq, Shotlandiyaning ta'lim tizimi o'ziga xos an'analari va xususiyatlariga ega.

Angliya va Uelsda ta'lim 5 yoshdan boshlanadi va 11 yoshgacha bolalar boshlang'ich maktablarda yozuv, o'qish va arifmetika bo'yicha o'z saviya va ko'nikmalarini shakllantiradilar. 11 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rta maktablar (umumta'lim – comprehensive schools, fanlarni chuqurroq o'rgatuvchi maktablar - grammar schools va maxsus o'rta maktablarda - secondary modern schools) o'qishni davom ettiradilar. 16 yoshga to'lgandan keyin esa yoshlar yuqorida qayd etilgan tartiblarda ish tutishlari mumkin bo'ladi.

Shotlandiyada esa bolalar boshlang'ich maktablarida 4 yoshdan boshlab 12 yoshgacha o'qiydilar. So'ng deyarli barcha o'quvchilar 6 yil umumta'lim maktab (Comprehensive schools)larida ta'lim oladilar. Tog'li hududlarda esa o'qituvchilar yetishmovchiligi bois o'quvchilar 4 yil o'qib, keyin o'qishlarini bi ron-bir umumta'lim maktabiga ko'chiradilar. Shotlandiyada ko'plab maktablar ta'lim kengashlariga qarashli bo'lib, ular o'z kengashlari tomonidan moliyalashtiriladilar. Bir qancha (19ta) maktablar ta'lim grantlari asosida moliyalashtirilib, ko'ngilli tashkilotlar tomonidan boshqariladi. Bolalarning ota-onalari o'z ovoz berish orqali ba'zi maktablarni mahalliy kengashlarning moliyalashtirishidan departament tomonidan moliyalashtirishga o'tkazishlari mumkin. Shimoliy Irlandiyada esa bolalar 4 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich maktabda ta'lim oladilar. O'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning diniy mansubligi va qobiliyatiga binoan tashkil etilgan. «Nazoratdagi maktab (Controlled schools)» to'liq hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. «Ko'ngillilar maktablar (Voluntary schools)»ning ma'lum qismi turli ko'ngilli tashkilotlarga, ko'p qismi esa cherkovlarga qarashli bo'lib, ular turli xayriya fondlari tomonidan moliyalashtiriladi. «Ko'ngillilar maktablari»ning bir qismi nasroniylar maktablari bo'lib, ular Shimoliy Irlandiyaning ta'lim departamentidan to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar oladilar.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada oddiy o'rta maktablar bilan birga maktab-pansionatlari (Boarding schools) keng tarqalgan. Bunday maktablarda o'quvchilar 8 yil davomida yashab, o'qiydilar. Ular faqat ta'tillarni o'z uylarida o'tkazadilar. Maktab-pansionatlarda ish yuzasidan ko'plab xizmat safarlarida bo'ladigan va turar joylarini bir yerdan boshqa yerga ko'chirib turadigan ota-onalarning farzandlari tahsil oladilar. Buyuk Britaniyada pansionatlar uzoq davrlardan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular xizmatidan o'ziga to'q, yuqori darajadagi nufuzga ega bo'lgan oilalar farzandlari ham foydalanadilar. Mamlakatda ikki turdagi, ya'ni

mustaqil va xususiy (Independent and Private Boarding Schools) pansionatlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimida o'rta umumtalim asosidagi «Keyingi ta'lim» tizimi alohida ahamiyatga ega. Bu mamlakatda «Keyingi ta'lim» bizning tushunchamizdagi akademik litsey va kasb-hunar kollejarimizni anglatuvchi ta'lim tizimining tarkibiy qismidir. Mazkur ta'lim tizimi turli kollej, o'quv markazlari va institutlarni qamrab olgan tizim bo'lib, bu ta'lim muassasalari turli kasbiy-texnik va oliy darajadagi mutaxassislarni tayyorlaydilar. Buyuk Britaniyaning «Keyingi ta'lim» tizimida hammasi bo'lib 700 ga yaqin ixtisoslashgan kollejar mavjud.

Ularda 16-18 yoshdagi o'quvchilar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tahsil oladilar. Bulardan tashqari «keyingi ta'lim» tizimida 7000 dan ko'proq tungi institut va katta yoshdagilarni o'qitish markazlari faoliyat yuritadi. Bu o'quv muassasalari turli mutaxassisliklar bo'yicha kadr tayyorlaydilar va yoshi kattalarning kasbiy ma'lumoti, malaka va madaniy darajasini oshirishga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyadagi barcha «keyingi ta'lim» muassasalari faoliyati mahalliy organlar tomonidan nazorat qilinadi. Albatta tizimdagi qirol xartiyasiga ega bo'lgan ta'lim muassasalari bundan mustasnodir. 60-yillarda «keyingi ta'lim» tizimida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu tizimdagi ta'lim muassasalariga akademik darajalarni berish huquqi berildi, ya'ni endilikda texnik va tijorat kollejlari huzuridagi politexnik ta'lim muassasalarida o'qib, oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati yaratildi.

O'z navbatida kasbiy tayyorgarlik 4 darajadan iborat: (turdosh ishlarni bajaruvchi (1-daraja), mustaqil va mas'uliyat bilan ish bajaruvchi (2-daraja), murakkab va o'xshash ishlarni bajaruvchi (3-daraja), maxsus xususiy topshiriqlarni bajaruvchi (4-daraja).

Britaniya oliy ta'limi o'zining sifati bilan mashhurdir. Oliy o'quv yurtlari 3 turga bo'linadi:

- *Kollejlar*- (Colleges of Higher Education)- universitetlardek ilmiy daraja (faqat bakalavr darajasida) va oliy ma'lumot haqida diplom beradi. Lekin universitetlardan farqli holda ular rassomchilik, dizayn, musiqa, teatr san'ati, ta'lim kabi tor sohalarda ixtisoslik beradi.
- *Politexnika institutlari*- muhandislik mutaxassisligini beradi.
- *Klassik universitetlar*- hozir Buyuk Britaniyada 102 ta universitet mavjud bo'lib, ularning ko'plari davlatga qarashlidir. O'qish muddati talaba tanlagan mutaxassislikka va darajaga bog'liq bo'ladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, Buyuk Britaniyaning barcha kollejarida ta'lim tizimi ishlab chiqarish bilan bevosita aloqador. Kollejlarda bir yildan besh yilgacha ta'lim beriladi. Buyuk Britaniyaning oliy ta'lim tizimini esa an'anaviy tarzda akademik universitet va kasbga yo'naltirilgan politexnik kollejar tashkil qiladi. O'z navbatida tarkibiga ko'ra Britaniyaning universitetlari kollegial va unitarga bo'linadi.

Kollegial universitetlarning yorqin namunasi sifatida o'z tarkibiga 30 kollejni qamrab olgan Oksford yoki 29 kollejdandan iborat Kembridj universitetlarini keltirish mumkin.

Unitar universitetlar tarkibiga esa fakultet o'quv bo'limlari kiradi. Universitetlar faoliyati qirolning xartiyasi yoki ustavlar asosida tartibga solinadi. Britaniya universitetlarining rasmiy rahbari qirolicha tomonidan tayinlanadigan kansler bo'lib, odatda u rasmiy shaxs bo'lib hisoblanadi. Universitet ma'muriyatining haqiqiy rahbari vitse-kansler (kansler o'rinbosari) yoki (masalan, Shotlandiyada) rektordir. Buyuk Britaniya universitetlari o'z ta'lim darajalarini berishi bo'yicha birinchi va oliy toifalarga bo'linadilar. Ko'pchilik universitetlarda tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha birinchi bakalavr akademik daraja beriladi. Birinchi darjani beruvchi kurslar 3-4 yil (tibbiyotda 6 yil) belgilangan. Birinchi daraja ikki turga, ya'ni rasmiy va ananaviyga bo'linadi. Rasmiy daraja belgilangan kursdagi (ko'p hollarda asosiy va bir nechta qo'shimcha) fanlarni chuqur o'zlashtirishni taqozo etadi. An'anaviy darajadagi kurslarda esa ko'proq fanlarni keng o'rganish zarur bo'ladi.


Buyuk Britaniya oliy o'quv yurtlarida oliy daraja fan magistri va falsafa doktoriga bo'linadi. Fan magistri yoki san'at magistri talaba 12 yil o'qigandan so'ng va bakalavr darajasini olgandan keyingina beriladi. Oxirgi vaqtlarda mamlakatda falsafa magistri darajasi ham joriy etildi. Bu daraja 2 yil va undan ko'p muddatda ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilganida beriladi. Magistr darajasi Buyuk Britaniyada ko'p tarqalmagan, uni ko'p hollarda doktorlik tayyor lovidan o'tib bo'lmaganlarga beriladi. Falsafa doktori darajasi mamlakatda eng yuqori ilmiy daraja hisoblanadi. Bu daraja doktorlik dissertatsiyasi tayyorlanib, muvaffa qiyatli himoya qilingandan so'ng beriladi.

Odatda bunday ishlarni tayyorlashga 3 yil ajratiladi. Alohida holatlarda fan va amaliyotning rivojiga ulkan hissa qo'shganlarga fan doktori yoki adabiyot doktori oliy darajasi beriladi. Hozirgi davrda Buyuk Britaniyada 90 ta universitet va 64 ta boshqa oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatning eng qadimgi universitetlari bo'lib, Oksford (1167 yilda asos solingan) va Kembridj (1209 yilda tashkil etilgan) universitetlari hisoblanadi. Umuman olganda, Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi uzoq tarixiy davrda bosqichma-bosqich takomillashib bordi va ko'plab mamlakatlar uchun andoza bo'la oladigan darajaga yetdi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Buyuk Britaniyada ta'lim rivojlanishining geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillari haqida so'zlab bering.
2. Buyuk Britaniyada ta'limning xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tizimi to'g'risida ma'lumot bering.
3. Qiyosiy ta'lim bo'yicha tadqiqotchilar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Buyuk Britaniyada ta'limning bosqichlari necha turga bo'linadi?
5. Mamlakatning eng qadimgi va mashhur universitetlarini sanab bering.
6. Kembridj universitetiga qachon asos solingan?

**Topshiriq:** Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi bosqichlari bo'yicha jadvalni to'ldiring.



#### 4-mavzu: Germaniya ta'lim tizimi.

##### Mavzu rejasi:

1. Germaniya ta'lim tizimi va uning shakllanish jarayoni.
2. Germaniyada maktabgacha ta'lim va tarbiya masalalari.
3. Germaniya ta'lim tizimi va uning besh oltin qoidasi. Germaniyada boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar.
4. Oliy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.
5. O'zbekiston va Germaniya ta'lim tizimining o'xshash va farqli jihatlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn, boshlang'ich ta'lim, asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar, internatsional bolalar bog'chalari, integratsion bolalar bog'chalari, Freinet-Kindergarten, Reggio-Kindergarten, Bauernhofkindergarten, Waldkindergarten, Tafakkur ustaxonasi, Bepul va majburiy talim, Tanlash imkoniyati, "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!", Aslzodalar orzu qilgan universitet.

#### Germaniya ta'lim tizimi va uning shakllanish jarayoni.

Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada

e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, birso'zlik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlarida shakllanadi.

Germaniya barcha bolalarni o'qitishga xizmat kiladigan xalq ta'lim tizimiga asos solingan dastlabki mamlakatlardan biridir. Germaniyada ta'lim jarayoni har bir viloyatda mustaqil boshqariladi. Qonunga binoan barcha bolalar 6 yoshdan boshlab 9 yoki 10 yil davomida maktabga qatnashlari shart. Biroq bolalarning maktabga qatnashish davrlari turli viloyatlarda turlichadir.

GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal Yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal hukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitishkurklarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtihonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi haqida guvohnoma, diplomlar unvonlar shular jumlasidandir.

Har bir Federal Yerda ta'lim tizimi haqida o'zining qonuni mavjud, lekin buning hammasi urnumiy federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqti, o'qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O'quv rejalar va ta'lim darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O'qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumatini bosqichida tasdiqlanadi. Har bir fan bo'yicha tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan bir necha darsliklar mavjud bo'lib, o'qituvchi darslikni o'zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta'limning ko'p variantlilikiga erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta'minlanadi.

Federal hukumatning huquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal yerlar davlat umumta'lim, kasbiy va oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beradi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi. Sekin-asta differentsiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Germaniyada boshlang'ich ta'lim 4 yil davom etadi. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Germaniyada boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'limni berish ixtisoslashgan. Maxsus muassasalar-gimnaziyalar mavjud. Gimnaziyalar o'zida o'rta maktabning quyi va yuqori bosqichlarini mujassam etgan bulib, ular o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga tayyorlaydi. O'rta maktabning quyi bosqichini tamomlagan bolalarning 19% o'rta maktab yuqori bosqichini tugatgan bitiruvchilarning esa 20% hunar ta'lim tizimida bilim olishni davom ettiradi.

O'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yilda asosiy hunar ta'lim beriladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. Uchinchi yili maxsus hunar ta'limi chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtixonlari maxsus komissiya tomonidan qabul kilinadi. Komissiya korxonalarining yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini bermaydi. Oliy o'quv yurtlariga qabul imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish tekin. Agar talaba moliyaviy yordamga muxtojlik sezsa, bunday yordam unga ko'rsatiladi. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalar bir necha yil ishlashlarini hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatining ancha kech boshlashlarini tushunamiz. Shu tufayli bugungi kunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Umuman, bugungi kunda Germaniya ta'lim tizimini isloh qilish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Germaniyaning ta'lim sohasini o'rganar ekanmiz, bu davlatda majburiy ta'lim 6 yoshdan (mahalliy fuqarolar va xorijliklar uchun) qilib belgilangan. Lekin xuddi mamlakatimizdagi singari bolalar ayrim hollarda 7 yoshdan o'qishga qabul qilinadi. O'quv yilining boshlanishi Germaniya yerlarida har xil paytda boshlanadi. Masalan, Gamburgda yozgi ta'til 19 iyuldan 29 avgustgacha bo'lsa, Tyuringda 28 iyundan 8 avgustgachadir. Majburiy ta'lim umumiy yoki xususiy maktablarda amalga oshiriladi. Asosiy ta'lim hisoblangan umumiy ta'lim o'quvchilarga umumiy ta'limning asoslarini o'rgatadi. Jumladan, nemis tili, matematika, tabiiy fanlar, jamiyatshunoslik, chet tili (asosan ingliz tili). Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan o'quvchilar kasb-hunar ta'limida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktab ta'limining oxirgi yillarida esa, bitiruvchilar kasb-hunar tayyorgarligini korxonalarda o'tashadi. Mazkur maktablar asosiy maktablar deb yuritiladi. Undan tashqari, gimnaziyalar va Real maktablar o'rin olgan bo'lib, bu yerda bolalarga kengaytirilgan umumiy ta'lim beriladi. Qoida tariqasida bu yerda o'qish 5-sinfdan 10-sinfgacha ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi, hamda mazkur o'quv maskanini tugatgani to'g'risida guvohnoma berish bilan yakunlanadi. Shundan keyin bitiruvchilar boshqa o'quv muassasalarida, jumladan maxsus kasb-hunar bilim yurtlari, texnikumlarda o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'lishadi. Gimnaziyalar chuqurlashtirilgan umumiy ta'lim beradi, o'qish muddati esa, qoida tariqasida o'n yillikdir. Bundan tashqari, ayrim hududlarda maktabning «muntazam» (Tyuringiyada), «o'rta» (Saksoniyada), «ikkinchi bosqich maktab»



(SaksoniyaAngelt), «mintaqaviy maktab» (Reyplend-Porald) kabi maktablar mavjud.

Nogironlar va muomala layoqati cheklanganlar uchun maxsus maktablar mavjud. Baʼzan nogiron bolalar «muntazam maktablar» ning maxsus sinflarida taʼlim oladilar. Kechki gimnaziyalar va maktablarda taʼlim olish taʼlim oluvchi katta yoshdagilar uchun moʻljallangan, ularning oliy oʻquv yurtlariga kirish imtihonlari topshirishlari va xohlagan oliy oʻquv yurtiga kirib oʻqish uchun imkoniyat beradi, hamda 2-bosqich oʻrta maktabni tugatganligi toʻgʻrisida guvohnoma yoki attestat berish orqali yakunlanadi. Ishlayotgan katta yoshdagilar uchun esa attestat olish uchun imtihon topshirish va tayyorgarlik koʻrishlari uchun maxsus kurslar tashkil etilgan.

Germaniyaning taʼlim sohasidagi, mana shu joyida shuni taʼkidlash joiz, yaʼni, mamlakatimizda ham xuddi shu singari katta yoshdagilar maktablarini tashkil qilish lozim. Maʼlumki, sobiq SSSR hukmronligi yillarida koʻplab hunar-texnika bilim yurtlari mavjud edi. Mazkur bilim yurtlariga 8 yillik (tayanch) maktablarni tugatgan oʻquvchilarni majburan joʻnatish hollari koʻplab boʻlgan. Buning natijasida esa mazkur bilim yurtlarida bilimning sayozligini koʻrgan oʻquvchilar bilim yurtlariga oʻqishga qatnashmay qoʻyishgan. Natijada ular na oliy oʻquv yurtiga kira olishadi na biron bir kasbga ega. Hozirgi kunda shunday katta yoshdagilar uchun kasb-hunar kollejlarga, yoki akademik litseylarga kirib oʻqish imkoniyati yaratilishi lozim.

Germaniyada kasb-hunar taʼlimida oʻqish asosan ishchi oʻrinlarini hisobga olgan holda va ishchi xodimlarga boʻlgan talabga asoslanib tashkil etiladi. Ushbu taʼlim turi 2 yildan 3,5 yilgacha boʻlgan taʼlimni oʻz ichiga oladi. oʻquvchilar oʻqish davomida pul mukofotlari bilan mukofotlanib boriladi. Ayniqsa, moliya sohasi boʻyicha taʼlim uchun korxonalar va davlat katta miqdorda mablagʻ sarflaydi.

Germaniyada oʻqituvchilari haqida soʻz yuritganda shuni takidlash joiz, yaʼni Germaniyaning har bir tur maktabi oʻzining maxsus bilimga ega boʻlgan oʻqituvchilariga ega. Boʻlgʻusi boshlagʻich va asosiy maktab oʻqituvchilari qoida tariqasida 7 semestr oʻqishadi, baʼzan 9 oygacha uzaytirilgan boʻlishi ham mumkin. Oʻqish yakunida boʻlgʻusi oʻqituvchilar 1-davlat imtihonini topshirishadi. Keyin esa, pedagogik amaliyotni oʻtashadi (qoida tariqasida 2 yil) va keyin 2davlat imtihonini topshirishadi. Shu oʻrinda shuni takidlab oʻtish oʻrinlidir, yaʼni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliy taʼlimida amaliyot, amaliy tajribaga ega boʻlish birinchi oʻrinda turadi. Bu juda ham muhim boʻlib hozirgi kunda respublikamizda bunga yana ham koʻproq eʼtibor berish lozim. Hozirgi kunda sirtqi va kunduzgi boʻlim talabalari oʻrtasidagi farqqa eʼtibor beradigan boʻlsak, kunduzgi boʻlimga nisbatan sirtqi boʻlimlarda albatta ish tajribasi yuqori.

Germaniyada kasb-hunar taʼlimining alohida koʻrinishlari mavjudki, uning ikki jihatini ajratib koʻrsatish mumkin: Birinchi, taʼlimning koʻproq qismi maktabda emas, balki ishlab chiqarish korxonalari yoki xizmat koʻrsatish korxonalarida, davlat xizmatida va hakazolarda oʻtkaziladi. Taʼlim oluvchilar kasb hunar maktabiga borish uchun ishdan boʻsh vaqtlar ajratiladi. Yoshlar 3-4 kun korxonada va 1-2 kun kasb-hunar maktabida bilim oladilar. Ikkinchi, kasb-hunar taʼlimida bilim bilan ikki Institut shugʻullanadi: korxonada va kasb-hunar maktabi. Kasb taʼlimini korxonalarda

o'rgatish federatsiyaga qarashli, kasb-hunar maktablari esa alohida erlarga tegishlidir. Mazkur ta'lim turi federatsiya bilan yerlar va boshqa hamkorlarning iqtisodiy talablaridan kelib chiqadi. Kasb turi bilan bog'liq o'qish muddati 2 yildan 3,5 yilgacha davom etadi. Hozirgi kunda esa, deyarli 1,6 mln yoshlar, deyarli 360 ta mutaxassislikni o'rganishmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda deyarli 42% yigitlar va 55% qizlar kasb o'rganish uchun kasb-hunar ta'lim muassasalariga topshirishadi. Yigitlar ko'pincha avtomexanik, elektromontyor, g'isht teruvchi, duradgorlikni tanlashsa, qizlar esa vrach yordamchisi, sotuvchilik kasblarini tanlashadi.

### Germaniyada maktabgacha ta'lim va tarbiya masalalari

Germaniya qonunlarida maktabgacha ta'lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yaslga olib borish mumkin. Ko'pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Nemislarda keksa avlod vakillari bo'lmish buvi va buvalar nevaralar tug'ilgandan so'ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo'q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog'chalari va yaslga berishga majbur bo'ladilar. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarining (MTT) rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi.

Eng qiziqarli bolalar bog'chalari turlari quyidagicha:

**1. Waldkindergarten** (nemischa *Wald* so'zidan – o'rmon, *Kindergarten* – bolalar bog'chasi). Bunday bolalar bog'chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko'pincha bunday bog'chalar o'rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo'ladilar, daraxtlar va boshqa o'simliklarni o'rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o'rgatiladi.



**2. Bauernhofkindergarten** (nemischa *Bauernhof* so'zidan – dehqon xovlisi, qo'rg'oni; *Kindergarten* – bolalar bog'chasi). Bunday bog'chalar dehqon xo'jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo'ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog' larda sabzavot va mevalar o'stirishda yordam beradilar.



**3. Reggio-Kindergarten.** Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo‘lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya muassasasi bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi – o‘rtada katta bir xona (hol) va undan shaharchaning turli «mavzellariga» – kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog‘chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig‘ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so‘ngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig‘ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar o‘ynashi, konstruktorlar yig‘ishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda bo‘eqlar va devorlarga vatman qog‘ozlar osib qo‘yilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib ko‘yiladi va ular xohlagan yerlariga – devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin. Bu yerda hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Bunday bog‘chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofdagi joyni o‘zlashtirishlarida ko‘maklashadilar.



**4. Freinet-Kindergarten.** Maktabgacha pedagogikaning bu yo‘nalishi o‘z nomini bolalar tarbiyasiga o‘ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo‘nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog‘chasida bolalar nima qilishlari, qanday o‘yin o‘ynashlari, nima bilan shug‘ul lanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o‘zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig‘ilishlarda bolalar MTT doirasida hulq-atvor qoidalarini o‘zlari belgilashadi. Bunday bog‘chalarda ijod qilish, syujet-rol o‘yinlari, eksperimentlar, tabiat qo‘yni yoki shaharning korxonalar va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.



**5. Integratsion bolalar bog‘chalari.** Bunday turdagi MTTlarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog‘lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlik, bag‘rikenglik va hurmat qilishni o‘rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo‘lmaydilar, o‘z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo‘lishni o‘rganadilar. Shunday bog‘cha va maktablarning soni ko‘pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta‘lim olishi va o‘zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.



**6. Internatsional bolalar bog‘chalari.** Bunday MTTlar emigrantlar uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ularni emigrantlarning o‘zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog‘chalari juda ko‘p. Bu muassasalarning konsepsiyasi bilingvallik tamoyiliga asoslangan. Ya‘ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so‘zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so‘zlovchi tarbiyachi ham bo‘ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, ham nemis tilini o‘rganadilar. Rus-nemis bog‘chalarida ko‘pincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan an‘anaviy – Maslennitsa, 8 mart, Yangi yil kabi ko‘p bayramlarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar ham bor.

Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog‘chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog‘chalari ham mavjud. Agar o‘rta statistik nemis bolalar bog‘chasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon bo‘ladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qo‘yadilar, pechene pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda o‘tirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashg‘ulotlar yo‘q. Bolalarga ko‘p erkinlik beriladi. Ular istagan narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari,

butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin. Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning ko'p ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin otalar oldida konsepsiya, nazariya va g'oyalardan iborat katta tanlash huquqi bor. Ular farzandlarini bola uchun eng qulay bog'chaga berishlari mumkin.

**Germaniya ta'lim tizimi va uning besh oltin qoidasi. Germaniyada boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar.**

Germaniya ta'lim tizimi besh oltin qoidaga asoslanib faoliyat yuritadi.

**1.Tafakkur ustaxonasi**

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rni katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

**2.Bepul va majburiy talim**

Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi.

Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra,

1 – a'lo
2 – yaxshi
3 – qoniqarli
4 – yetarli ,
5 – yetarli emas ,
6 – qoniqarsiz.

O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi.

### **3.Tanlash imkoniyati**

Olmon ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilar boshlang'ichni tugatgandayoq kelajak yo'lini aniqlab olishi zarur. Ana shunga asoslanib, u bir necha turdagi maktabdan birida o'qishni davom ettiradi.

**Asosiy maktab.** Bu yerda bolalar to'qqizinchi sinfgacha o'qitiladi. Asosiy maktablarda oliy ta'lim muassasalarida o'qish niyati yo'q bo'lgan, biror bir kasb etagidan tutishni ko'zlagan o'quvchilar ta'lim oladi. Bu turdagi maktablarda bazaviy bilimlar beriladi va asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi. Asosiy maktabni tugatgan o'smirlar tugallanmagan o'rta ta'lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablariga kirish mumkin. Bizdagi kasb-hunar kollejlariga o'xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo'yicha bilim va tajriba oshiradi.



**Real maktab.** Bu turdagi maktablarda matematika va tabiiy fanlarga moyil, kelajakda oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishni niyat qilgan bolalar o'qiydi. O'qish 5-sinfdan 10- sinfgacha. Mazkur muddat mobaynida yoshlarga turli fan sohalari bo'yicha kengaytirilgan bilim beriladi. Real maktabni tugatgan o'smirlar o'qishni gimnaziya davom ettiradi.

**Gimnaziya.** O'quvchilar o'rta ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan ushbu bilim maskanida to'qqiz yil – 5-sinfdan 13-sinfgacha ta'lim oladi. Real maktabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziya uch yil o'qiydi. Mazkur ta'lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvchilar o'n birinchi sinfdan tanlagan yo'nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o'rganishga sarflaydi. Gimnaziya – oliy ta'limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi. Negaki, gimnaziyani tugatganlik to'g'risidagi imtiyozli shahodatnoma universitetga imtihonsiz kirish huquqini beradi. Ammo imtiyozli shahodatnomani olish oson emas. O'quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o'n uch yil davomidagi natijalari hamda to'rtta fan bo'yicha yakuniy imtihon baholari inobatga olinadi. Olmon zaminida oliy o'quv yurtiga kirish uchun o'n uch yil yaxshi natija bilan o'qish kerak. Ana shundan keyingina universitet yo'llari ochiladi.

#### **4."Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!"**

Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta'lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy maktablar o'rta ta'lim maskanlarining 2 foizini tashkil etadi. O'quv dasturlari an'anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta'lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Xususiy maktablar sanoat, til, kosmetika, gimnastika, uy xo'jaligi kabi ixtisoslashgan yo'nalishlarda ta'lim beradi. Nodavlat ta'lim maskanlari bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun Xususiy maktablar uyushmasiga birlashgan. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham ta'lim olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini puxta o'zlashtirishi uchun tayyorlov kurslari tashkil etiladi.

Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta'lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy maktablar o'rta ta'lim maskanlarining 2 foizini tashkil etadi. O'quv dasturlari an'anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta'lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Xususiy maktablar sanoat, til, kosmetika, gimnastika, uy xo'jaligi kabi ixtisoslashgan yo'nalishlarda ta'lim beradi. Nodavlat ta'lim maskanlari bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun Xususiy maktablar uyushmasiga birlashgan. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham ta'lim olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini puxta o'zlashtirishi uchun tayyorlov kurslari tashkil etiladi.

#### **5.Asldolar orzu qilgan universitet.**

Germaniyada Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda bepul oliy ta'lim olish imkoniyati ko'proq. Nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida xorijliklar ham nemis universitetlarida tahsil olishi mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahalliy gimnaziyalarni bitirib, imtiyozli shahodatnomani olgan yoshlar universitetlarga imtihonsiz kiradi. Chet elliklar esa o'qishga kirish uchun nemis tili bo'yicha imtihondan o'tadi. Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakunida davlat imtihoni topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. Yozgi mavsum aprel-sentabr, qishkisi esa oktabr-mart oylarini o'z ichiga oladi. Germaniya Geydelberg, Kyoln, Frayburg, Tyubingen kabi qadimiy universitetlar vatani hisoblanadi. 1386 yilda asos solingan Geydelberg universiteti ko'hna qit'aning eng nufuzli oliy ta'lim dargohlari ro'yxatiga kiritilgan. O'rta asrlardayoq ushbu universitetga kirish yevropalik asldolarning orzusi bo'lgan.



Germaniyaning mo'jazgina Geydelberg shahrida joylashgan mazkur universitetning nufuzi hozir ham baland. Bu yerdan Gegel, Yaspers kabi jahon tanigan olimlar, o'nga yaqin Nobel mukofoti egalari yetishib chiqqan. Universitet yurisprudensiya, biologiya, kimyo, tibbiyot yo'nalishlarida kuchli kadrlar tayyorlaydi. Bu yerda o'qiydigan 25 ming talabaning 12 foizi xorijliklardir. Myunxendagi Lyudvig-Maksimillian universiteti Yevropani tibbiyot bo'yicha yetuk mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Besh asrlik tarixga ega bo'lgan ta'lim maskanida ayni paytda 45 ming talaba tahsil oladi. Kasbiy oliy maktablar yoki institutlar olmon ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida mutaxassislar yetkazib beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida 2 millionga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Olmon yurti chet ellik talabalar soni bo'yicha dunyoda AQSh va Buyuk Britaniyadan keyingi o'rinda turadi.

### **Oliy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.**

Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tishida sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarning yetakchi mutaxassislari, Federal Yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz, maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.



Oliy maktab o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o‘quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O‘z- o‘zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarining bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o‘qishi erkin tashkil etilgan. Ko‘p sonli o‘quv bosqichlari bilan birga o‘quv rejalari taklif etiladi. O‘qishga haq to‘lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko‘tara olmasa, o‘qish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi federal qonunga ko‘ra ular moliya yordamini oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo‘shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi. Mamlakatda ta‘limni isloh qilish masalasi ko‘pdan beri muhokama qilinmoqda, bunda o‘quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Ba‘zi universitetlarda talabalar 7 yil o‘qiydi. Ular o‘qishga kiringunga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.

Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo‘lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko‘pchiligi kechki bo‘lib, faqat 1989 yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag‘batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag‘ ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o‘qish davrida tinglovchilarga mablag‘ bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o‘z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanadilar va bu bilan ish topioiari tezlashadi. Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta‘minlanadi. Cherkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Yevangel cherkovi o‘zining 15ta akademiyasida dlozarb mavzular bo‘yicha anjumanlar tashkil etadi.

Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar. Oliy o‘quv yurtlarida tadqiqot bilan shug‘ullaish ularning qadimiy an‘analaridan bin. O‘tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o‘shandam beri ‘Tadqiqot va o‘qitish birligi’ ularning hayotiy prinsiplariga aylanib qolgan. Oliy o‘quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishi - fundamental araaliy tadqiqot bo‘lib, ularga boshqa ilmiy- tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta‘limi o‘ziga xos yo‘nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta‘lim tizimini isloh etish yo‘lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Germaniya oliy ta‘lim tizimi oliy o‘quv yurtlari turlarining ko‘pligi bilan farqlanadi. Germaniyada jami 383 oliy oquv yurti bo‘lib, shulardan 103 tasi universitet, 180 tasi amaliy fanlar oliy o‘quv yurtlari hisoblanadi. Birinchi oliy ma‘lumotni olish yaqin kunlargacha nemislar uchun ham, chet ellik talabalar uchun ham tekin edi. 2007 yildan beri ba‘zi oliy o‘quv yurtlari talabalari har semestrda 500 yevrodan to‘lashlari kerakligi belgilandi (inflyatsiyani hisobga olib oshib bormoqda.)

G‘arbiy Yevropa Federal yerlarida muddatidan uzoq o‘qiyotgan talabalar o‘qish uchun pul to‘laydilar. Ta‘lim tizimidagi bu islohotlar qonun bo‘yicha yo‘lga

qoyilgan. Oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligi davlat tasarrufida va hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. 383 oliy o'quv yurtlaridan 69 tasi xususiy. Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi, abituriyent uchun eng muhimi maktab yoki gimnaziyada kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishdir. Nufuzli mutaxassisliklarga o'qishga qabul qilishda abituriyent maktab attestatining o'rtacha bali hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Universitetlardagi nufuzli mutaxassisliklarga o'rinni taqsimlash bo'yicha oliy o'quv yurtlari emas, ZVS degan maxsus bo'linma shug'ullanadi. O'rtacha ball dan tashqari ZVS ijtimoiy va shaxsiy sabablar, nogironlik, oilaviy ahvoli va boshqalarni ham hisoga oladi. Agar o'rtacha ball yetarli bo'lmasa, abituriyentni navbatga qo'yadi. Bir necha semestr kutganidan so'ng unga universitetdan o'rin berishadi.

Germaniya doimiy ravishda universitet reytinglarini aniqlab turadi. Bunda o'qitish, pedagog kadrlar darajasi, shuningdek, u yoki bu oliy o'quv yurtlarini bitirib, ishga joylashish kabi shart-sharoitlar hisobga olinadi. Talabalar oddiy stipendiyadan tashqari turli Fondlar tomonidan joriy qilingan stipendiyalarni olish itkoniga ega. Partiya fondlari, Nemis xalqi fondi, Cherkovlar fondi, FE hukumati fondi, GFR hukumati bo'limlari va kichik regional tashkilotlarlar fondlari shular jumlasidandir. Stipendiyalar odatda alohida toifa talabalarga, masalan, o'ta iqtidorli talabalarga beriladi. Stipendiya nemis studentlariga ham, chet ellik talabalarga ham beriladi. Chet ellik talabalarga stipendiya beruvchi asosiy tashkilotlarga Akademik almashish Germaniya xizmati kiradi. Shu kabi yirik fondlarga Konrad Adenauer, Fridrix Erbert, FE fondlari kiradi.

Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar universitetlar va ilmiy tashkilotlar hamda korporativ tadqiqot markazlarida olib boriladi. Universitetlardagi ilmiy tadqiqotlar federal byudjet, FE byudjeti tomonidan va tashkilotlar ajratgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar shuningdek, 4ta yirik ilmiy tashkilotlarda olib boriladi. Bular Maks Plank jamiyati, Gelmgols jamiyati, Fraungofer jamiyati va Leybnits jamiyatlaridir. Maks Planka jamiyatida 13000 xodim ishlaydi, undan 5000 tasi olimlar bo'lib, jamiyatning yillik byudjeti 1,4 mlrdni tashkil etadi. Gelmgols jamiyatida 26,5 ming xodim ishlaydi, undan 8000 tasi olimlar bo'lib, jamiyatning yillik byudjeti 2,35 mlrdni tashkil etadi. Fraungofer jamiyatida 26,5 ming xodim ishlaydi, jamiyatning yillik byudjeti 1,2 mlrdni tashkil etadi. Leybnits jamiyatida 13,7 ming xodim ishlaydi, jamiyatning yillik byudjeti 1,1 mlrdni tashkil etadi. Universitetlar bir yilda ilmiy tadqiqotlarga 9,2 mlrd yevro sarflaydi. Yirik nemis va chet el kompaniyalari Germaniya hududidagi tadqiqot markazlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Germaniya universitetlari talabalari o'rganadigan fanlar va dars jadvalini o'zlari tanlaydilar, ya'ni har bir semestr uchun mustaqil dastur tuzadilar. O'quv yili 15 oktabrdan boshlanib, 2ta semestr dan iborat. Har bir semestr oxirida talaba o'zi qatnashgan maxsus kurs va ma'ruzalarning maxsus sertifikatini yig'adi, sertifikatning kerakli sonini to'plagach, imtihon topshirishga ruxsat so'raydi.



Oliy o‘quv yurtlarining ikkinchi tipi - maxsus oliy maktablarda o‘qish tizimli tashkil etilgan. Bunda talabalar aniq o‘quv rejasi va imtihonlar jadvaliga amal qiladilar, shu tariqa oliy ta’limni 4 yilda tugatishlari mumkin. Germaniyada ijtimoiy lgota tizimi rivojlangan, ko‘pgina shaharlardagi talabalar uchun jamoat transporti tekin. Shuningdek, teatr, muzey, kinoteatr va b. yerlarga borib aylanish uchun chegirmalar mavjud. Tayyorlov kollejarida, universitetdagi kabi tekin o‘qitiladi. “Abitur” diplomi aks etgan ta’lim standartiga ko‘ra universitetga odatda imtihonsiz kiradi.

Germaniyada oliy ta’lim tizimi:

- universitetlar va institutlar;
- maxsus OO‘Yulari;
- pedagogik va texnologik OO‘ Yulari;
- boshqaruv va san’at oliy maktablari;
- kasbiy oliy maktablar (akademiya).

**Ta’lim bosqichlari:**

Asosiy ta’lim - 4 yil.

(pedagogik ta’lim bundan mustasno - 3 yil).

Amaliyot ~ 18 oy.

Imtihon topshirish va diplom olish.

Germaniyada nemis va chet ellik talabalar o‘rtasida nafaqat universitetlar, balki maxsus oliy o‘quv yurtlariga kirishni hohlovchilar ham ko‘p. Bu maxsus oliy o‘quv yurtlarida 22000 chet ellik talabalar tahsil oladilar. Maxsus OO‘YU (Fachhochschulen)larida o‘qish qisqartirilgan va amaliy vazifalarga yo‘naltirilgan. Bunday OO‘Yularida muhandislik ishi, iqtisodiyot va menedjment, qishloq xo‘jaligi, kompyuter mutaxassisligi bo‘yicha yuqori bilimlar olish mumkin. Universitetlardan farqli holda maxsus OO‘YU doktorlik darajasini berish huquqiga ega emas. Bu ta’lim muassasasini bitirgach, Diplomgrad (2-bosqich) beriladi va bu akademik daraja hisoblanadi.

Kasbiy akademiyalar (Berufsakademien) ma’lum fanlar bo‘yicha III bosqich ta’limini beradi. Bu yerda ta’lim ishlab chiqarish muassasalarida amaliy tayyorgarlik bilan birga olib boriladi.

**O‘zbekiston va Germaniya ta’lim tizimining o‘xshash va farqli jihatlari.**

Hech bir mamlakatda ta'lim tizimi xorijiy tajribalardan foydalanmasdan, bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan yangilana olmaydi va zamon talabi darajasida rivojlanmaydi. Zero, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga faol qo'shilib borishi milliy ta'lim tizimini jahon andozalariga muvofiqlashtirishni talab qilmoqda. Hozirgi davrda ta'lim sohasida AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya mamlakatlarida erishilayotgan yutuqlar ibratlidir. Chunonchi, Germaniya ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar ichida o'z nufuziga ega bo'lganligi bois shu davlatning ta'lim tizimini o'rganishga jazm qildik.

O'zbekiston Respublikasi va Germaniya ta'lim tizimining qiyosiy tahlili quyidagicha:

1. O'zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar. Ixtiyoriy, pulli.

- Germaniyada 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha sinflar, maktablar qoshidagi bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasiga boradilar. Ixtiyoriy, pulli.

2. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim 7 yoshdan 11 yoshgacha, ya'ni 4 yil davom etadi. Ta'lim majburiy, bepul.

- Germaniyada boshlang'ich ta'limga 6 yoshdan qabul qilinadi, o'qish 4-6 yil davom etadi. Ta'lim majburiy, bepul.

3. O'zbekistonda 4 yillik boshlang'ich ta'limdan so'ng 5 yillik o'rta ta'limga o'tiladi. Ta'lim majburiy, bepul.

- Germaniyada boshlang'ich ta'limdan so'ng o'rta ta'limga o'tiladi. O'rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash, maxsus maktablar va gimnaziyalar. Ta'lim majburiy, bepul.

4. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limdan so'ng AL va KHKlariga kiradilar. Ta'lim majburiy, bepul.

- Germaniyada umumiy o'rta ta'limdan so'ng kasbiy ta'lim va boshqa tipdagi maktabga boradilar.

5 Germaniyada har bir Felarda ta'lim tizimi haqida o'zining qonuni mavjud.

- O'zbekistonda respublika bo'yicha yagona "Ta'lim to'g'risidagi qonun" amalda qo'llaniladi.

6. Germaniyada darslik va o'quv qo'llanmalar qiymatining ozgina qismiga beriladi.

- O'zbekistonda maktab tizimida darsliklar, qo'llanmalar bepul beriladi.

7. Ma'lum toifadagi o'quvchilarga har ikkala davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

8. Har ikkala davlatda kasb ta'limining "dual tizimi" mavjud: O'zbekistonda kasb-hunar kollejlarda o'rta ta'lim va kasbiy ta'lim beriladi. Germaniyada kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim mavjud. Unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi.

9. Germaniyada umumiy o'rta ta'lim turli tiplarga bo'linadi va ular orasida farqlar bor.

- O‘zbekistonda bunday tiplarga bo‘inish yo‘q, lekin fanlarni chuqurlashtirib o‘rganishga yo‘naltirilgan maktablar bor.

10. O‘zbekistonda a‘lo baho “5” bo‘lsa, Germaniyada “1” baho a‘lo hisoblanadi.

11. O‘zbekistonda lotin tili faqat tibbiyot bilan bog‘liq oliy o‘quv yurtlarida o‘rganilsa, Germaniyada klassik gimnaziyalarda o‘rganiladi.

12. Germaniyada umumiy maktabda “Fanlardan yutuqlari bo‘yicha differensiyalash” joriy qilingan. Unga ko‘ra bir guruhda o‘qiydigan o‘quvchilar o‘zlashtirishiga ko‘ra va b. guruhlarga bo‘linadi.

13. Germaniyada oliy o‘quv yurtlarining deyarli ko‘pchiligi davlat tasarrufida va hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Xususiy OO‘Yulari ham mavjud (383 OO‘Yudan 69tasi xususiy.)

- O‘zbekistonda xususiy OO‘Yulari soni kam.

14. Har ikkala davlatda talabalar oddiy stipendiyadan tashqari turli fondlar tomonidan joriy qilingan stipendiyalarni olish imkoniyatiga ega.

**Topshiriq:** Quyidagi fikrlar Germaniyadagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining qaysi turiga tegishli?

<b>№</b>	<b>Ta‘rif</b>	<b>№</b>	<b>Bog‘cha turlari</b>
<b>1</b>	Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko‘pincha bunday bog‘chalar o‘rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo‘ladilar, daraxtlar va boshqa o‘simliklarni o‘rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o‘rgatiladi.	<b>A</b>	<b>Internatsional bolalar bog‘chalari</b>
<b>2</b>	Bunday bog‘chalar dehqon xo‘jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo‘ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog‘larda sabzavot va mevalar o‘stirishda yordam beradilar.	<b>B</b>	<b>Freinet-Kindergarten</b>
<b>3</b>	Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo‘lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya muassasasi bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi – o‘rtada katta bir xona (hol) va undan shaharchaning turli «mavzellariga» – kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog‘chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig‘ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so‘ngra xonalarga tarqalishadi.	<b>C</b>	<b>Integratsion bolalar bog‘chalari</b>

4	<p>Maktabgacha pedagogikaning bu yo‘nalishi o‘z nomini bolalar tarbiyasiga o‘ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo‘nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog‘chasida bolalar nima qilishlari, qanday o‘yin o‘ynashlari, nima bilan shug‘ul lanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o‘zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig‘ilishlarda bolalar MTT doirasida hulq-atvor qoidalarini o‘zlari belgilashadi. Bunday bog‘chalarda ijod qilish, syujet-rol o‘yinlari, eksperimentlar, tabiat qo‘yni yoki shaharning korxon va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.</p>	D	<b>Bauernhofkindergarten</b>
5	<p>Bunday turdagi MTTlarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog‘lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlilik, bag‘rikenglik va hurmat qilishni o‘rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo‘lmaydilar, o‘z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo‘lishni o‘rganadilar. Shunday bog‘cha va maktablarning soni ko‘pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta’lim olishi va o‘zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.</p>	E	<b>Reggio-Kindergarten</b>
6	<p>Bunday MTTlar emigrantlar uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ularni emigrantlarning o‘zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog‘chalari juda ko‘p. Bu muassasalarning konsepsiyasi bilingvallik tamoyiliga asoslangan. Ya’ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so‘zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so‘zlovchi tarbiyachi ham bo‘ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, ham nemis tilini o‘rganadilar. Rus-nemis bog‘chalarida ko‘pincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan an’anaviy – Maslennitsa, 8 mart, Yangi yil kabi ko‘p</p>	F	<b>Waldkindergarten</b>

	bayramlarga bag'ishlangan mashg'ulotlar ham bor.					
<b>Javobi:</b>	1 – B	2 –	3 –	4 –	5–	6–

## 5-mavzu: Fransiya ta'lim tizimining tuzilishi va uning asosiy xususiyatlari.

### Mavzu rejasi:

1. Fransiyada ta'lim siyosatining olib borilishi. Ta'lim to'g'risidagi qonun va uning qo'llanishi.
2. Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichi haqida.
3. Boshlang'ich ta'lim bosqichi va uning tuzilishi.
4. Oliy ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** Onalar maktabi, boshlang'ich ta'lim, tayyorlov sinfi, elementar sinf, o'rta sinflar, chuqurlashtirish bosqichi, matematika bo'yicha, og'zaki nutq, yozuv, o'qish.

### Fransiyada ta'lim siyosatining olib borilishi.

Rasmiy nomi – Fransiya Respublikasi. Poytaxti – Parij. Hududi– 551000kv.km.Aholisi – 61024316. Davlat tili – fransuz. Dini – katolik (90%). Pul birligi – evro. Fransiyada savodxonlik darajasi: umumiy savodxonlik – 99%. Erkaklar – 99%. Ayollar – 99%. Ta'lim tizimiga jalb etilganlar: Umumiy soni – 15 mln. Shundan: Boshlang'ich ta'lim – 6-7mln. O'rta ta'lim – 4,8-5 mln. Oliy va undan keyingi ta'lim – 2,5-3 mln.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega.

Fransiyada ta'lim tizimi bosqichlari:

- Maktabgacha ta'lim – 2 -6 yosh
- Boshlang'ich ta'lim – 6-11 yosh
- O'rta ta'lim – 11-18 yosh
- Oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim.

Fransiyaning butun ta'lim tizimi uzoq tarixga ega. 2004-yil 15-martda yangi —Ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatidagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoit, chet el pedagogikasidagi ilg'or

tajribalarning mamlakat ta'lim tizimiga kiribkelishi, o'quv predmetlaridagi integratsiya va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasbkorga ega qilishdan iboratdir.

Mamlakatda maktablar davlat, xususiy, oraliq maktablariga bo'linadi. O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib, ularga ajratilgan vaqt dars tarkibining 30 foizini tashkil etadi. Umuman, tarkibdagi 45 foiz darslar gumanitar yo'nalishda, qolganlari tabiiy fanlardir. Sinflarning o'rtacha haftalik darslari 26 soatdan iborat, darslarning davomiyligi esa 60 minut, sinflardagi bolalarning o'rtacha soni 35 - 40 ta, o'quv yili 5 chorakka bo'linadi.

Boshlang'ich sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingiqismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Fransiya maktablarida ona tili va adabiyoti hamda matematika baza predmetlari, tarix, geografiya, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari asosi XIX asrda yaratilgan va ular hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Ta'lim tizimiga har yili davlat byudjetidan 64 mlrd. evro mablag' ajratiladi. Fransiyada o'quvchilar hamda talabalar 15 mln.kishini tashkil qiladi, bu esa aholining to'rtidan bir qismidir. Davlat hududida 7000 ta kollej, 2600ta litsey, 79 ta universitet mavjud. Ta'lim sohasiga har yili davlat byudjetining 21% mablag'i sarf qilinadi. Ta'lim tizimi A,B,S va mustaqil zonalarga tarmoqlangan, lekin bir markazga bo'ysunadi. Fransiyada o'quvchilar hamda talabalar 15 mln kishini tashkil qiladi, bu esa aholining to'rtidan bir qismidir.Davlat hududida 7 mingta kollej, 2600 ta litsey, 79 ta universitet mavjud.Ta'lim sohasiga har yili davlat byudjetining 21% mablag'i sarf qilinadi. Ta'lim tizimi A,B,S va mustaqil zonalarga tarmoqlangan, lekin bir markazga bo'ysunadi.

### **Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichi haqida.**

#### *Maktabgacha ta'lim.*

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu maktabning ta'limiy vazifasi: boshlang'ich maktabga tayyorlash, bolalarni o'zini namoyon qilishga o'rgatish. Bu bosqichni —"Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Maktabgacha ta'lim majburiy emas. Unga 2 yoshdan qabul qilinadi, yoshiga qarab eng kichik guruh, kichik guruh, o'rta guruh va katta guruhlarga bo'linadi. 3 yoshdan —Onalar maktabiga borishadi.





Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda ham, maktablarning boshlang‘ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta‘limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi, 1980 yillarning oxiridagi ma‘lumotlariga ko‘ra, onalar maktabida 65 ming boshlang‘ich maktablar bazasida tashkil etilgan maktabgacha tarbiya shaxobchalarida 9100 sinf mavjud. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha;
- o‘rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha;
- katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo‘lib, ularga Fransiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

### **Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi va uning tuzilishi.**

***Boshlang‘ich ta‘lim.*** Fransiyada boshlang‘ich ta‘lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilingan. Boshlang‘ich maktablar fuqarolarning qanday millatga, mamlakat fuqaroligiga mansub bo‘lishidan qat‘iy nazarmajburiy va bepuldir.

Boshlang‘ich ta‘lim 6 yoshdan boshlanib, 5 yil davom etadi.

- 1-sinf — tayyorlov sinfi deb ataladi;
- 2-3-sinflar — elementar sinf;
- 4-5-sinf — o‘rta sinflar deb ataladi.

Boshlang‘ich maktab bosqichiga qo‘yilgan asosiy talab o‘quvchilarga ifodali o‘qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iborat.

Fransiya ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan chet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning vatani, xalqi, tarixi, tili va adabiyotini o‘rganish uchun fakultativ kurslar tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish muddati 5 yil bo‘lib, shu muddat ichidagi o‘qish asosan 3 bosqichga bo‘linadi:

— *Tayyorlov* bosqichi — 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqaga, mehnat qilishga o'rgatiladilar.

O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin ovqatlar juda arzonlashtirilgan narxlarda taklif etiladi.

— Navbatdagi bosqich — *elementar* kurs bo'lib, bu bosqich 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bosqichida bir o'qituvchi ishlasa, elementar bosqichda ikki o'qituvchi (har biri 1 yildan) ishlaydi.

— Boshlang'ich maktabning 3 bosqichi — *chuqurlashtirish* bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Dasturda o'quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talab qo'yiladi. Masalan:

### **O'qish.**

I bosqichda o'quvchi:

1. Bosmadan chiqqan barcha nashrlarni (kitob, gazeta jurnal, lug'at, e'lon, xat va hokazo) bir-biridan ajrata olish;
2. Xatni o'qish tamoyillarini (satr boshi, sarlavha, bob betlarning ketma-ketligi) o'rganib olish;
3. Matn tarkibini (nutq, asosiy qism, xulosa) aniqlay olish;
4. Mustaqil mashg'ulotlarda kitoblardan, lug'atlardan foydalana olish.

II bosqichda:

1. O'qiganlari mazmunini elementar bayon qilib bera olish;
2. Kitob mavzusida ishtirok etgan shaxslarni aniqlash, nomini bilish, tasvirlab berish;
3. Sintetik tahlil qila bilish (urg'u, tinish belgilari).

III bosqichda:

1. Ifodali, tez va aniq, ovoz chiqarib hamda o'zicha o'qish, o'qish qoidalarini to'la shakllantirish, savollarga og'zaki va yozma ravishda javob qaytarish, mavzuli rasmlarni izohlab berish;
2. Matndagi noaniq so'zlarni aniqlash va uni tez tarjima qilishni bilish;
3. Sinf kutubxonasini tashkil etishda ishtirok etish;
4. Bayon qilingan axborotni tinglash va to'g'ri qabul qilish;
5. So'zlarni og'zaki va yozma fonetik tahlil qilib berish;
6. Kitobdan va lug'atli adabiyotlardan mustaqil ishlash jarayonida to'la foydalana olish;
7. Soddalashtirilgan matnlar bilan ishlashni bilish.

### **Yozuv.**

Yozuvga qo'yilgan talab uch saviyada belgilanadi: yozuv texnikasini o'rganish, yozuvda qalam, ruchka, bo'rda ishlashni bilish, chiziq'larga to'la rioya qilish, yozma va bosma harflarni farqlash, xatolar ustida ishlash malakasini egallash

lozim. Yozuv bo'yicha o'quvchining III bosqichda inshosi shakllangan, tasviriy, mazmunli, yozuv texnikasini mukammal o'zlashtirgan, ifodada aniq izchillikka ega bo'lmog'i darkor.

### **Og'zaki nutq.**

Og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha ham uch bosqicli osondan qiyinga, soddadan murakkabga yo'naltirilgan talablari mavjud. Bola bu bosqichda atrofida bo'layotgan voqea va hodisalarga o'z munosabatini bildirgan holda ifodali so'zlab bera olishi, o'z nutqini mantiqan tahlil qilishi, sinonim, omonim, antonimlarni mazmun ifodasiga qarab qo'llay olishi, so'z va iboralarning o'z hamda ko'chgan ma'noda to'g'ri qo'llay bilishi, tarix, geografiya va boshqa predmetlarning atamalarini puxta o'zlashtirib olishi kerakki, bu keyingi bosqich maktablari uchun puxta zamindir.

### **Matematika bo'yicha.**

Boshlang'ich maktabning uch etapi davomida o'quvchi sodda misol va masalalarni tahlil etish, ulardan paydo bo'ladigan hosilalarni aniq tasavvur qilishi, taklif qilingan hisoblash yo'llaridan boshqacha yo'llarni qidirib topishi, javoblarning to'g'riligini aniqlovchi bir qator isbotlarni bilishi, sonlarni taqqoslash, joylashtirishni amalga oshirishi, 1000 gacha adashmay sanashni bilishi, sonlar, qavslar, kasr chiziqlarini qo'llay olishi, mantiqiy fikrlash, arifmetikadagi uch amalni puxta egallashi, oddiy diagramma, shakl, sxema, grafika, jadvallarni chizish, geometriyadan dastlabki malakaga ega bo'lmog'i lozim.

Boshlang'ich maktabning uch bosqichli o'quv jarayonida tarix, geografiya bo'yicha jiddiy talablar asosida bilim beriladi. Chunonchi, tarix fanidan qadimiy va zamonaviy voqea va hodisalarni aniq xronologik ketma-ketlik bilan o'rganib olish, vatan tarixini bilish, barcha tarixiy terminlarni yod olish talab etilsa, geografiyadan orientrlash, kartani o'qish, qit'alar, okeanlar, dengizlar, tog'lar, daryo va ko'llarni ajrata olish, Fransiyaning geografik o'rni, iqtisodiyoti, qazilma boyliklari haqida ma'lumotga ega bo'lish bilan birga karta, globus, atlas, geografik lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishni bilish talab etiladi.

Fransiya maktablarining boshlang'ich sinflarida fuqarolik ta'limi predmeti ham o'qitiladi. Bu predmet ta'limi bizning ta'lim tizimimizdagidek mustaqil bo'lmay, ayrim yondosh predmetlar tarkibiga kiritilgan.

O'quvchilar oila, maktab, sinf oldida ma'lum bir mas'uliyat sezmoqlari lozim. Ularni yoshligidanoq o'z do'stlarini sinfdoshlarini, oila a'zolarini hurmatlash, ular mehnatini qadrlash, jamoatchilik ichida o'zini tutish kabi insoniy xislatlarni singdirishdan tashqari, ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy hayot, boshqarish ishlari strukturasi, shahar meri shahar kengashi ularning vazifalari, saylov tizimlari saylov oldi kompaniyasining qo'yilishi, mohiyati va boshqalar o'rgatiladi.

Fuqarolik ta'limi predmeti kurslari tarkibiga yana ma'muriy muassasalar, ularning vazifalari, fuqarolarning, o'quvchilarning huquq va burchlari ham o'rgatiladi. Bundan tashqari o'quvchilar o'z mamlakatining siyosiy hayotini anglab yetishlari, u haqda elementar fikr ayta olishni bilishlari lozim.

Fransuz maktablarida nafosat ta'limiga alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta'lim uch tarkibdan iborat: musiqa, tasviriy san'at, sport.

Musiqada darslarida o'quvchilarga badiiy so'zlash, kuylash, raqsga tushish o'rgatadi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf kursida o'quvchi eng ommalashgan musiqada asboblardan birini chala oladigan bo'lmog'i kerak. Tasviriy san'atda esa qiyish-yopishtirish, modellar yasash, surat solish, rang tanlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi.

Sport ham ta'limning shu jabhasiga kirib, bolalar bunda yugurish, sakrash, emaklash, turli shakllarda yurish kabi mashqlarni bajaradilar. Sport mashg'ulotlari va musobaqalari jarayonida bolalarni o'zini idora eta olishi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi, do'stlik va hamjihatlikni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shunday qilib, fransuz maktablarining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida savodxonlikka, o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratiladi, o'quvchining o'z kuchi, qobiliyati va imkoniyatiga ishonch tarbiyalanadi. Bu bosqich maktabda o'quvchining dastlabki bosqichda qanday holda qabul qilib olinishidan qat'iy nazar, uni maktab hayotida bosh rolni o'ynashga muvaffaq bo'lishidan iboratdir.

O'quvchilarni maktabning yuqori bosqichlariga puxta tayyorlab berishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyati (javobgarligi ham deyish mumkin) nihoyatda yuqori. Bu mas'uliyatni —Ta'lim haqidagi davlat Qonunida alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'quvchilar bilan individual ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksizlik va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.



Boshlang'ich maktabda dars jadvali va kun tartibini to'g'ri, odilona tuzishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim vazirligi —o'quvchi tabeli joriy etgan. Bu tabel orqali maktab va uning pedagogik jamoasi, hamda xodimlari ota - onalar bilan uzluksiz aloqada bo'lib turadilar.

Ta'limni turli sikllar orqali amalga oshirish fransuz ta'lim tizimiga keyingi yillarda kirib kelgan yangilik, deb baholash mumkin. Aynan ta'limdagi sikllashtirish, unga vorislik, uzluksizlik, bolalar individual qobiliyatlarini butun boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'minlab beruvchi omildir. Bundan tashqari ta'limni

sikllashtirish o'qituvchi faoliyatiga keng erkinlik beradi, uning pedagogik mas'uliyatini oshiradi.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga mas'ul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga to'la erkinlik ham beriladi.

O'quvchilarga boshlang'ich maktabning dastlabki uch sinfida bir o'qituvchi dars beradi. Uning nomzodini pedagogik va ota - onalar jamoasi aniqlaydi. Bolalarni yosh xususiyatiga qarab bilim berish tamoyili mavjud. Lekin u yoki bu sababga ko'ra o'quvchilarning sinfdan-sinfga ko'chmay qolish hollari tez-tez uchrab turishi tufayli ularning yosh jihatdan farqlari ham turlicha bo'lib qolishi mumkin.

1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq, maktabgacha va boshlang'ich ta'limga modullashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari bir yilga, yarim yilga, choraklar bo'yicha alohida-alohida tuzilishi mumkin. So'nggi yillarda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga puxta bilim berish, ota - onalar tomonidan esa o'z farzandiga yetarli sharoit yaratish, ularning bilimolishlariga mas'uliyat bilan qarash ifodalangan bitimlar tuzish odat tusiga kirib bormoqda.

### ***O'rta ta'lim***

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim kollej va litseylarda amalga oshiriladi. Kollejda o'qish majburiy ta'lim bo'lib, 4 yil davom etadi va 3ta siklga bo'linadi.

1. Moslashuv sikliga 6-sinf kiradi. Bu sinfga boshlang'ich sinf bitiruvchilari imtihonsiz qabul qilinadi. Bu sinfda o'quvchilar chet tilini tanlaydilar, mustaqil o'qishga o'rganadilar.

2. Markaziy sikl.

Markaziy sikl 5-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Bu siklning maqsadi boshlang'ich sinfda olgan bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirishdir. 5-sinfda lotin tilini fakultativ fan sifatida o'rgana boshlaydi, 4-sinfda ikkinchi chet tilini tanlaydi.

3. Kasbiy yo'naltirish sikli

Bunga 3-sinf kiradi. Umumiy ta'lim, texnik yoki kasbiy yo'nalishni tanlashga tayyorlaydi. Qadim yunon tilini o'rganadi. Bu sikl oxirida o'quvchilar milliy imtihon topshiradi va kasbiy yo'nalishi bo'yicha guvohnoma oladilar. 3-sinfoxirida o'quvchilar umumiy o'qituvchi texnologik litseyning 2-sinfiga qabul qilin yoxud kasbiy litseylarga hujjat topshiradilar.

### ***Litseylar***

● Umumiy litsey. Bu litseyni bitiruv imtihonlaridan keyin oliy ta'limga hujjat topshirish huquqi beriladi.

● Texnologik litsey. Bu litseyni bitirayotgan o'quvchilar texnologik universitetlarda o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qish uchun imtihon topshiradi.

Har ikkalasida o'qish 3 yil davom etadi.

● Kasbiy litseylar. Bu litseylarda o‘qish 2 yil davom etadi. O‘qish oxirida kasbiy tayyorgarligi haqida guvohnoma va kasbiy layoqati haqida sertifikat beriladi.

O‘rta ta‘lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo‘lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5, 4 o‘rta, 3-sinf esa katta sinf hisoblanadi. Demak, sinflarni raqamlash yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda quyidagi predmetlar o‘rgatildi: fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tabiiy fanlar.

Shunday qilib, 6-5-sinflar umumiy o‘rta ta‘lim beradi: 4-3-sinflarda o‘quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqich yakunlangach, o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar.

Bundan keyin o‘quvning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta‘lim oladilar. O‘qish 3 yil davom etib 2-sinf kichik, 1-sinf o‘rta va yakunlovchi sinflarga bo‘linadi.

O‘quvchilar umumiy ta‘lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so‘ng bakalavr unvoni va diplomi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo‘lganlarga oliy o‘quv yurtlariga kirish huquqini qo‘lga kirit o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar. .

Umumiy ta‘lim yo‘nalishidagi uch yillik ta‘lim litseylarida quyidagi fanlar o‘qitiladi: adabiyot tarixi, ona tili va adabiyoti, lotin tili, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari bo‘lishi mumkin), tarix, geografiya, Fransiya ekonomikasi.

Xuddi shu 3 yillik bosqichli texnik litseylarda uning yo‘nalishlariga qarab matematika, fizika, ximiya hamda boshqa tabiiy fanlar o‘qitiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o‘quvchining bu bosqichda chet tillarni o‘rganishiga katta e‘tibor beriladi. Talab, o‘qishni tugatgach, o‘quvchilar kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart.

O‘quvning bu bosqichini guvohnoma bilan tugallagan o‘quvchilar oliy maktab sanalmish institutlar va universitetlarga imtihonsiz kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Lekin hamma oliygohlarga ham imtihonsiz kirib bo‘lmaydi. Talabalar oliy pedagogika instituti, politexnika instituti, oliy ma‘muriy maktablarga kirish imtihonlari bilan qabul qilinadilar, ularning shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko‘riladi.

### **Oliy ta‘lim sohasining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Oliy ta‘limga faqatgina bakalavriat litseyini tugatgan talabalar qabul qilinadi.

Fransiyadagi oliy ta‘lim 2 turga ajratiladi:

- universitet;
- oliy maktab.

Davlatdagi 79 ta universitetning asosiy qismi ko‘p yo‘nalishli, ammo ba‘zilari bir yoki ikki mutaxassislik bo‘yicha o‘qitadi. (Parij II: huquq va iqtisodiyot)  
Fransuz ta‘lim tizimi davom etishiga ko‘ra:

- *Qisqa muddatli* — 2 yil davom etadi. Bunday o‘qishlarga dose bo‘yicha qabul qilinadi, chunki ish joylari kam, xohlovchilar esa ko‘p. Qisqa muddatli ta‘limning maqsadi — oz vaqt oralig‘ida kasbiy bilimlarga ega bo‘lish va ishga joylashishdir.

- *Uzoq muddatli* — bakalavrlarning yarmi universitetlarda o‘qiydi, ammo 40%i bir yil ichida u yerni tark etadi. U 3 bosqichdan iborat:

- 1. 2 yil davom etib, umumiy ta‘lim bo‘yicha universitet diplomi qo‘lga kiritiladi.

- 2. 1 yil davom etib, litsenziya olinadi. Shuningdek, metris (ixtisoslashish) yana, 1 yil.

- 3. O‘z ichiga ta‘lim hamda amaliyotni oladi va 1 yil davom etadi.

### ***Oliy maktablar***

Oliy maktablar fransuz ta‘lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. U davlat tizimidagi oliy universitet ta‘limiga zid hisoblanadi va xalqaro miqyosda qiyosiy tasnifga kirmaydi. Fransiyada oliy maktabda o‘qish universitetda o‘qishdan ortiq hisoblanadi. Universitetlarga imtihonsiz qabul qilinadi. Oliy maktabga esa katta konkurs asosida murakkab kirish imtihonlarini topshirish zarurdir.

Oliy maktablarga kirish qanchalik qiyin bo‘lsa, kasbiy istiqbollari shunchalik yaxshi bo‘ladi. Bitiruvchilarni to‘liq ish bilan ta‘minlash kafolatlanadi, eng zo‘r ishchi o‘rinlarga joylashadi.

Sorbonna — Fransiyaning eng qadimgi va mashhur universiteti.

Sorbonnaning tarixi 1215-yildan boshlanadi. Bu vaqtda Senaning chap tomonida joylashgan cherkov kollejlari Parij universiteti degan umumiy nom ostida birlashtirilgan edi. 40 yil o‘tgach qirol Sorbon tashabbusi ostida universitet qoshida kollej ochildi va u yerda kambag‘al aholi tahsil oldi. 1968 yil universitet bir necha avtonom institutlarga bo‘lib tashlandi:

1. Panteon Sorbonna — bu yerda 40 ming student ta‘lim oladi. Bu erda huquq, iqtisod, san‘at va arxeologiya tarixi, geografiya, tarix, falsafa, matematika, informatika, boshqaruv va menejment bo‘yicha diplom beriladi.

2. Yangi Sorbonna — Sorbonna ko‘chasida joylashgan bo‘lib, gumanitar yo‘nalishi va nisbatan kichkinaligi bilan ajralib turadi. Bu erda 20 mingga yaqin talaba fransuz va lotin tillari hamda adabiyoti, nemis tili, ispanshunoslik, sharqshunoslik, Arabshunoslik yo‘nalishlaridan tahsil oladilar.

3. *Rene Dekart nomli universitet /Strasburg Universiteti/*

Strasburg Universiteti Fransiyaning tarixiy universitetlaridan biri. Unga 1621 yil asos solingan. Fransiya — Prussiya urushidagi mag‘lubiyatdan so‘ng universitet Kayzer Vilgelm nomiga o‘tgan. 1918 yil esa yana o‘z nomiga qaytgan. 1970 yillarda Strasburg 3 qismga bo‘lingan:

1. L.Paster nomidagi Strasburg universiteti — o‘z ichiga tibbiy, aniq va tabiiy, yer haqidagi ta‘limot fakultetlarini, matematika

bo'limini, fizika institutini, Yer fizikasi, kimyo, fiziologiya va bioximiya, botanika, zoologiya, umumiy biologiya, geologiya, geofizika fakultetlarini va 2 ta kollejni oladi.

2007-yil 15-yanvar kuni Universitetga 1847 talaba qabul qilindi. Shulardan 3000 tasi chet ellikdir.

2. Mark Blox nomidagi 2 — Strasburg Universiteti — 10 ta fakultetni o'z ichiga qamrab olgan. Bular: san'at, tarixiy fanlar, gumanitar fanlar, filologiya, lingvistika, falsafa, ijtimoiy fanlar, sport ta'limi, katolik va pravoslav teologiyasi. Bu yerda 13000 ga yaqin student o'qib, 25 % i ajnabiylardir.

3. Robert Shuman nomidagi 3 — Strasburg Universiteti — 160 ta mutaxassislik bo'yicha talabalarni tayyorlaydi. 10000 ta'lim oluvchilar bo'lib, 1500 chet el talabalaridir.

Fransiyada oliy ta'lim professional ta'lim berish keyingi 20 yil davomida qaror topdi. Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalar ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda va liseylarda turli to'garaklar mavjud. O'quvchilar uchun turli sport seksiyalari sayohatlar, musobaqalar o'quv muassasasining o'zida tashkil etiladi. Fransuz yoshlari, Fransiyaqa bilim olish uchun kelgan chet el fuqarolari quyidagi bilim maskanlarida oliy ma'lumot oladilar:

- Universitetlar;
- Oliy texnologiya maktablari;
- Oliy muhandislik maktablari;
- Oliy arxitektura maktablari;
- Oliy tijorat maktablari;
- Siyosiy fanlar oliy maktabi;
- Oliy pedagogik va filologiya bilimgoahlari;
- Oliy tibbiyot o'quv muassasalari;
- Oliy badiiy maktablar;
- Uzluksiz ta'lim (malaka oshirish)

Oliy ta'lim beruvchi universitetlar o'z talabalariga uch siklda bilim beradilar. Birinchi sikl umumiy yoki biror texnik yoki ilmiy sohada oliy ma'lumot olish bilan yakunlanib, o'qish ikki yil davom etadi. Talabalar uni metriz, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Uchinchi siklda o'qish bir ikki yil davom etadi.

- biron-bir predmetni chuqurlashtirib o'rganilganligi haqida diplom (bir yil);
- ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot to'g'risida diplom (bir yil);
- uchinchi sikl doktorlik dissertasiyasi (bir, ikki yil);
- davlat doktorlik dissertasiyasi-biron-bir sohani mukammal o'rganib, dissertasiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O'qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko'zda tutilgan.



Fransiyada mingdan ortiq ana shunday institutlar faoliyat ko'rsatib, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi, san'at, informatika, ma'muriy boshqaruv, buxgalterlik hisobi, amaliy san'at bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday insitutlarga kirish imtihonsiz amalga oshiriladi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Fransiyada ta'lim siyosatining olib borilishi haqida so'zlab bering.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun va uning qo'llanishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichi haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
4. Boshlang'ich ta'lim bosqichi qanday tuzilishga ega?
5. Oliy ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering.

### **Topshiriq: Testlarni yeching.**

#### **1. Fransiyada 6 yillik boshlang'ich ta'limning nomlanishini ko'rsating.**

- \*A. 1-sinf "tayyorlov sinfi", 2-3-sinf "elementar sinf", 4-5-sinf "o'rta sinf"  
V. 1-sinf "elementar sinf", 2-3-sinf "tayyorlov sinfi", 4-5-sinf "o'rta sinf"  
S. 1-sinf "tayyorlov sinfi", 2-3-sinf "o'rta sinf", 4-5-sinf "elementar sinf"  
D. 1-2-3-sinf "elementar sinf", 4-5-sinf "o'rta sinf".

#### **2. Fransiyada o'rta ta'lim qaysi ta'lim muassasasida amalga oshiriladi?**

- A. kollejlarda  
V. litseylarda  
\*S. kollej va iitseylarda  
D. o'rta maktablarda

#### **3. Fransiya kollejlari o'qish qanday sikllarga bo'linadi?**

- A. moslashuv sikli(4-5-sinf), markaziy sikl(6-sinf), kasbiy yo'naltirish sikli(3-sinf)  
V. moslashuv tsikli(6-sinf), markaziy tsikl(5-sinf), kasbiy yo'naltirish tsikli(3-4-sinf)  
\*S. moslashuv tsikli(6-sinf), markaziy tsikl(5-4-sinf), kasbiy yo'naltirish tsikli(3-sinf)  
D. moslashuv tsikli(4-sinf), markaziy tsikl(5-6-sinf), kasbiy yo'naltirish tsikli(3-sinf)

#### **4. Fransiyada oliy ta'lim turlari:**

- A. universitetlar, institutlar  
\*V. universitetlar, oliy maktablar  
S. akademiyalar  
D. universitet tipidagi kollejlari

#### **5. Fransiya oliy ta'lim tizimi davom etishiga ko'ra:**

- A. aniq muddatli, uzoq muddatli  
\*V. qisqa muddatli, uzoq muddatli  
S. kam muddatli, ko'p muddatli  
D. hoxishga ko'ra muddat tanlanadi.

#### **6. Fransiyaning eng qadimiy va mashhur universitetlari:**

- A. Tuluza davlat universiteti, Leon davlat universiteti

\*V. Sorbonna, Strasburg universitetlari  
S. Strasburg, Kann universitetlari  
D. Sorbonna, Leon davlat universiteti

**Topshiriq:** Jadvalni to'ldiring.

## Boshlang'ich ta'lim bosqichlari va uning tuzilishi.



## 6-mavzu: Yaponiya ta'lim tizimi, strukturasi va xarakterli tomonlari.

### Reja:

1. Yaponiya ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari. Yaponiyada uzluksiz ta'lim tizimi va xususiyatlari.
2. Yaponiyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim.
3. Yaponiyada o'rta va katta maktab tizimi. Kichik o'rta maktab - tyugakko. Katta (o'rta) maktab - kotogakko.
4. Yaponiyada kasb-hunar ta'limi.
5. O'zbekiston va Yaponiyada oliy ta'lim tizimi. O'zbekiston va Yaponiya ta'lim tizimining o'xshash va farqli jihatlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** Fukoku- kioxsi, tadqiqot va o'qitish birligi, xususiy maktab, «Ixtisos maktablari», konsolidatsiya, ekspansiya, harbiy davr, zamonaviy davr, hoikuen, yochien, syogakko, tyugakko, Dzyuku, kotogakko, tanki-daygaku, Gakushi.

### Yaponiya ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari.

Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari

Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o'lkada ta'lim tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo'lamiz. Tabiiyki, Yaponiya ta'lim tizimlarining yuksak parvozi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Uning ham o'ziga xos inqirozi va muammolari bo'lgan. Bularni to'liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiq. Yaponiya ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Yaponiya zamonaviy ta'lim tizimining tarixi **quyidagi 5ta davrga** bo'linadi:

- 1. Asos solingan davr.** 1867-1885 yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'limning ilk tuzilishiga asos solingan.
- 2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri.** 1886-1916 yillarni o'z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta'lim yaratilgan.
- 3. Tarqalish (ekspansiya) davri.** 1917-1936 yillarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi bo'yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.
- 4. Harbiy davr.** 1937-1945 yillar. Militaristik ta'lim tizimi.
- 5. Zamonaviy davr.** 1945dan hozirgi davrgacha ta'lim islohotlari. I davr (1868-1885).

### **I davr (1868-1885)**

Bu davrda Yaponiya bilimsizlik davridan tamaddun va ma'rifat davriga o'tish bilan xarakterlanadi. Yaponiyalik Fukudzava Yukiti butun millatni ta'lim va ma'rifat yo'liga chorladi. U "bilimga chaqiriq" deb nomlangan nashrida konfusiylilik qadriyatlarini tanqid qiladi va g'arb g'oyalarini undan ustun qo'ydi. Uning targ'ibot ishlariga ko'ra shu davrning maktab dasturiga g'arbgacha bag'ishlangan darslar kiritiladi. Lekin uning fikriga qarshi chiquvchi konservatorlar Fukudzava Yukitining fikriga qarshi chiqadi, natijada jamiyat 2ga ajraladi. Har bir taraf ta'lim tizimining isloh qilish bo'yicha o'z qarashlarini himoya qiladi. Lekin yaponlar bunday murakkab holatda ham kompromiss-yechim topa oldilar. Natijada yetuk jahon ta'lim tizimi an'analari va Yaponiya ma'naviy qadriyatlarini birlashtirib, yangi ta'lim tizimini yaratdilar.

Yapon ta'limining mumtoz shakllanishi 1867 — 1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ikki qat'iy shiori bo'lib, biri «Fukoku- kioxsi» — boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio» — ilg'or G'arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi bu ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig'ining bu xulosalari Yaponiyada 1872 yilda «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilinishiga olib keldi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta'lim tizimi o'rnida mamlakat rivojlanishini ta'minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo'nalishdagi 53750 ta boshlang'ich 256 ta o'rta maktab, 8 ta dorilfunun tashkil etildi. Bu o'quv yurtlaridagi ta'lim shakllari ma'rifatli G'arb ta'lim uslublari

bilan uyg'unlashtirildi, 1890 yilga kelib ilgari 3.4 yillik boshlang'ich maktablar muntazam 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi.

## **II davr (1886-1916).**

1885 yil kabinet tizimni tashkil etildi va Mori Arinori birinchi ta'lim vaziri bo'ldi. U keyingi davr uchun maktab tizimining asosini yaratdi. Bu tizim komponentlari - boshlang'ich, o'rta, kasbiy, oliy tizim o'zaro bog'liq. Inoue Kovashi Moridan keyin ta'lim vaziri bo'ldi. U boshlang'ich maktab bitiruvchilari uchun xususiy kasbiy maktablar tizimini yaratdi. 1899 yildan keyin qizlar maktabi kengaydi. 1908yil majburiy ta'lim 6 oyga uzaytirildi.

## **III davr (1917-1936)**

Rus revolyusiyasi va butun jaxondagi demokratiya talablari Yaponiya siyosati va ta'lim tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1917yil huquqiy ta'lim bo'yicha Favquloda kengash tuzdi. 1919 yil ushbu kengash tarqatilgunga qadar bir necha ma'ruzalami e'lon qildi. Bu ma'ruzalar XX asrning keyingi dekadasida ta'limning yoyilishiga asos bo'ldi. Kengash ayniqsa oliy ta'lim asosiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1918 yilgacha faqat Imperiya universitetlari mavjud edi. Lekin 1918 yilgi universitet qonuni xususiy universitetlarning paydo bo'lishlariga imkon yaratdi. Shunga bog'liq holda ko'pgina milliy, ijtimoiy va xususiy maktablar ham universitet maqomiga ko'tarildi.

## **IV davr (1937-1945)**

Yaponiyaning hukmdor sinfi ultramillatchilik va militarizmni targ'ib qiluvchi yaponizm ideologiyasini vujudga keltirdi. 1930 yil boshlarida butun ta'lim-tarbiya jarayonini xukumat nazorat qildi. Ta'lim vazirligi, mahalliy komitetlar ichki idoralar vazirligi, millatni nazorat qiluvchi tashkilotlarning bevosita nazorati ostida bo'ldi. Ta'lim vazirligi tomonidan chop etilgan geografiya, tarix fanlaridan darsliklar yangilariga almashtirildi. Natijada maktab militaristik ruhdagi yoshlami tayyorlash quroliga aylandi. Yaponiyaning 2-jahon urushiga kirishishi bilan militaristik ta'lim yanada kuchaydi. Maktablarda yaponlarning irqiy ustunligi to'g'risidagi fashistik g'oyalari va o'sha asr samuraylarining xizmatga sadoqat, "Buyuk Yaponiya uchun jonni qurbon qilish" g'oyalari yanada kuchli singdirila boshlandi.

## **V davr (1945-yildan).**

Ta'lim tuzilishining ikkinchi islohi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Okkupatsion davlatlar militaristik ta'limni bekor qildi va tinch demokratik an'analarga asoslangan yangi ta'lim tizimini joriy qildi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimi o'rnatildi. Unga ko'ra universitetga kirish uchun o'rta maktabni va universitet qoshidagi tayyorlov maktablarini tugatish lozim edi. Zamonaviy ta'lim tizimiga ko'ra 6 yillik boshlang'ich maktabda majburiy ta'lim, 1-bosqich o'rta maktabda 3 yil, 2-bosqich o'rta maktabda 3 yil keyin universitetda tahsil olish kerak. Faqat o'quv kalendari o'zgacha yaponcha: o'quv yilining boshlanishi 1-aprelga to'g'ri keladi. 1952 yil 28 aprelda San-Fransiskoda tinchlik bitimiga qo'l qo'yilib, Yaponiyaga suverenitet qaytarilgach, ta'lim islohotlari qat'iy ko'rib chiqildi va asosiy e'tibor an'anaviy yapon qadriyatlarini saqlashga qaratildi. Masalan, yana qayta ma'naviyat darslari tiklandi, milliy ta'limga ma'naviy asos qaytarildi.

1908-yildan boshlab Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O'quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo'ldi. 1893- yildan

e'tiboran Yaponiyada kasb yo'nalishidagi dastlabki kollejlarda paydo bo'la boshladi. Birinchi dorilfunun 1886-yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham dorilfununlar tashkil etildi. Lekin bu bilim maskanlarida xotinkizlar uchun faqat xo'jalik yuritish, oila iqtisodiyotidagina ta'lim berilardi. 1897-yilda Kiatoda ikkinchi dorilfunun ochildi.

Ikkinchi jahon urushida Yaponiya mag'lubiyatga uchragandan keyin mamlakat maorifi tizimlariga Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tamoyillari kirib kela boshladi. 1946-yilda qabul qilingan Konstitutiya Yaponiya fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda «Layoqatiga ko'ra barcha fuqarolar bilim olish huquqiga ega. Barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart» ekanligi belgilab qo'yilgan. 1947-yilda qabul qilingan «Ta'lim haqida Qonun» Yaponiya Konstitutiya ruhiga uyg'un bo'lib, mamlakatda ta'limning maqsad va vazifalarini to'la ifoda etadi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: «Biz shaxsiy g'ururi bor, o'zining qobiliyati va imkoniyatiga ishonuvchi, haqiqat va tinchlikni sevuvchi odamlarni tarbiyalaymiz, toki ular ko'p qirrali madaniyat sohibi bo'lsinlar». Shunday qilib, Yaponiyaning Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi boshqaruvi hozirgi paytda qat'iy markazlashdi, ilg'or xalqaro standartlar darajasidagi yapon ta'lim tizimlari qaror topdi.

#### **TA'LIM TIZIMINING TARKIBI**

Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha:

- bolalar bog'chalari;**
- boshlang'ich maktab;**
- kichik o'rta maktab;**
- yuqori o'rta maktab;**
- oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari.**

Bu ta'lim bosqichlarining o'ziga xos jihatlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

#### **Yaponiyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim.**

Yaponiya-juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash si'osati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

**Maktabgacha ta'lim.** Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni,

qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda-o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda-amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda-burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda-yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda liderlik xislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish.

Yaponiyada bolalarni tarbiyalash metodi to'g'risida quyidagi keng tarqalgan iborani keltirish mumkin: «Bola 5 yoshgacha – qirol, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul, 15 yoshdan keyin esa barcha bilan teng huquqli inson». Bu iboraning turli talqini boshqa millatlarda ham uchraydi. Albatta, bu falsafiy iborani boricha qabul qilish shart emas. Lekin bolaning hayoti bir necha davrlarga bo'linadi va bulardan birinchi davrida bola hammani o'ziga maftun etadi, uni asrab-avaylashadi, erkalashadi. Yoshi ulg'aygach, bolada lazzatlanishdan tash qari o'zining harakatlari uchun mas'uliyat va qator majburiyatlar paydo bo'ladi. Ulg'ayish ning ma'lum yoshiga yetgach kechagi bolakay bugun jamiyatning teng huquqli va teng maqomga ega a'zosiga aylanadi. Buning hammasi Yaponiyaning ta'lim tizimida bir marom va ketma-ketlikda kuzatilib boriladi. Ta'lim tizimining, shu jumladan maktabgacha ta'lim rivojlanishi tarixi uzoq o'tmishning Meydzi davriga borib taqaladi.

Yaponiyada 1876 yilda boy xonadon farzandlari uchun birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chalarining ochilishidan maqsad bolalarning aqlan va jismonan rivojlanishiga yordam beradigan o'zaro munosabatda bo'lish muhitini yaratishdan iborat bo'lgan. Albatta bola tarbiyasida onaning roli turlicha, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqoti, birga o'ynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmay digan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi.

Davlat darajasidagi maktabgacha tarbiya tizimi faqat 1961 yildan keyin keng tarqala boshladi. Bugungi kunga kelib, amalda har bir yapon bolasi bolalar bog'chasi yoki bolalarga qarash markaziga qatnaydi. Yaponiyada bolalar bog'chasi. Bolalarga nisbatan mehribonlik va muhabbat yapon jamiyati uchun muhim jihatlardan biri bo'lib bunday muhabbatning asosiy va muhim manbai ayoldir. Yakin davrlargacha yapon oilalarida ayollar o'z oilasini asrovchi, g'amxo'r xotin, mehribon ona bo'lib bolaga barkamol tarbiya berish uning vazifasi hisoblanar edi. Oxirgi vaqtda vaziyat o'zgarib, yaponlar kech turmush quryaptilar va ko'p ayollar ishlashni xohlayaptilar yoki ishlashga majburlar. Shunga qaramay yapon onalarining aksariyati bolalarni 3 yoshgacha uy sharoitida tarbiyalab, keyin ijtimoylashish uchun bolalar bog'chalariga joylashtiradilar.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim quyidagi muassasalarda amalga oshiriladi:

- **bolalar yalisi, bolalarga qarash markazlar - *hoikuen*;**
- **bolalar bog'chalari - *yōchien*;**
- **nogironlar uchun maxsus muassasalar –**

- **(Xoyuen)** - bolalarni parvarish qilish bo'yicha davlat markazi. Ushbu muassasalar eng kichigiga mo'ljallangan. Hukumat qaroriga binoan, ular maxsus ishlaydigan onalarni qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan.
- **(Youchien)** - xususiy bolalar bog'chasi. Bunday muassasalar katta yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan. Bu erda qo'shiq aytish, rasm chizish, o'qish va sanash o'rgatiladi. Qimmatroq muassasalar ingliz tilini o'rgatadi. Shuning uchun ular maktabga to'liq tayyorgarlik bilan kelishadi.



Maktabgacha ta'lim umummajburiy bo'lmasa ham bolalar bolalar yaslilari va bog'chalari katta ehtiyojga ega hamda bolani bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun avvalroq harakat qilish lozim. O'rtacha olganda bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun 25000 bola navbatga turadi. Yaponiyada bolani bolalar bog'chasiga uch yoshdan bersa bo'ladi, yoki ko'pincha bolani 4 yoshdan beriladi. Maktabgacha o'qitish muddati 3 yil davom etib so'ngra bola boshlang'ich maktabga qabul qilinadi. Bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oylikidan berish mumkin, lekin bunday xolat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak. Shuningdek bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun eng asosiy deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-ona ish joidan ma'lumotnoma va oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a'zosi yo'qligi haqida hujjatlar taqdim etiladi. Bolalar yaslilari bolalarga qarab turish faoliyati bilan shug'ullanadilar va u yerda ta'lim berish dasturlari nazarda tutilmaydi hamda ular Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligiga emas balki Sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligiga bo'ynsunadilar.

**Yaponiyada bolalar yaslilari.** Bolani maktabgacha tarbiya muassasiga joylashtirish masalasini, qanday muassasa (davlatga qarashli yoki hususiy) bo'lishidan qat'iy nazar, munitsipalitet hal qiladi. Meriyaga (shahar xokimiyatiga) murojaat qilgan otaonalarga bolalar bog'chalari (yaslilar) qaerda joylashganligi ko'rsatilgan atlas beriladi. Bu atlasda u yerga boruvchi sxema, maktabgacha tarbiya muassasidagi joylar soni ko'rsatilgan. Ota-onalar avvalroq bolalar bog'chasiga borishlari, tarbiyachilar bilan suhbatlashishlari va ularga yoqqan bog'chani tanlashlari mumkin, lekin hal qiluvchi natijani munitsipalitet belgilaydi va bo'sh o'rin bo'lsa ota-onalarga bolani bog'chaga (yasliga) borish uchun ruhsat beradi. Bolani bog'chaga yilning barcha oyidan olib borish mumkin, lekin bo'sh o'rinlar soni 1 aprelga kelib ko'payadi chunki shu paytda o'quv yili boshlanib bog'chalarni bitiruvchi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga yo'l oladilar.

Yaponiyaning maktabgacha tarbiya tizimiga quyidagi turdagi muassasalar kiradi:

- *davlatga, munitsipalitetga, prefekturaga tegishli;*
- *xususiy.*

Shuningdek maktablar va institutlar qoshida ham bolalar bog'chalari mavjud. Ya'ni bolalar uchun bog'cha yoshidanoq uning kelajakdagi o'qish jarayoni belgilanadi. Bunday ixtisoslashtirilgan bolalar bog'cha tarbiyalanuvchisi kelajakda tegishli nufuzli maktabga keyinroq esa universitetga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Farzandining porloq kelajagini shakllantirishda ota-onalar maktabgacha va ta'lim muassasalarni tanlashga mantiqiy siyosat bilan yondashadilar. Bu jarayon bolani nufuzli bolalar bog'chasiga keyin boshlang'ich so'ngra eng yaxshi o'rta maktabga joylashtirish bilan boshlanadi va bola katta bo'lguncha davom etadi. Natijada bola munosib kasb egasi bo'lishi va shunga mos ish haqi olishi uchun ota-otanasiz bola tug'ilishidan boshlab uning ta'lim olishiga katta mablag' sarflashlari kerak. Agar oila biror bir sabab bilan bolani bolalar bog'chasiga olib bormasa, unda onaning o'zi uni maktabga tayyorlash uchun hamma kerakli bilimni o'rgatishi lozim.



Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimining 80 foizini xususiy bolalar bog'chalari va bolaga qarash markazlari tashkil etadi. Davlatga tegishli va hususiy bog'chalar o'rtasidagi farq katta emas. Ta'lim berish jarayonining tizimi va



yondashish ikkala turdagi muassasalarda ham 2006 yilda qabul qilingan “**Ta’lim to’g’risidagi asosiy qonun**”ga mos ravishda olib boriladi. Bunda bolaning hox davlatga qarashli, hox hususiy bog’chada tarbiyalanishi uchun to’lov puli ota-onaning daromadiga qarab belgilanadi - oila daromadi qancha katta bo’lsa bog’cha puli ham shuncha katta bo’ladi. O’rtacha qilib olganda kam ta’minlanganlar uchun 100 AQSh dollardan, badavlat oilalar uchun 500 dollargacha to’lov amalga oshiriladi. Yaslilarda (bolaga qarash markazlarida) yana bolaning yoshi ham hisobga olinadi - bola qanchalik kichik bo’lsa, to’lov baxosi yuqori bo’ladi. Lekin bari bir xususiy bog’chalarda to’lov narxi yuqoriroq hamda har oylik to’lovdan tashqari kirish to’lovini ham o’z ichiga oladi va bu esa 1000 AQSh dollargacha borishi mumkin. Shular bilan birga hamma bog’chalar uchun majburiy bo’lgan forma uchun ham pul to’lash kerak bo’ladi. Har bir bolalar bog’chasi o’z formasiga ega bo’lib bunda bir xil shimchalar, yubkachalar, ko’ylakchalar, issiq ko’ynaklar, bosh kiyim va orqasiga osib yuriladigan xaltalar bo’lishi kerak. Formalarni kiyib yurish majburiy.



**Yaponiyada maktabgacha tarbiya.** Maktabgacha ta’lim muassasidagi bola tarbiya va mazmuni sifati bog’chaning davlatga qarashli yoki hususiyligida emas balki aniq bog’chaning o’ziga, u joylashgan hududi va pedagogik jamoasiga bog’liq bo’ladi. Guruhlardagi bolalarning soni ham turlicha bo’lib, 8 nafardan 40-50 nafargacha bo’lishi mumkin. Yaponiyada maktabgacha tarbiya muassasalarida ish soatlari turlicha. Misol qilib aytganda, davlat bog’chalari ikki xil ko’rinishda bo’ladi – to’liq ish kunidan iborat bog’cha bo’lib, uning tartibiga ko’ra bog’cha har kuni va shanba (yarim kun) kuni qo’shilgan tarzda ishlaydi. Bunday bog’chaga ikkala ota-onasi kuniga 4 soatdan ko’proq ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Kun bunday bog’chalarda ertalab soat 8 dan boshlanib, bolani kechki soat beshgacha hoxlagan vaqtda olib ketish mumkin. Qo’shimcha to’lov evaziga bolaga kechki soat 7-gacha qarab turish mumkin. Ikkinchi ko’rinishdagi bog’chalar, bu bolalarni yarim kunga qabul qiladigan bog’chalar. Bir xil kutilmagan sharoitlarda, masalan kuchli to’fon havfi haqidagi ogohlantiruvdan so’ng ota-onalar bolalarni maktabgacha muassasadan olib ketishlari shart. Bolalar bog’chalarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o’ta yuqori darajada. Ertalab vaqtlari bolalarni bog’chaga tashlab ketib

kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar bog'chalaridagi tartibga ko'nikish juda qiyin, chunki u yerda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam qatnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar bog'chada ota-onalarsiz ikki soat, uzog'i bilan to'rt soat bo'lishlari mumkin. Va bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalanadilar.

Bolalar yaslilarida tarbiyachilar kundalik daftar tutib unga bolaning kun davomidagi faoliyatini yozib boradi: bola qanday ovqatlandi, qanday uxladi, o'zini qanday xis qildi va hokazolar, va xuddi shu narsalarni ota-onalardan ham kutadilar. Pedagoglar va ota-onalar har bir bola tarbiyasi to'g'risida o'zlarining qiziq kuzatuvlarini va fikrlarini yozib boradilar. Bolalar tarbiyasi jarayoni pedagog va ota-onaning birgalikdagi yaqin hamkorligida amalga oshiriladi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozim, bu jarayonda pedagog (tarbiyachi) boshlovchi tomon hisoblanadi. U esa o'z navbatida otaonalarning bolalar tarbiyasida yo'l qo'ygan kamchilik hamda adashishlarini ko'rsatib berishi mumkin va ota-onalar buni nafaqat hisobga olishi balki kelajakda undan qo'llanma sifatida foydalanishi zarur.

Maktabgacha tarbiya muassasa pedagogik jamoalari tomonidan bolalarni tarbiyalash usuli bo'yicha ota-onalar o'qitib boriladi, muntazam ravishda ota-onalar majlislari o'tkaziladi. Bolalarning onalari odatda bir-birlari bilan tez-tez o'zaro suxbatlashib turadilar, turli masalalarni xal qiluvchi «onalar» qo'mitalari tuzadilar, bolalar muassalarida o'tkazib turiladigan sport kunlari, kuzatuv va boshqa tadbirlar kunlarida qatnashib turadilar. Ammo, avvalambor, maktabgacha yoshdagi yapon bolalarining tarbiyasi uydan boshlanadi. Aynan ota-onalar o'z farzandlariga ma'lum axloq usullarini singdirib boradilar, o'z xattiharakatlari bilan bolalarni mehribon, xushmuomalali, rahmdil va mustaqil bo'lishni o'rgatadilar. Bola uchun onaning mehri juda yuqori darajada va onaning yaxshi munosabatini yo'qotish uning uchun oliy jazodan ham qo'rqinchi xol. Yapon oilalarida odatda bola hech qachon jazolanmaydi va unga «yo'q» deyilmaydi. Buning o'rniga oilada – bu harakatingdan ota, ona yoki yana biror kimsa ranjishi mumkin, degan ibora ishlatiladi. Shunga o'xshash, tarbiyalash maqsadida, bolaga bunday ishing kimgadir yoqmaydi, deyish ham mumkin. Va bu «kimdir» bu yaponning butun hayoti davomi uning yonidaligi xis etiladi, va yaponlar uchun jamoat fikri juda muhim. Oiladagi asos solingan tarbiya asoslari bolalarning jamoaviy hamkorligi sharoitida rivojlantiriladi.

Tarbiyachi bolalarga o'zaro munosabatda bo'lishni o'rgatish jarayonida alohida kichik guruhlar – «xan» tuzadi. Bu guruhlarda bolalar o'zaro fikr almashish va mustaqil bo'lish ko'nikmalarini o'rganishadi. Bolalarga guruhdagi boshqa qatnashchilarning fikriga quloq solib, hisobga olgan xolda o'z fikrini bildirishga o'rganadilar. Bolalar o'z guruxlarida o'zlari qulayliklar va tartib yaratadilar, yig'ishtirib gullarni parvarish qiladilar, xatto mustaqil ravishda o'zlariga ovqat ham tayyorlaydilar. Shu yo'l bilan bolalarni guruhlarda harakat qilishga o'rgatadilar. Bolalarning o'rtasidagi kelishmovchiliklar yoki yoqalashishlar paydo bo'lganda tarbiyachi darrov aralashib, o'rta tushmaydi, chunki bolaning o'zi kelishmovchilikni xal qila bilishni o'rganishi kerak va bu unga kuchliroq bo'lishda yordam beradi. Yaponiyada maktabgacha tarbiya jarayonida tez-tez tarbiyachi va guruhlar o'zgartirib turiladi. Bu bolani bir xil odamlarga, bir xil sharoitga o'rganib qolmay jamiyatda yashashga o'rgatish uchun zarur. Bolalar maktabda yozishni,

o'qishni o'rganadilar, lekin bolalar bog'chasiga qatnash dan asosiy maqsad bolani ijtimoylashtirish. Uni guruhlarda yashash, guruh manfaatlari bilan yashashga o'rgatishdir.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan, bular:

- ijtimoiy munosabatlar;
- salomatlik, xavfsizlik;
- til;
- atrof muxit;
- his-tuyg'ularini ifodalash.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohalardagi bunday davlat siyosatiga tufayli yapon bolalariga sport bilan shug'ullanish va chiniqish ko'nikmalari singdiriladi. Tez-tez Yaponiya ko'chalarida oktabr oyida bog'cha rangidagi kalta shim kiygan bolalarni uchratish mumkin. Bu bolalarda sovuq kunlarda oyoq yalang yurish ko'nikmalarini singdirishni amaliyotidan darak beradi. Bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o'ziga ishonishni, yangi ko'nikmalarni egallashga, xalq ertaklarini va kitoblarni o'qib tilga va madaniyatga o'rgatadilar. Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari – sog'lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o'z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a'zosini yaratishga qaratilgan.

**Bolalar bog'chalaridagi mashg'ulotlar.** Bolalar bog'chalarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkazilib, muntazam sayrlarga (poxodga) chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o'tkazilishidan maqsad - bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi, musobaqa o'tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g'oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g'olib emas. Jamoa bilan muntazam ravishda bir kunlik sayrga chiqishdan maqsad bolani chidamlikka o'rgatish va o'zi atrofidagi hududni o'rganish.

Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag'ishlangan milliy bayram va festivallar ko'p bo'lsa kerak. Yoshlikdan go'zallikni sevishni va tabiatni his etishni o'rgatilgan yapon bolalar bu tuyg'ular bilan umrbod yashaydilar. Bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, davlatdan tashqarida Yaponiyada jamoaviylik hislatlari juda rivojlanib, shaxsiyat tushunchalarini inkor etiladi fikrlar tarqalgan. O'zini shaxs sifatida namoyon etadigan inson Yaponiya jamiyatida qo'llab quvvatlanmaydi. Lekin bu Yaponiyada hamma birdek hisoblanib, shaxsiyat inkor etiladi degani emas. Yaponiya yoshlarini fotosuratlarini ko'rsangiz u yerda yetarlicha rang-barang, o'ziga ishongan yigit-qizlarni ko'rasiz, lekin ular guruh bo'lib yashaydilar va bu ularning ulg'ayshlaridagi ma'lum pog'ona demakdir. Maktab va institutlarni tugatgan rang-barang va o'zgacha fikr yurituvchi yoshlar qonunlarga itoat etuvchi va mehnatsevar yapon fuqarolari qatoriga qo'shilib ketadilar.

Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar—**xanlar**ga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada —o'z ish o'rni ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 ÷shdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. SHuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 ÷shdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda. Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

**Maktab ta'limi.** Yaponiyadagi maktab uch bosqichga bo'lingan:

1. Boshlang'ich maktab (1-6 sinflar) - syogakko.
2. O'rta maktab (7-9 sinflar) - tyugakko.
3. O'rta maktab (10-12 sinflar) - kotogakko.

### **Boshlang'ich ta'lim —syogakko**

Boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma, akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul.

Yaponiyada o'quv yili 3ta chorak - trimestrga bo'linadi. 1-chorak - 6 apreldan - 20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentabrdan 2-trimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25- martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. Shu paytda o'quvchilar sinfdan sinfga ko'chadi. Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga

to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida o'quvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar trimestrda yaxshi o'qimagan bo'lsa, maxsus kurslarda o'qiydilar. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ta'til paytida "rasmlik kundalik" tutish tavsiya qilinadi. Rasmlar kandji bilimni kuchaytiradilar va o'quvchini yozish va chizishga o'rgatadi.

Yaponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2- shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji iyeroglifdan 1006tasini yod olishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim "**syogakko**" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- -o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hissini o'rgatish;
- -o'quvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;
- -ona tilidan to'g'ri foydalanish;
- -iqtisodiy tarbiya berish;
- -barkamol shaxsni tarbiyalash.

O'quv maqsadlariga aniq o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang'ich maktabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o'qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. Shuningdek "maxsus faoliyat" fani ham o'qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. O'quvchilar o'zlari o'quv sinflarini tozalaydilar, o'quv yilining oxirida katta hashar uyushtiradilar. Demak, 6-15 yoshgacha bo'lgan yapon bolalari boshlang'ich 6 yillik maktabga borishlari shart. Kam ta'minlangan oilalarning bolalari maktab nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to'lash uchun dotatsiya oladilar. Ota-onalar farzandlarini o'z tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta'lim muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

**Yaponiyada o'rta va katta maktab tizimi.**  
**Kichik o'rta maktab - tyugakko.**

Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchi o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o'quvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.



Kichik oʻrta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflami oʻz ichiga oladi va majburiy taʼlimning oxirgi bosqichi boʻlib hisoblanadi. Oʻquvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha boʻladi. Xuddi boshlangʻich maktabdagiday, oʻrta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5%-xususiy. Boshlangʻich taʼlimdan farqli holda har bir oʻqituvchi bitta fan boʻyicha dars beradi. Oʻquv rejasiga boshlangʻich taʼlim fanlari kabi, shuningdek, baʼzi yangi fanlar ham qoʻshiladi. Masalan, 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan boʻlib hisoblanadi. Koʻpchilik oʻquvchilar bitta yoki bir necha maktab toʻgaraklari, qiziqishlari boʻyicha klublarga qatnashadilar. Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabki vaqtni egallaydi.

Kichik oʻrta maktabda oʻtiʼladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlov fanlar kiradi. Bu fanlarning tarkibi maktablarga bogʻliq. Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili hisoblanadi. Yaponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori taʼlim olishini juda xohlaydilar. Aksariyat yaponlarning turmush darajasi bir xil boʻlganligi bois (72% bir xil) bolalarning taʼlimi boʻyichagina raqobatlashishi mumkin.



Taʼlimga bunday katta eʼtibor “dzyuku” maktablarining yaratilishiga asos boʻldi. “Dzyuku” - nufuzli oʻquv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki

maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo bo'lgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq. **“Kichik dzyuku”**lar 5-6 o'quvchidan iborat bo'lib, o'qituvchining uyida shug'ullanadi. **“Katta dzyuku”**lar 5 minggacha o'quvchilarni yig'adi.

O'qish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha bo'ladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi. OO'Yulariga kirish shunchalik murakkabki, kirish imtihonlariga tayyorlash jarayonida Dzyuku maktablarida **“Mardlik marosimi”** o'tkaziladi. Unda o'quvchilar maktab shiorini boshlaridagi povyazkaga bog'lab, **“Men albatta o'qishga kiraman”**, - deb bor ovozi bilan baqiradilar.

### **Katta (o'rta) maktab - kotogakko.**

Katta (o'rta) maktab majburiy emasligiga qaramay, unda 94% o'quvchilar tahsil oladilar (2005 yilgi ma'lumot). Katta o'rta maktab soni 55%ni tashkil etadi, shunga qaramay davlat va xususiy katta maktablar pullik. Katta o'rta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keying 2 yil ichida oliy ta'lim olish maqsadiga ko'ra kursni tanlash nazarda tutilmoqda.

Katta maktab dasturlari o'rta maktab va boshlang'ich maktab dasturlariga ko'ra xilma-xil, lekin o'quvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi bo'yicha imkoniyatlar yaratiladi. Darslar tugagach, o'quvchilar maktab va maktab hududini o'zlari tozalaydilar, yapon maktablarida farroshlar yo'q. Katta maktablarda o'qish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiy o'rta va boshlang'ich maktablar ham bor. Barcha pulli ta'lim muassasalarida stipendiyalar konkursi g'olibi bo'lsa, tekin o'qish mumkin yoki chegirmalar olish mumkin. O'rta maktabdan katta maktabga o'tish imtihonlar natijalariga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'rta maktabda o'zlashtirish ko'rsatkichiga ko'ra o'quvchi kirish imkoniyati bor bo'lgan katta maktab ro'yxatini oladi.



Qiz bolalar uchun 12 maktab yili eng baxtli yillar hisoblanadi. O'g'il bolalar darsdan keyin kitob o'qishadi, **“dzyuku”** maktablarida shug'ullanishadi, qizlar esa bu paytda do'konlarga boradilar. Zero, bu yerda ayol kishining o'mi xizmatchilik

emas, onalikdir. Albatta qizlar turmushga chiqqunlariga qadar hayotni bilish uchun bir necha yil jamoada ishlaydilar. Qizlar uchun maxsus kitobchalar chop ettiriladi, kinofilmlar namoyish etiladi.

**Maktab formasi** fasoni 100 yildan beri o'zgarmaydi: o'g'il bolalar uchun qora mundir, qizil bolalar uchun ko'k matroskalar. Yaponiyadagi deyarli barcha o'rta va o'rta maktablarda yagona forma mavjud. Bundan tashqari, har bir maktabning o'zi bor. Maktab kiyimlari har bir o'quvchi uchun alohida-alohida tikiladi va maktab formasiga qishning (issiq) versiyasi va yozgi versiyasi kiritilishi shart. Bundan tashqari, har bir maktab nizomida golf, maktab sumkalari (ko'pincha sumkalar forma bilan birga beriladi), sport formasi va hattoki soch turmagi kiyish qoidalari belgilangan.

Yaponiyada barcha maktab o'quvchilari o'zgaruvchan poyabzalga ega. Odatda uning rolini terlik yoki uvabaki o'ynaydi - sport poyabzali yoki jemperli balet kvartiralariga o'xshash maktab poyabzali. Yaponiyada oyoq kiyimlarini almashtirishga, ayniqsa taglikning rangiga nisbatan juda qattiq talablar qo'yilgan: taglik polda qora iz qoldirmasligi kerak. Shuning uchun uvabaki ko'pincha oq rangga ega (boshqa ranglar bilan aralashgan). Terlik yoki uvabakining rangi siz bo'lgan sinfga bog'liq. Har bir sinf o'z rangiga ega.



Yapon maktabining har bir o'quvchisiga 4 raqamdan iborat individual raqam beriladi. Dastlabki ikkita raqam - bu sinf raqami, va oxirgi - bu sizning sinfingizda sizga berilgan shaxsiy raqam. Ushbu raqamlar kutubxonadagi kartalarda, velosipeddagi stikerlarda qo'llaniladi. Talabalar barcha nazorat raqamlarini ushbu raqamlar bilan imzolaydilar (talaba raqami, keyin talabaning ismi).

Yaponiya maktab o'quvchilari har hafta har xil dars jadvaliga ega. Odatda o'quvchilar yangi jadval bilan faqat juma kuni tanishadilar. Shuning uchun oldindan taxmin qilish qiyin bo'lishi mumkin, masalan, ikki haftada dushanba kuni qaysi dars birinchi bo'ladi.

Yapon maktablarida farrosh ayol yo'q: o'quvchilarning o'zi har kuni tushdan keyin tozalaydi. Maktab o'quvchilari pollarni supurishadi va silaydilar, derazalarni yuvadilar, axlatlarni tashlaydilar va hokazo. Va nafaqat o'z sinfida, balki hojatxonalarda va akt zalida ham.





Yapon maktabidagi har bir o'quvchining o'z stoli bor. Boshqacha qilib aytganda, bitta odam bitta stolda o'tiradi. Ikki emas (masalan, aksariyat rus maktablarida bo'lgani kabi).

Yaponiya maktablari muammosi bu imtihonlarning qiyinligidadir. Bu imtihonlarning har biri bir necha kunlik mehnatni talab qiladi, unga tayyorlanishga juda ko'p vaqt ketadi. Imtihonlarga bir hafta qolganda o'quvchilarning imtihonlarga tayyorlanishlari uchun to'garak yig'ilishlari bekor qilinadi. Odatda imtihonlar yozma testlar shaklida o'tkaziladi. Imtihonlar uchun baho foiz tizimida qo'yiladi, yuqori baho - 100 ball.

Odatdagi davlat maktablaridan tashqari pulli xususiy maktab- akademiylar (gakuenlar) bor. Shuningdek, umumdavlat maktabi maqomidagi "milliy maktablar" mavjud. Bu akademiya kirish uchun katta konkurs asosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdin akademiya yaxshi ta'lim dasturlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi katta maktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi. Odatda akademiya-maktablarda yapon aristokratlari bolalari: siyosatshunoslar, tijoratchilar, diplomatlar, mashhur universitetlar professorlarining farzandlari tahsil olishardi. Ba'zi akademiyalarda maktab formasini kiyish shart emas.

Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar nufuzli katta maktablarda o'qiydilar, yomon o'zlashtiradiganlari va yo'qlari o'rtamiyona maktablarda o'qitiladi. Bu maktablar uy xo'jaligini yuritish, qishloq xo'jaligi kabi sohalarga mo'ljallanadi. O'qituvchi faqat o'qitish emas, balki bolalarning tartibi uchun ham, vaqtini o'tkazishi va boshqa ko'plab masalalarga ham mas'uldir. Bular "o'qitish" tushunchasiga emas, ko'proq ota-onaning vazifalari sirasiga kiradi. Shu bois ham Yaponiya hukumati OO'Yulari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi.

Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, davlat maktabi o'qituvchisi bo'lish uchun yapon fuqarosi o'qituvchi diplomini olishi kerak va o'qituvchilikka tayinlash imtihonidan o'tishi kerak. Yaponiya o'qituvchilar oyligi mahalliy xokimiyat organi xodimlari oyligidan ko'p bo'lgan davlatlardan biridir. Yaponiyada katta o'rta maktablarning kunduzgi (o'qish-3yil), kechki va sirtqi (o'qish 4 yil) turlari bor. Kechki va sirtqi maktabni bitirganlik haqidagi guvohn omasixuddi kunduzgi katta maktabnikiday bo'lsa ham, 95% o'quvchilar maktabning kunduzgi bo'limida tahsil olishadi. Katta maktablarga qabul qilish kichik maktabni tugatganlik va kirish

imtihonlari natijalaribo'yicha konkursdan o'tganligi haqidagi hujjat asosida amalga oshiriladi.

Katta o'rta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslik va b. majburiy umumta'lim fanlariga qo'shimcha holda o'quvchilar tanlov bo'yicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar bo'lishi mumkin. 12-sinfda o'quvchilar o'zi uchun ta'lim profillaridan birini tanlashi kerak. Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga ko'ra, katta o'rta maktabda bilimlarni baholashda OO'YU tizimidan foydalaniladi. Bu har bir o'quvchi 12 yillik o'rta ta'limni tugatganligi haqida guvohnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig'ishi lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamonaviy yapon adabiyotini har bir kursini o'rganish natijalari bo'yicha 4ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi bo'yicha 2 kredit, klassik til bo'yicha - 2 kredit.

### Yaponiyada kasb-hunar ta'limi.

Yaponiyada katta o'rta maktabda o'qishni xohlamaganlar 5 yillik "**texnik kollej**"lar - kasbiy texnika bilim yurtlariga kirishlari mumkin. Lekin bu o'qishlarga kirish shunchalik oddiy emas, eng yaxshilaridan juda katta konkurs asosida qabul qilinadi, chunki Yaponiyada yuqori malakali ishchilar juda ham zarur. Universitet o'rniga 2 yillik kollejga kirish mumkin, unda maxsus ta'lim beriladi. Bu kollejlarda yapon qizlarining 90% o'qiydilar va ayollar kasbini egallaydilar: tibbiyot hamshirasi, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yuqori malakali uy xonimlari, aktrisa (seyyu).

Yaponiya kollejlari o'z maqomi bo'yicha bizning o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan teng. Ular **kichik, texnologik, va maxsus tayyorgarlik kollejlari**ga bo'linadi.

**Kichik kollejlari** soni 600ta bo'lib, gumanitar, tabiiy, tibbiyot va texnik fanlar sohasida tayyorgarlikning ikki yillik dasturini tavsiya qiladi. Bu kollej bitiruvchilari universitetning 2 yoki 3-kursida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Kichik kollejlarga qabul to'liq o'rta maktab bazasida amalga oshiriladi. Talabgorlar kirish imtihonlari va undan kamroq "Birinchi bosqich yutuqlari testi"ni topshiradilar. Kichik kollejlarning 90% xususiy va yoshlar orasida juda ommalashgan. Bu yerga o'qishga kirishni hohlovchilar soni yildan yilga ortib bormoqda. 60% kollejlari ayollar uchun mo'ljallangan. Unda uy oila moliyasi, adabiyot, tillar, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi fanlar o'qitiladi.

Yaponiyada **texnologik kollejlarga** to'liq emas yoki to'liq o'rta ta'limni tugatgach, kirish mumkin. Birinchi holatda o'qish muddati 5 yil, ikkinchisida - 2 yil. Bu tipdagi kollejlarda elektronika, qurilish, mashina qurilishi va boshqa fanlar o'qitiladi. Yaponiyada 60 texnologik kollej mavjud bo'lib, unda 55 ming talaba tahsil oladi.

**Maxsus tayyorgarlik kollejlari** buxgalter, mashinist, dizayner, dasturchi, avtomexanik, tikuvchi, oshpaz va b. kabi 1 yillik kasbiy kursni tavsiya etadi. Bunday o'quv muassasalarning soni 3,5 ming. Bitiruvchilar OO'Yuda, kichik va texnik kollejlarda o'qishni davom ettirish xuquqiga ega bo'ladilar. Noto'liq va to'liq o'rta maktab bitiruvchilarini ma'lum kasbga tayyorlash uchun 2 tipdagi maxsus

tayyorgarlik maktabidan iborat tizim yaratilgan bo'lib, bular majburiy ta'lim bazasidagi 1-4 yillik maktablar, hamda bir necha oydan 1-3 yilgacha davom etadigan ko'p tarmoqli maktabdir. Maxsus tayyorgarlik va ko'p tarmoqli maktablar Yaponiya uzluksiz ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bu maktablar turli amaliy va kasbiy-texnik o'quv dasturlarini taklif etadilar. Bu maktablar faoiyati milliy standartlar orqali boshqariladi. Maxsus tayyorgarlik maktabi va ko'p tarmoqli maktablar 1978 yil joriy qilingan bo'lib, oxirgi yillarda uning soni sezilarli oshdi.

1988 yil bunday maktablar soni 3191ga yetdi, unda 700 ming o'quvchi tahsil olardi. Bu maktablar o'quvchilarga kasbiy-texnik va umumta'lim yo'nalish kurslarini taklif etadi. O'rta kasbiy ta'lim 2-3 yillik kichik kollejlarda va 5 yillik texnik kollejlarda olinadi. Kichik kollejlarda "tanki-daygaku" deb ataladi va butun Yaponiya ta'lim tizimining juda ko'p qismini tashkil etadi. Ko'pchilik milliy kichik kollejlarda milliy universitetlar qoshida tashkil etilgan. Kichik kollejlarning yarmi o'rta tibbiy xodimlarni, choragi yurist va iqtisodchilarni, qolganlari- texnik mutaxassislarini tayyorlaydi. Munitsipal kichik kollejlarda jamiyatning ijtimoiy talablariga ko'ra ta'limiy va tadqiqot faoliyatini olib boradi.

**Oliy ma'lumot.** Oliy ta'lim tizimiga quyidagi to'rt asosiy o'quv yurtlari kiradi:

- 1) to'liq tsikl (4 yil) va tezlashtirilgan tsikl (2 yil) universitetlari;
- 2) kasb-hunar kollejlari;
- 3) maxsus tayyorgarlik maktablari (texnologik institutlar);
- 4) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim maktablari (magistratura).

## **O'ZBEKISTON VA YAPONIYA TA'LIM TIZIMINI QIYOSIY O'RGANISHNING AHAMIYATI.**

### **O'zbekiston va Yaponiyada oliy ta'lim tizimi.**

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- Xususiylar yoki davlat qaramog'ida ekanligidan qat'iy nazar ta'limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta'lim standart asosida tadbiiq etuvchi oliy ta'lim muassasalari;
- Oliy ta'limni rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;
- Davlat tomonidan boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar.

Oliy ta'lim 2 bosqichdan iborat: **bakalavriyat va magistratura**

**Bakalavriyat** - bu 4 yil davom etuvchi yo'naltirilgan nazariy va amaliy bilim beruvchi oliy ta'limning 1-bosqichi hisoblanadi. Bakalavr dasturini o'qitish nixoyasiga yetgach, talaba davlat attestatsiya yakuniy xulosasiga muvofiq o'qitilgan yo'nalish asosida "bakalavr" darajasiga loyiq deb topiladi hamda davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi.

**Magistratura** - bu 2 yil davom etadigan aniq yo'nalish asosida nazariy hamda amaliy bilim beruvchi, bakalavmi bitirgachgina tanlov asosida ta'lim olish davom ettirishi mumkin bo'lgan oliy ta'lim bosqichi. Magistraturada o'qish yakunlangach, bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi komissiyasining yakuniy xulosasiga muvofiq aniq mutaxassisligi ko'rsatilgan "magistr"lik darajasi va magistrlikni

tasdiqlovchi davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi. Davlat na'munasidagi bakalavr va magistr diplomlari diplom egalariga mutaxassisliga bo'yicha kasbiy faoliyati bilan shug'ullanish yoki o'quv muassasasida kelgusida o'qishni davot ettirish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

- **Universitet** - oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchuk keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;

- **Akademiya** - oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq 1 yo'nalishga tayyorlaydi;

- **Institut** - barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda 1 yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Yaponiyada davlat universitetlariga to'liq o'rta maktabni bitirib kirish mumkin. Qabul 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "Yutuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"ni topshiradilar". Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtihonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ballar olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtihon topshiradilar.

Shuni aytish joizki, xususiy universitetlar kirish imtihonlarini mustaqil o'tkazadilar. Eng yaxshi xususiy universitetlar o'zining tuzilmasida boshlang'ich, kichik o'rta va katta o'rta maktab, hatto bolalar bog'chasiga ham ega. Agar abituriyent mazkur universitetda bog'chadan katta o'rta maktabgacha yaxshi o'qisa, universitetga imtihonsiz qabul qilinadi. 2005 yil 2,8 mln. Yaponiya talabalari 726 universitetlarda tahsil olishdi. Oliy ta'lim bakalavr darajasini olish uchun 4 yillik o'qish belgilangan. Ba'zan ma'lum kasbiy darajani egallash uchun 6 yillik dastur tavsiya qilinadi. 2 tipdagi universitetlar mavjud: 96ta milliy universitetlar va 39 davlat universitetlari. Qolgan 372tasi xususiy (1991 yil ma'lumot). Yaponiya oliy ta'limida stipendiya deyarli yo'q. 2011 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 2.880.000 yapon OO'YU talabalaridan atigi 100ga yaqini yapon hukumati stipendiyasini olishdi. Stipendiyani eng iste'dodli va eng kam ta'minlangan o'quvchiga qaytarish sharti bilan berishadi, bu stipendiya ta'lim harajatlarini to'liq qoplamaydi.

Yaponiyada kuchli 20talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: *Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir.*

Universitet tanlashda birinchi mezon - uning nufuzligida. Bunday nufuzli OO'YU bitirgan yosh yigit-qizlar darhol ishga olinadi. Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'ijak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga

chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa - talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Nazariy jihatdan umumilliy sikl tugagandan so'ng talaba mutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishi mumkin. Aslida, bunday holatlar kam uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Oxirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi. Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan. Oliy ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: **gakushi**. Talaba OO'Yuda 4 yillik o'qishini 8 yil o'qish huquqiga ega, ya'ni o'zlashtirilmagan talabalarni talabalar safidan chiqarish mumkin emas. Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q. Lekin ba'zi universitetlar chet ellik talabalarni 2 yoki 3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi (transfer examination).

Oliy o'quv yurtining tadqiqot Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shimdiki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa - talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Ko'plab universitetlar o'quv jarayonini semestr tizimi bo'yicha tashkil qiladi. Universitetda zaxet birliklari tizimi tashkil qilingan. Unda auditoriya va laboratoriyada semestr davomida har hafta ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitilayotgan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124dan 150 gacha zaxet birliklarini to'plash lozim.

Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zaxet birligidan iborat boigan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi. 3 yillik doktorlik dasturlari 50 zaxet birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari yapon oliy o'quv yurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor. Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar. Yaponiya yoki chet el oliy o'quv yurtlaridan kelgan ko'chma talabalar bitta yoki qator ma'ruzalarda qatnashish yoxud magistratura va doktoranturadan ilmiy rahbarlikni olish uchun qabul qilinadilar. Tadqiqotchi talabalar (Kenkyu-sei) mazkur universitet professori rahbarligi ostida ma'lum ilmiy mavzuni o'rganish uchun bir yillik magistraturaga kiradi, lekin akademik daraja berilmaydi.

**O'zbekiston va Yaponiya ta'lim tizimining o'xshash va farqli jihatlari.**

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga faol qo‘shilib borishi milliy ta‘lim tizimini jahon andozalariga muvofiqlashtirishni talab qilmoqda. Hozirgi davrda ta‘lim sohasida AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya mamlakatlarida erishilayotgan yutuqlar ibratlidir.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya ta‘lim tizimining qiyosiy tahlili quyidagicha:

1. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta‘lim;
- umumiy o‘rta ta‘lim;
- o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi;
- oliy ta‘lim;
- oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta‘lim.

2. Yaponiya ta‘lim tizimi esa quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta‘lim;
- boshlang‘ich ta‘lim;
- kichik o‘rta maktab;
- katta o‘rta maktab;
- kasb-hunar ta‘limi;
- oliy ta‘lim;
- magistratura;
- doktorantura.

3. Yaponiyada boshlang‘ich ta‘lim 6 yil davom etadi, majburiy, bepul.

4. O‘zbekistonda ham boshlang‘ich ta‘lim majburiy va bepul, 4 yil davom etadi.

5. Yaponiya ta‘lim tizimida majburiy malaka oshirish tizimi majud.

- O‘zbekistonda ham har 3-5 yilda sohalar bo‘yicha malaka oshiriladi.

6. Yaponiyada o‘z tashabbusi bilan malaka oshirgan o‘qituvchiga qo‘shimcha haq to‘lanadi.

7. O‘zbekistonda 12 yillik ta‘lim majburiy, bepul. Yaponiyada esa 9 yillik ta‘lim majburiy, bepul;

- Yaponiyada “Dzyuku” mahorat bosqichida o‘quvchi va talabalar qo‘shimcha tahsil oladilar.

9. O‘zbekistonda asosan oliy o‘quv yurtiga kirish uchun o‘quv markazlarida tashkil etilgan kurslarga va repetitorlarga qatnaydilar.

10. 2011 yildan boshlab Yaponiyada ingliz tili boshlang‘ich ta‘limda majburiy fan bo‘lib kiritildi.

11. 2013 yildan boshlab O‘zbekistonda ingliz tili boshlang‘ich ta‘limda majburiy fan bo‘lib kiritildi.

12. Yaponiyada katta o‘rta maktabning kunduzgi, kechki va sirtqi o‘qish turlari bor.

13. O‘zbekistonda barcha ta‘lim turlarida faqat kunduzgi o‘qish turi bor.

14. Har ikkala mamlakatda bakalavr darajasini olish uchun 4 yil oliygohda tahsil olishadi. (tibbiyot sohasi bundan mustasno.)
15. O'zbekistonda oliy o'quv yurti talabalarining barchasi stipendiya oladi.
16. Yaponiya oliy ta'limida stipendiya deyarli yo'q. 2011 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 2.880.000 yapon OO'YU talabalaridan atigi 100ga yaqini yapon hukumati stipendiyasini olishdi. Stipendiyani eng iste'dodli va eng kam ta'minlangan o'quvchiga qaytarish sharti bilan berishadi, bu stipendiya ta'lim harajatlarini to'liq qoplamaydi.
17. Yaponiyada xususiy ta'lim muassasalari juda ko'p, O'zbekistonda esa deyarli juda kam.
18. O'zbekistonda o'qish 2 sentabrdan boshlanadi, Yaponiyada esa 1 apreldan boshlanadi.
19. O'zbekiston umumiy o'rta ta'limida o'qish 4 chorak davom etadi, Yaponiyada esa 3 trimestrdan iborat.
20. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim (syogakko) 6 yoshdan 12 yoshgacha davom etadi, O'zbekistonda 7 yoshdan 11 yoshgacha.
21. Yaponiyada kichik o'rta ta'lim (tyugakko) da o'qish 12yoshdan 15 yoshgacha davom etadi, O'zbekistonda kichik o'rta ta'lim bo'linishi yo'q.
22. Yaponiyada katta o'rta ta'lim (kotogakko) da o'qish 15 yoshdan 18 yoshgacha davom etadi, O'zbekistonda bu ta'lim turi AL va KHKga to'g'ri keladi.
23. Yaponiya oliy o'quv yurtlarida erkin tinglovchilar va qo'shma talabalar bor. O'zbekistonda esa yo'q.
24. Yaponiya oliy ta'limi 4 ta ta'lim turini o'z ichiga oladi:
  - to'liq sikldagi universitetlar:(4 yil);
  - tezlashtirilgan universitetlar: (3 yil);
  - kasbiy kollejlari;
  - texnik institutlar.
- 25.O'zbekistonda 4 yillik universitet va institutlar bor. Kasbiy kollejlari OO'Yulari sirasiga kirmaydi.
26. Yaponiyada talabalarga stipendiya berilmaydi. Faqat eng iqtidorli va eng kam ta'minlangan talabalarga ozgina miqdorda beriladi.
  - O'zbekistonda talabalarning barchasiga o'zlashtirishiga qarab beriladi.

Oliy ta'lim bakalavr darajasini olish uchun 4 yillik o'qish belgilangan. Ba'zan ma'lum kasbiy darajani egallash uchun 6 yillik dastur tavsiya qilinadi. 2 tipdagi universitetlar mavjud: milliy universitetlar davlat universitetlari. YAponiyada kuchli 20talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir. Universitet tanlashda birinchi mezon-uning nufuzliligida. Bunday nufuzli OO'YU bitirgan esh yigit-qizlar darhol ishga olinadi. YAponiya universitetlarida o'quv jaraenini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi.3 Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk

ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa-talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi. Ko'plab universitetlar o'quv jarayonini semestr tizimi bo'yicha tashkil qiladi. Universitetda zacet birliklari tizimi tashkil qilingan. Unda auditoriya va laboratoriyada semestr davomida har hafta ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitiladigan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124dan 150 gacha zacet birliklarini to'plash lozim. Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zacet birligidan iborat bo'lgan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi. 3 yillik doktorlik dasturlari 50 zacet birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari yapon oliy o'quv yurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor. Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar. Yaponiya yoki chet el oliy o'quv yurtlaridan kelgan ko'chma talabalar bitta yoki qator ma'ruzalarda qatnashish yoxud magistratura va doktoranturadan ilmiy rahbarlikni olish uchun qabul qilinadilar. Tadqiqotchi talabalar (Kenkyu-sei) mazkur universitet professori rahbarligi ostida ma'lum ilmiy mavzuni o'rganish uchun bir yillik magistraturaga kiradi, lekin akademik daraja berilmaydi. Globallashuv davrida oliy ta'lim jamiyat hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan Yaponiyada oliy ta'lim tizimi juda qadrlidir. Yaponiyada oliy ta'lim 12 yillik boshlang'ich va o'rta ta'limdan keyin boshlanadi. Yaponiya oliy ta'lim muassasalariga universitetlar, kichik mutaxassis diplomini beruvchi 2 yillik kollej, amaliy va ijodiy ta'lim beruvchi texnologik kollejlari va kasbiy va amaliy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kollejlari kiradi.

*Oliy ta'lim bitiruvchilari quyidagi darajalarga ega bo'ladilar:*

Universitet	Bakalavr darajasi	4 yil
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	Magistrlik darajasi	2 yil
	Doktorlik darajasi	5 yil
Kollej	Kichik mutaxassis darajasi	2 yoki 3 yil

*Oliy ta'lim ta'sis etgan darajalar:*

Texnologik kollej	Kichik mutaxassis	5 yil
Maxsus maktab	Mutaxassis daraja	2 yoki 3 yil
	Yuqori malakali daraja	4 yil

Yaponiyada universitetlar quyidagi 3 ta kategoriyalarga bo'linadi:



1. Dastavval Yaponiya hukumati tomonidan, hozirgi kunda milliy universitet korporatsiyalari tomonidan joriy qilingan milliy universitetlar;

2. Jamoat universitet korporatsiyalari, mahalliy jamoat yuridik shaxslari, ta'lim korporatsiyalariga tegishli xususiy universitetlar tomonidan joriy qilingan jamoat universitetlari;

3. Xususiy universitetlar - umumiy universitetlar sonining 80% ni tashkil qiladi. Har bir xususiy universitet o'zining no'eb ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarini taklif etadi. Bu universitetlar Yaponiya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

Yaponida hozirgi kunda 1200 dan ziyod universitet va kollejlari bo'lib, unda 3.22 mln. talaba tahsil oladi. Yaponiyada barcha milliy universitetlar 2004 yildan boshlab korporatsiya sifatida qayta tashkil qilindi. Milliy universitetlarning bunday birlashuvi ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning yanada jonlanishiga olib keldi. Shuningdek, har bir milliy universitet moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo'ldi. 2004 yildan boshlab jamoat universitetlari mahalliy jamoat yuridik shaxslarga korporatsiyani o'z hohishiga ko'ra tashkil etish va boshqarish imkonini berdi. Milliy universitet korporatsiyalarini prezident boshqaruv tizimi boshqaradi, unda direktorlar kengashi mavjud bo'lib, boshqaruv va ta'lim uchun kengash organlari faoliyat yuritadi. Milliy universitet korporatsiyalari olti yillik davr mobaynida vaqtni hisobga olgan holda muvaqqat reja tuzishi kerak. Bunda Fransiya siyosatining Oliy ta'lim haqidagi siyosatida kuzatilganidek, oliy ta'lim haqidagi milliy siyosat va universitet mustaqilligi o'rtasida korporatsiya o'rnatish maqsad qilib olingan. Milliy universitet korporatsiyalarida shtat birligi masalalari prezident tomonidan hal etiladi. Lekin shunga qaramay, o'qituvchilar tarkibining bandligi bo'yicha har bir fakultet eki yo'nalish o'zi qaror beradi, prezident uni ma'qullaydi. Yaponiya xususiy universitetlarida talabalarning 80% tahsil olishadi va davlatning gullab-yashnashga o'z hissasini qo'shishadi.

Yaponiya ta'lim tizimidagi qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan xalqaro xorij universitetlariga talab kuchli. Shu bois Maorif, Sport, Fan va texnika vazirliklari universitetlarning ta'lim faoliyatini yaxshilash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirdi:

- *Sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi orqali Oliy ta'lim sifatini oshirish;*
- *Bakalavriat va magistratura sifatini yanada yaxshilash;*
- *Xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish;*

Yaponiya Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ma'lum muddat sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi barlashtirildi. - Ingliz tili sinflari (guruhlarini)ni tashkil etish; Yapon talabalar ingliz tilida kerakli bilimlarni olishi uchun, xorijlik talabalar Yaponiyada tahsil olishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida mashg'ulotlar ingliz tilida tashkil etildi, ingliz tilida kurslar ochildi. Yaponiyada ko'plab universitetlar allaqachon ingliz tilida dars o'tiladigan guruhlarini tashkil etgan. Undan tashqari 50 dan oshiq oliy ta'limdan keyingi ta'lim o'ynalishida mashg'ulotlar faqat ingliz tilida olib boriladi. "300 000 Xalqaro talabalar rejasi" tizimi Xalqaro talabalar almashinuvi nafaqat xalqaro raqobatbardoshlikni qo'llab quvvatlaydi, balki boshqa davlatlar bilan do'stlik va hamkorlikni rivojlantiradi. SHunga ko'ra yapon hukumati hozirgi kunga qadar

xalqaro talabalarni qabul qilish va yapon talabalarini chet davlat ta'lim muassasalariga katta e'tibor qaratib keldi.

1983 yil "100 000 xalqaro talabalarni qabul qilish rejasi" ishga tushdi, 2003 yil maqsadli 100 000 talaba tahsil olishga muvaffaq bo'ldi. 2008 yil 1 maydan boshlab chet ellik talabalar soni 123 829 taga etdi. 2008 yil iyul oyida jamiyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida Ta'lim, Madaniyat, Sport, Fan va texnika vazirliklari va boshqa muassasalar, manfaatdor agentliklar "300 000 chet ellik talabalar rejasi" tizimini ishga tushirdi. Bu rejani to'liq amalga oshirish muddati 2020 yil deb belgilandi.

Mazkur rejaga ko'ra "Global 30" loyihasini amalga oshirish maqsadida YAponiya universitetidan 30 tasi tanlab olindi, shulardan quyidagi 13 tasi markaz sifatida belgilandi:

Toxoki universiteti (Tohoky University)  
Sukuba universiteti (Tsukuba University)  
Tokio universiteti (Tokyo University)  
Nagoya universiteti (Nagoya University)  
Kioto universiteti (Kyoto University)  
Osaka universiteti (Osaka University)  
Kyusyu universiteti (Kyusyu University)  
Keyo universiteti (Keio University)  
Sofiya universiteti (Sophia University)  
Meydji universiteti (Meiji University)  
Vaseda universiteti (Waseda University)  
Doshisha universiteti (Doshisha University)  
Ritsmeykan universiteti (Ritsumeikan University)

Yaponiyada universitetni moliyalashtirish asosan 2 turda amalga oshiriladi: asosiy chiqimlarni moliyalashtirish, ayrim o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotlari uchun raqobatbardosh fondlar va talabalarga moliyaviy yordam. Milliy, jamoat va xususiy universitetlarni musobaqa asosida moliyalashtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

## NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini tushuntiring.
2. Yaponiyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, o'rta va katta maktab ta'lim tizimi, Davlat universitetlariga kirish qoidalari haqida ma'lumot bering.
3. Yaponiyada —Dzyuku to'ldiruvchi maktablarning mazmun mohiyatini bayon eting.

### **Topshiriq: Nuqtalar o'rnini to'ldiring.**

Yaponiya zamonaviy ta'lim tizimining tarixi **quyidagi ..... davrga** bo'linadi:

1. .... 1867-1885 yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'limning ilk tuzilishiga asos solingan.

**2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri.** ..... yillarni o‘z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta’lim yaratilgan.

**3. Tarqalish (.....) davri.** 1917-1936 yillarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimi bo‘yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.

**4.....** 1937-1945 yillar. Militaristik ta’lim tizimi.

**5. Zamonaviy davr.** .....hozirgi davrgacha ta’lim islohotlari. I davr (1868-1885).

### **I davr (.....)**

Bu davrda Yaponiya bilimsizlik davridan tamaddun va ma’rifat davriga o‘tish bilan xarakterlanadi. Yaponiyalik Fukudzava Yukiti butim millatni ta’lim va ma’rifat yo‘liga chorladi. U “bilimga chaqiriq” deb nomlangan nashrida konfusiylilik qadriyatlarini tanqid qiladi va g‘arb g‘oyalarini undan ustun qo‘ydi. Uning targ‘ibot ishlariga ko‘ra shu davming maktab dasturiga g‘arbgacha bag‘ishlangan darslar kiritiladi. Lekin uning fikriga qarshi chiquvchi konservatorlar Fukudzava Yukitining fikriga qarshi chiqadi, natijada jamiyat 2ga ajraladi. Har bir taraf ta’lim tizimining isloh qilish bo‘yicha o‘z qarashlarini himoya qiladi. Lekin yaponlar bunday murakkab holatda ham kompromiss-yechim topa oldilar. Natijada yetuk jahon ta’lim tizimi an’analari va Yaponiya ma’naviy qadriyatlarini birlashtirib, yangi ta’lim tizimini yaratdilar.

Yapon ta’limining mumtoz shakllanishi ..... yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o‘z oldiga qo‘ygan ikki qat’iy shiori bo‘lib, biri «Fukoku- kioxsi» — boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio» — ilg‘or G‘arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi bu ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta’lim tizimlarini tubdan o‘zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig‘ining bu xulosalari Yaponiyada 1872 yilda «.....» qabul qilinishiga olib keldi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta’lim tizimi o‘rnida mamlakat rivojlanishini ta’minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo‘nalishdagi 53750 ta boshlang‘ich 256 ta o‘rta maktab, 8 ta dorilfunun tashkil etildi. Bu o‘quv yurtlaridagi ta’lim shakllari ma’rifatli G‘arb ta’lim uslublari bilan uyg‘unlashtirildi, 1890 yilga kelib ilgari 3.4 yillik boshlang‘ich maktablar muntazam 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi.

### **II davr (1886-1916).**

..... kabinet tizimni tashkil etildi va Mori Arinori birinchi ta’lim vaziri bo‘ldi. U keyingi davr uchun maktab tizimining asosini yaratdi. Bu tizim komponentlari - boshlang‘ich, o‘rta, kasbiy, oliy tizim o‘zaro bog‘liq. Inoue Kovashi Moridan keyin ta’lim vaziri bo‘ldi. U boshlang‘ich maktab bitiruvchilari uchun xususiy kasbiy maktablar tizimini yaratdi. 1899 yildan keyin qizlar maktabi kengaydi. 1908yil majburiy ta’lim 6 oyga uzaytirildi.

### **III davr (.....)**

Rus revolyusiyasi va butun jahondagi demokratiya talablari Yaponiya siyosati va ta’lim tuzilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 1917yil huquqiy ta’lim bo‘yicha Favquloda kengash tuzdi. 1919 yil ushbu kengash tarqatilgunga qadar bir necha

ma'ruzalarni e'lon qildi. Bu ma'ruzalar XX asrning keyingi dekadasi ta'limning yoyilishiga asos bo'ldi. Kengash ayniqsa oliy ta'lim asosiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1918 yilgacha faqat Imperiya universitetlari mavjud edi. Lekin 1918 yilgi universitet qonuni xususiy universitetlarning paydo bo'lishlariga imkon yaratdi. Shunga bog'liq holda ko'pgina milliy, ijtimoiy va xususiy maktablar ham universitet maqomiga ko'tarildi.

#### **IV davr (1937-1945)**

Yaponiyaning hukmdor sinfi ultramillatchilik va militarizmni targ'ib qiluvchi yaponizm ideologiyasini vujudga keltirdi. .... butun ta'lim-tarbiya jarayonini xukumat nazorat qildi. Ta'lim vazirligi, mahalliy komitetlar ichki idoralar vazirligi, millatni nazorat qiluvchi tashkilotlarning bevosita nazorati ostida bo'ldi. Ta'lim vazirligi tomonidan chop etilgan geografiya, tarix fanlaridan darsliklar yangilariga almashtirildi. Natijada maktab militaristik ruhdagi yoshlarni tayyorlash quroliga aylandi. Yaponiyaning 2-jahon urushiga kirishishi bilan militaristik ta'lim yanada kuchaydi. Maktablarda yaponlarning irqiy ustunligi to'g'risidagi fashistik g'oyalari va o'sha asr samuraylarining xizmatga sadoqat, "....." g'oyalari yanada kuchli singdirila boshlandi.

#### **V davr (.....).**

Ta'lim tuzilishining ikkinchi islohi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Okkupatsion davlatlar militaristik ta'limni bekor qildi va tinch demokratik an'analarga asoslangan yangi ta'lim tizimini joriy qildi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimi o'rnatildi. Unga ko'ra universitetga kirish uchun o'rta maktabni va universitet qoshidagi tayyorlov maktablarini tugatish lozim edi. Zamonaviy ta'lim tizimiga ko'ra 6 yillik boshlang'ich maktabda majburiy ta'lim, 1-bosqich o'rta maktabda 3 yil, 2-bosqich o'rta maktabda 3 yil keyin universitetda tahsil olish kerak. Faqat o'quv kalendari o'zgarishiga yaponcha: o'quv yilining boshlanishi 1-aprelga to'g'ri keladi. 1952 yil 28 aprelda San-Fransiskoda tinchlik bitimiga qo'l qo'yilib, Yaponiyaga suverenitet qaytarilgach, ta'lim islohotlari qat'iy ko'rib chiqildi va asosiy e'tibor an'anaviy yapon qadriyatlarini saqlashga qaratildi. Masalan, yana qayta ma'naviyat darslari tiklandi, milliy ta'limga ma'naviy asos qaytarildi.

1908-yildan boshlab Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O'quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo'ldi. 1893-yildan e'tiboran Yaponiyada kasb yo'nalishidagi dastlabki kollejlarni paydo bo'la boshladi. Birinchi dorilfunun 1886-yilda .....da tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham dorilfununlar tashkil etildi. Lekin bu bilim maskanlarida xotinkizlar uchun faqat xo'jalik yuritish, oila iqtisodiyotidagina ta'lim berilardi. 1897-yilda Kiatoda ikkinchi dorilfunun ochildi.

Ikkinchi jahon urushida Yaponiya mag'lubiyatga uchraganidan keyin mamlakat maorifi tizimlariga Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tamoyillari kirib kela boshladi. 1946-yilda qabul qilingan Konstitutiya Yaponiya fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda «Layoqatiga ko'ra barcha fuqarolar bilim olish huquqiga ega. Barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart» ekanligi belgilab qo'yilgan. ....-yilda qabul qilingan «Ta'lim haqida Qonun» Yaponiya Konstitutiya ruhiga uyg'un bo'lib, mamlakatda

ta'limning maqsad va vazifalarini to'la ifoda etadi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: «Biz shaxsiy g'ururi bor, o'zining qobiliyati va imkoniyatiga ishonuvchi, haqiqat va tinchlikni sevuvchi odamlarni tarbiyalaymiz, toki ular ko'p qirrali madaniyat sohibi bo'lsinlar». Shunday qilib, Yaponiyaning Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi boshqaruvi hozirgi paytda qat'iy markazlashdi, ilg'or xalqaro standartlar darajasidagi yapon ta'lim tizimlari qaror topdi.

### TA'LIM TIZIMINING TARKIBI

Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha:

**-bolalar bog'chalari;**

.....;

**-kichik o'rta maktab;**

.....;

**-oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari.**

№	Atama	Mazmuni
1.	<b>Tanki-daygaku</b>	Yaponiyada kichik kollejlari
2.	<b>Konsolidatsiya</b>	
3.	<b>Syogakko</b>	
4.	<b>Tyugakko</b>	
5.	<b>Dzyuku</b>	
6.	<b>Kotogakko</b>	
7.	<b>Fukoku- kioxsi</b>	
8.	<b>Gakushi</b>	
9.	<b>Ekspansiya</b>	
10.	<b>Hoikuen</b>	

## 7-mavzu: Xitoy ta'lim tizimi.

### Mavzu rejasi:

1. Xitoy ta'lim tizimining asosiy jihatlari.
2. Xitoyda maktabgacha ta'lim va tarbiya. Boshlang'ich ta'lim. O'rta va kasbiy ta'lim.
3. Xitoyda oliy ta'lim sistemasi. Maxsus ta'lim. Masofaviy ta'lim. Kattalar uchun ta'lim.
4. Xitoy ta'lim tizimini boshqarish masalalari. Boshqaruvning qonuniy asoslari. Ustoz – buyuk siymo.
5. O'zbekiston – Xitoy ta'lim tizimining qiyosiy tahlili.

**Tayanch so'z va iboralar:** Xitoy, maktabgacha ta'lim va tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta va kasbiy ta'lim, oliy ta'lim sistemasi, maxsus ta'lim, masofaviy ta'lim, kattalar uchun ta'lim, Konfutsiy, putunxua, "Pavlov yondashuvi", INTERNET va CERNET, o'qitishning kredit tizimi.

## Xitoy ta'lim tizimining asosiy jihatlari.

Xitoy maktablarining tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi xitoy faylasufi va pedagogi eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yashagan Konfutsiy qator ajoyib pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy o'qitishga asos solgan.

1949- yilda xalq inqilobi g'alaba qozonganidan so'ng Xitoyda savodsizlikni tugatish va maktab ta'limini rivojlantirish borasida keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Xalq ta'limini isloh qilishdagi qarorda bolalar va o'smirlar uchun ham, kattalar uchun ham boshlang'ich hamda o'rta maktablar tarmog'ini yaratish ko'zda tutilgan edi. Islohotga muvofiq o'qish muddati boshlang'ich maktabda 5 yil, o'rta maktabda 6 (3-3) yil qilib belgilandi. Ta'lim sohasida 1958- yildagi o'zgartirishlar yaxshi natija bermadi.

XKP MK ning 1985 yil 27 mayda qabul qilgan "Ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risida" gi qarori hozirgi bosqichda XXR ta'limini rivojlantirishning muhim omili bo'ldi. 1986 yilda qabul qilingan majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonunga ko'ra majburiy ta'limning muddati boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktabda 9 yil, to'liq o'rta maktabda 3 yil qilib belgilandi. Xitoy maktablarida ta'lim **putunxua** tilida olib boriladi. U xitoy tilining pekin shevasiga asoslangan. Xitoydagi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog'chalarida tayyorlanadilar. Xitoyda so'nggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo'lishi siyosati yurgizilishi sababli o'quvchilar soni ancha kamaydi.

Boshlang'ich maktab o'quv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, jamiyat (tarix, geografiya) tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiiy tarbiya, mehnat ta'limi kiritilgan. Ana shu asosiy o'quv predmetlaridan tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga (1-2 soat), sinf majlislari o'tkazishga 1 soat, sport o'yinlariga (2-3 soat), qiziqishlar bo'yicha mashg'ulotlarga (2 soat) ajratiladi.

Xitoyda oliy ta'lim jarayonida talabalar uchun ibratli shart-sharoitlar yaratilgan. Avvalo universitetlar kontingentiga mamlakatning demografik holati o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan: birgina Shanxay universitetining o'zida 26 fakultet bo'lib, 33 000 talaba bakalavriat va magistraturada o'qiydi. Ko'pchilik professor-o'qituvchilar AQSH da malaka oshirib kelishadi.

## Xitoyda ta'lim tizimi



Hozirgi kunda universitetda “Zamonaviy kommunikatsion va axborot texnologiyalari”, “Raqamli tizimlar xavfsizligi”, “Kompyuter grafikasi va WEB dizayn” kabi fanlar o‘qitilmoqda. Oliy ta’lim tizimida o‘qitishning kredit tizimi joriy etilgan. Bu omil talabalarning mashg‘ulotlarga qatnashishi, mustaqil ishlashi va ilmiy izlanishga jalb etilishiga ijobiy ta’sir etgan. o‘qitishning kredit tizimida bakalavr diplomiga ega bo‘lish uchun jami 311 kredit yig‘ishi kerak. Har bir kredit 10 soat ma’ruza darslari davomida to‘planadi. Amaliy darslardan 20 soat mashg‘ulotda 1 kredit to‘planadi. Talabalar o‘qishni 4 yilda tugatishi shart emas. Lekin 8 yildan ortiq o‘qish ham mumkin emas. Agar talabalar kreditlarning 80 % ini to‘plasa, bakalavr diplomiga ega bo‘ladi. Davomatga alohida e’tibor beriladi, agar talaba 1 fan bo‘yicha mashg‘ulotlarning 3/1 qismini qoldirsa (agar kasallik varaqasi bo‘lsa ham), o‘z- o‘zidan imtihonga kiritilmaydi va shu fan bo‘yicha kreditni bajara olmaydi. Natijada talaba oliy o‘quv yurtidan ketadi va kelgusi o‘quv yilida shu fanni o‘qishga va kredit to‘plashga majbur bo‘ladi.



Talabalarga fanlarni tanlab o‘rganish uchun katta imtiyozlar berilgan. Masalan: fizika fakultetining talabasi matematika va mexanika fakultetlaridan o‘zini qiziqtirgan fanlarini tanlab o‘qishi mumkin. Universitetlar ilmiy tekshirish muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqaga ega.

Universitetlarga ixtisosliklar bo'yicha kichik ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Amaliy mashg'ulotlar bevosita ana shu korxonalarda olib boriladi. Talaba bironta sxema, loyiha yoki detalni o'z quli bilan yasab ko'rsatishi kerak. Laboratoriya mashg'ulotida tayyorlangan mahsulot umumiy texnikaviy nazoratdan o'tgach, o'quv topshirig'i bajarilgan hisoblanadi. Oxirgi kurslarda ishlab chiqarish korxonalaridan, muassasalardan vakillar kelib, suhbat asosida bo'lajak mutaxassis – talabani tanlab oladi va oliy ta'lim muassasasiga shartnoma asosida pul o'tkazadi. Bunday omil imkon qadar talabalarning o'zi egallayotgan ixtisoslikning malakali sohibi bo'lishiga undaydi.

### **Xitoyda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim.**

Xitoyda maktabgacha ta'lim bolalar bog'chalari va maktabgacha ta'lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta'limining maqsadi bolani maktabga o'qishiga tayyorlashdan iborat. Mamlakatda 150 mingdan ziyod bolalar bog'chasi mavjud bo'lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo'lingan. Hozirgi kunda xususiy bog'chalar soni jami bolalar bog'chalarining 30 %ini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim Xitoyda jamiyatning birgalikdagi say-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mavjud qonunlar asosida bolalar bog'chalarini ochishga xohishi bo'lgan tashkilotlar, nodavlat-notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo'llab-quvvatlaydi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushiga qadar Xitoyda bolalar bog'chasi juda kam edi. Bori ham xususiy muassasalar bo'lib, unga boy oilalarning bolalari enagalari bilan kelishardi. Urushdan keyingi yillarda XXRning maktabgacha ta'lim tarixi davlatlarining asosiy rivojlanishiga mos holda 4 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchisi: 1949 – 1957 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davlat tizimining sobiq Ittifoq tizimiga oriyentatsiyalangan davri edi. Bu davrda sobiq Ittifoq mutaxassislari Xitoy mamlakatida bir necha tajriba bolalar bog'chalarini tashkil qildilar. Shundan keyin bolalar bog'chalari soni keskin ortdi. Bu bog'chalarning asosiy tamoyili "Pavlov yondashuvi" deb nomlanib, refleksiologiya asoslarini ishlab chiqqan rus olimi I.P.Pavlov nomiga qo'yilgan edi. Pedagogikada "Pavlov yondashuvi" quyidagicha talqin qilinardi: "Bolani rag'batlantirib, tergap to'g'ri tarbiyalasa, unda barcha yaxshi xislatlar va qobiliyatlarini shakllantirish mumkin"

Ikkinchisi: 1958-1965 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda bolalar bog'chalari soni keskin ortdi, lekin ular uchun joy, moddiy ta'minot va mutaxassislar yetishmas edi. Natijada maktabgacha ta'lim sifati nisbatan pasayib ketdi.

Uchinchisi: 1966-1976 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillar "Xitoy" madaniy revolyutsiyasi yillari deb ataldi, ziyolilar, beklarni ommaviy qatag'on qilinishi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Xitoy ta'lim tizimida ilmsiz, kasbiy noloyiq kimsalar ko'paydi, natijada maktabgacha ta'lim tizimi juda nochor holga kelib qoldi. Bolalar bog'chasida hayot qattiq g'oyaviy ko'rsatmalar asosida tashkil qilinardi: bolalarga revolyutsion va militaristik g'oyalar singdirilardi, Maoning asarlari va she'rlaridan parchalar yodlatishardi.



To'rtinchisi: 1980-yillardan boshlab, Xitoy iqtisodiyotining o'zgarishiga ko'ra bolalar bog'chalarida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Xitoy pedagoglari Amerika va Yapon maktabgacha ta'lim tarbiyasi bilan qiziqqa boshladilar. Lekin bog'chalarda hanuzgacha tarbiyaga avvalgiday yondashuv mavjud.

Xitoyda bolalar bog'chasi katta bo'lib, o'rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo'lib, ularning bir qismi bog'chada kunduzgi soat 8:00 dan 18:00 gacha bo'ladilar va kechqurun uyga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uyga ketadilar. Bog'chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi. Ma'lumki, Xitoy aholisi juda ko'p davlat. Shu bois ham Xitoy davlati tug'ulishni rejalashtirish sohasida qat'iy siyosat olib boradi. Har bir oila bittadan ortiq bola ko'rmasligi kerak. Oilada bola sonining chegaralanganligi ota-onaning bolaga munosabatida o'z ifodasini topadi. Xitoy oilasida bittayu-bitta bolasini erkalatadi, yaxshi ta'lim berishga harakat qiladi. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkliklari ta'qiqlanadi. Tarbiyachilar bolalarning shaxsiy xususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu xususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi.

Bola o'z aybini tushungachgina, tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urish, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu – taqqoslash va rag'batdir.

Tarbiyachilar bolalarga quyidagi savollarni beradilar:

- Shunday qilsa to'g'ri bo'ladimi?
- Nega noto'g'ri deb hisoblaysiz?
- To'g'ri bo'lishi uchun nima qilish kerak?
- Kim to'g'ri qildi?

Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi.



Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy *“Bolalar to‘g‘ri intizomli bo‘lib tug‘ilmaydilar: ularning xarakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to‘g‘ri tarbiyaga mas‘uldir. Tarbiyachilar o‘ta bosiq, qat‘iyatli bo‘lishlari lozim”*, - deb ta’kidlagan. Xitoy maktabgacha ta’lim tizimini qattiqqo‘lligi uchun tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg‘ulotlarda nafaol, kattalar fikriga mutlaq qo‘shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilarni o‘z kasbining ustalari deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to‘liq ishonishadi. Xitoy bolalaridagi qat‘iylik va mehnatsevarlik an’anaviy fazilatlariga aylangan.

## **Boshlang‘ich ta’lim.**

Xitoyda har bir 6 yoshga to‘lgan bola boshlang‘ich ta’limni umumta’lim maktablarida oladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish 6 yil davom etadi va keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam asos qo‘yiladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan asosiy fanlar sirasiga axloqiy tarbiya, xitoy tili, adabiyoti, siyosat, matematika, tabiiyot fanlari, jismoniy tarbiya, fizika, ximiya, biologiya, tabiatshunoslik, san‘at, mehnat, 3-sinfdan boshlab chet tilli kabi fanlar kiradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga vatanga, xalqqa, mehnatga, ilm-fan va o‘zlarida mavjud bo‘lgan sotsialistik tuzumga mehr-muhabbat tuyg‘usi singdiriladi. O‘qish, yozish, hisoblash, tabiat va jamiyat haqidagi boshlang‘ich bilimlar beriladi, mustahkam o‘quv malakalari hosil qilinadi, o‘quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga katta e’tibor beriladi. Fanlar ichida ona tili va matematikaga alohida urg‘u beriladi.



Shuningdek, o'quvchilar 4-sinfdan boshlab, 1 yilda 2 hafta ferma va ustaxonalarda ishlaydilar, hamda haftaning 1 kuni albatta sinfdan tashqari tadbir va jamoat ishlarida qatnashadilar.

2007 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra Xitoyda 400 ming boshlang'ich maktab mavjud bo'lib, unda 120 milliondan ortiq o'quvchilar boshlang'ich ta'lim olmoqda. Bu 99,52% ni tashkil etadi.

XXRning "Majburiy ta'lim haqidagi Qonun"iga ko'ra ta'lim bepul, faqat o'quv darsliklari, daftar va o'quv qurollari uchun haq olinadi, xolos. Bepul ta'lim hisoblangan boshlang'ich ta'lim muassasalari davlat tasarrufida bo'lib, o'quvchilar yashash manziliga ko'ra qabul qilinadi.

### O'rta va kasbiy ta'lim.

Xitoyda o'rta ta'lim to'liqsiz va to'liq (katta) maktab bosqichlaridan iborat. O'quvchilar 12-13 yoshga to'lgach, to'liqsiz o'rta maktabda, ya'ni o'rta maktabning birinchi bosqichida o'qiy boshlaydilar. O'qish uch yil davom etadi. Birinchi bosqichda o'qitiladigan asosiy fanlar sirasiga ona-tili, matematika, chet tili, informatika, ma'naviyat, etika, fizika, ximiya, siyosiy savodxonlik, geografiya kabi fanlar kiradi. To'qqizinchi sinf -Xitoydagi majburiy ta'limning oxirgi bosqichidir. 2007 yilgi statistik ma'lumotlarga qaraganda o'rta maktabning birinchi bosqichiga 98% bolalar qabul qilinadilar.

O'rta maktabning ikkinchi bosqichi to'liq o'rta maktab (katta maktab) hisoblanadi. Bu bosqichga qabul qilingan o'quvchilar 15-16 yoshda bo'ladilar. Ikkinchi bosqich o'rta maktablari va oliy o'quv yurtlarida o'qish Xitoy fuqarolari uchun majburiy emas. Bu bosqichda to'liq o'rta ta'lim beriladi va o'quvchilar oliy ta'limda o'qishni davom ettirish imkoniga ega bo'ladilar. To'liq o'rta maktabni bitirgan o'quvchilar bitiruv imtihoni topshiradilar, imtihon natijalariga ko'ra u yoki bu universitetga kirish imkoni belgilanadi.

Xitoydagi umumta'lim o'rta maktablarning vazifasi – yaxshi ishchini, yoki oliy o'quv yurtiga kirishi uchun yaxshi tayyorlangan abituriyentni shakllantirishdir. **Kasbiy ta'lim.** O'rta kasbiy – texnik ta'lim umumiy ta'limga alternativ hisoblanadi. 1996 yil qabul qilingan XXRning "Kasbiy ta'lim haqidagi Qonuni"da kasbiy ta'limning ahamiyati, tuzilishi, asosiy vazifalari, boshqaruv tizimi va moliyaviy manbaalari aniq ko'rsatilgan. Ushbu hujjatning qabul qilinishi Xitoyda kasbiy ta'limning huquqiy asosiga egaligini ko'rsatadi.

Kasbiy ta'lim tizimiga oliy va o'rta kasbiy maktablar, o'rta texnikumlar, kasbga yo'naltirilgan o'rta maktablar, kasbiy tayyorgarlik markazlari, kattalar uchun texnik tayyorlash maktablari, kasbiy texnika bilim yurtlari, tayyorlov markazlari, jamoatchilik kurslari kiradi. O'qish muddati 2dan 4 yilgacha, ba'zi mutaxassislar (masalan tibbiyot) 5 yilgacha davom etadi. O'rganiladigan fanlar tanlangan mutaxassislikka to'liq mos keladi. O'qish tugagach, bitiruvchilar tanlangan kasbga ko'ra taqsimot bo'yicha ish bilan ta'minlanadilar.

Kasbiy ta'lim rivojlanish sur'atini tezlashtirishi uchun g'arbiy rayonlarning kambag'al uездlarida davlat mablag'i asosida 186 ta kasbiy tayyorgarlik markazlari yaratilgan.

XXRdagi oʻrta maktabning ikkinchi bosqichiga yana bir nazar tashlaydigan boʻlsak, uning quyidagi turlarini koʻrishimiz mumkin:

1. Oddiy oʻrta maktab;
2. Kattalar uchun oʻrta maktab;
3. Oʻrta maxsus oʻquv muassasasi;
4. Kasbiy maktablar;
5. Texnikumlar;
6. Kattalar uchun oʻrta maxsus oʻquv muassasasi.

Oddiy toʻliq oʻrta maktabga 15-16 yoshlilar qabul qilinadi va 3 yil davom etadi. Oʻrta kasbiy bilim yurti 2 ta bosqichga boʻlinadi: toʻliqsiz oʻrta maktab 15-16 yoshli oʻquvchilardan iborat boʻlgan bilim yurtlari uchun oʻqish muddati 4 yil, baʼzi bilim yurtida 3 yil. Toʻliq oʻrta maktabning 22 yoshli oʻquvchilaridan iborat bilim yurtlari uchun oʻqish muddati 2 yil. Toʻliqsiz oʻrta maktab bitiruvchilari kasbni 3-4 yilda oʻrganadilar. Texnik bilim yurtlarida oʻqish muddati 3 yil. Umumtaʼlim oʻrta maktablarining vazifasi boʻlajak ishchilarni tayyorlash hamda oliy oʻquv yurtlariga kirish uchun abituriyentlarni tayyorlashdan iborat. Oʻrta maktab dasturlari oʻquvchilarga taʼlim berish bilan birga axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik tarbiyalashga qaratilgan. Koʻp maktablarda kasbiy taʼlim kurslari mavjud.

Oʻrta kasbiy taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan fanlar moliya, tibbiyot, qishloq xoʻjaligi, texnika, turizm kabi tanlangan mutaxassislikka bogʻliq. Bu kasblar boʻyicha taʼlim olgan bitiruvchilar kasbiga koʻra turli muassasalarga ishga taqsimlanadilar. 2007 yil statistik maʼlumotlarga koʻra oʻrta maktabning ikkinchi bosqichiga 66 % bolalar qabul qilinadi.

Yuqorida taʼkidlanganimizdek, kasbiy – texnik yoʻnalish bir necha bosqichli oʻquv muassasalaridan iborat: maxsus texnik, texnik, kasbiy va qishloq xoʻjalik maktablari. Maxsus texnik maktablarda oʻqish muddati 4 yil. Kasbiy va qishloq xoʻjalik maktablarida oʻqish 3 yil boʻlib, ular kamroq eʼtiborga loyiq. Oʻqish sentabrda boshlanadi va 9,5 oy davom etadi, 2 ta semestr dan iborat. Taʼtil kunlari yanvardan fevralgacha, iyundan avgustgacha davom etadi. Mashgʻulotlar haftada 5 kun ertalabdan tungacha boʻladi.

Oʻrta maktabning akademik yoʻnalishi boʻyicha oʻqish davomida turli turdagi imtihonlar, yakunida – bitiruv imtihonlari topshiriladi. Maktab taʼlimi haqida attestat olish uchun xitoy tili, matematika, chet tili, fizika, ximiya, siyosatshunoslik, tarix, geografiya, informatika, biologiya fanlaridan imtixonlar topshiradilar. Yagona bitiruv maktab imtihoni (Rossiya EGEsiga oʻxshagan) butun davlat boʻyicha may oyida oʻtkaziladi. Bitiruvchilar bilimlarini baholash 100 balli tizim asosida baholanadi. Oliy taʼlimning muhim qismi boʻlgan va yuqori bosqichdagi oʻrta taʼlim bazasida amalga oshirilayotgan kasbiy oliy taʼlim hozircha rivojlanishning boshlangʻich bosqichida turibdi. U 87 ta kasbiy-texnik institutlarda, qisqa muddatli kasbiy universitetlarda, maxsus texnikumlarda, qayta qurishni amalga oshirayotgan oʻnlab oliy maxsus oʻquv yurtlarida, kattalar uchun 188 mutaxassislik boʻyicha 133 ta oliy oʻquv yurtlarida taxsil oladilar. Undan tashqari 18 ta oʻrta texnikumda oliy kasbiy taʼlim guruhlarini kiritilgan. Bu oliy kasbiy oʻquv muassasalari amaliy va texnologik sohadagi malakali texnik ishchilarni tayyorlaydi.

Kasbiy ta'limni rivojlantirish dasturiga ko'ra, Xitoy yaqin kunlarda oliy kasbiy ta'lim tizimini isloh qilishni tezlashtiradi, oliy kasbiy maktablarni tartibga soladi. Hozirgi kunda Xitoyda 3026 ta o'rta kasbiy maktab mavjud. Kasbga yo'naltirilgan to'liq o'rta maktab 1980 yillarning boshida tiklangan va milliy iqtisodiyotni ko'tarish talablariga javob berib rivojlana bordi. Hozir 8500 ta shunday maktablarda 4 mln. kishi o'qiydi. Hozirgi kunda 17 ming kasbiy o'quv yurtlari, 2090 kasbiy tayyorgarlik markazlari, 400dan ortiq malaka oshirish markazlari, kattalar uchun texnik tayyorgarlik kurslari mavjud. Har yili 10 millionlab kishilar bu yerda tahsil oladilar. Bu Xitoyda asosan yuqori, o'rta, boshlang'ich bosqichlardan iborat bo'lgan kasbiy ta'lim tizimi shakllanganligini bildiradi.

### **OLIY TA'LIM**

Xitoyda oliy ta'lim tizimi o'z ichiga universitet, kollej va oliy kasbiy maktablarni oladi, hamda o'zining nufuziga ko'ra bir necha iyerarxik kategoriyalarga bo'linadi. Maktab bitiruv imtihonlarida olingan ballarga ko'ra bitiruvchilar oliy o'quv yurtlarining yuqori yoki quyi toifalariga nomzod bo'la oladilar.

Xitoy universitetlariga kirish qat'iy raqobat sharoitida o'tadi: ba'zi universitetlarda bitta o'ringa 200-300 kishi to'g'ri keladi. Xitoyda, xuddi G'arb davlatlaridagi kabi uch bosqichli standart tayyorlov bosqichi mavjud. Bular: bakalavriat – o'qish muddati 4-5 yil. Bu bosqichni tugatganlar “Bakalavr” maqomi bilan tugallangan oliy ta'lim oladilar. Magistratura – o'qish muddati 2-3 yil. Doktorantura – o'qish muddati 2-3 yil, ba'zan 4 yil.

Oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifalari yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, fan, texnika va madaniyatni rivojlantirishdir. Hozirgi paytda davlat “Dastur - 2011”ni amalga oshirishga katta yordam bermoqda. Bunga ko'ra 100 ta muhim oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan zarur fanlar va mutahassisliklar qatorida o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va xo'jalik faoliyatlari eng yuqori darajasiga chiqishi kerak.

Keyingi yillarda iqtisodning modernizatsiyalash talablarini to'liq qondirish maqsadida o'quv mutaxassisliklari ro'yxati qayta ko'rib chiqildi; moliya va iqtisodiyot, siyosat va huquqiy fanlar, iqtisodiyot boshqaruvi, mashinasozlik, arxitektura, elektronika, EHM, yengil oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatiga urg'u berildi.

Xitoyda 2 ming OO'YU'lari mavjud. Birinchisi Pekinda joylashgan Tsinghua universiteti kabi politexnik universitetlar, ikkinchisi Xefey shahridagi Ilmiy-texnika universiteti kabi oliy o'quv yurtlaridir. Bularga ko'plab texnik va tabiiy fakultetlardan iborat oliy o'quv yurtlari, hamda tor bitta soha texnik institutlari kiradi.

Umumiy sohalardagi universitetlar 2 ta yo'nalishdagi fakultetlarga ega: gumanitar va aniq. Gumanitar fakultetlar til, adabiyot, tarix, falsafa, iqtisodiyot, huquqshunoslik va boshqa fanlarga asoslangan.

Aniq fanlar yo'nalishi: matematika, fizika, ximiya, biologiya, geografiya, geologiya, radioelektronika va boshqa fanlarga asoslangan. Umumsoha universitetlariga Pekin, Nankay (Tyan'zin shahri) va Fiden' (Shanxay shahri) universitetlari misol bo'la oladi. Davlat oliy o'quv yurtlariga qabul yagona reja

asosida amalga oshiriladi. 2007 yilgi statistika ma'lumotlariga ko'ra oliy o'quv yurtlariga aholining 23 % topshiradi. Davlat bitiruvchilariga yagona reja asosida ish beriladi. Umumsoha oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 4 yil. Ba'zi sohalar, jumladan, tabiiy fanlar, texnik, tibbiyot bo'yicha – 5 yil. Tor sohali oliy o'quv yurtlarida o'qish qisqa muddatli bo'lib, 2-3 yilni tashkil etadi. Bitiruvchilarga bakalavr darajasi beriladi.

Aspirantlarni tayyorlash 2 qismga bo'linadi: magistr ilmiy darajali mutaxassis va fan doktori ilmiy darajali mutaxassis. I kategoriyadagi aspirantlar yoshi 40dan oshmaydi, o'qish 2-3 yil davom etadi.

Ikkinchisi – 45 yoshdan oshmaydi, o'qish muddati 3 yil. Xitoyda oliy ma'lumotga ega bo'lish juda ham obro'li sanaladi. Milliy kadrlar tizimi orasida ta'lim eng yetakchi o'rinni egallaydi.



Oliy ta'lim olishga akademik profildagi o'rta maktab bitiruvchilari va maxsus texnik maktab bitiruvchilari haqli. Maktab bitiruv imtixonida to'plangan ball natijalariga ko'ra oliy ta'limga kirish imtihonlariga kiritiladi. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun abituriyent 7 ta fan bo'yicha maxsus imtixon topshiradi. Xitoyda pulli oliy ta'lim muassasalari ko'p, lekin shartnoma asosida o'qishga kirish ham juda qiyin. Iqtidorli yoshlar uchun tekin o'qish imkoniyati bor. Undan tashqari, ba'zi fanlarda talaba ishlagan muassasa o'qish uchun pul to'laydi. Iqtidorli talabalar davlat stipendiyasi yoki tashkilot va muassasa subsidiyalari ko'rinishidagi imtiyozlarga ega.

Hozir barcha talabalar bir xil tartibda o'qishga qabul qilinadilar va o'qishga pul to'laydilar. Moliyaviy qiyinchilikni boshidan kechirayotgan talabalarga bank krediti ajratilib, stipendiya beriladi. Faqat 1998 yilning o'zida 8957 ta tadqiqotchiga doktor ilmiy darajasi berildi, 38051 ta kishi magistr bo'ldi. Xitoy o'z Oliy o'quv yurtlariga chet ellik talabalarni qabul qiladi, o'z talabalarini chet elga o'qishga va malaka oshirishga jo'natadi. Birgina 1998 yil Xitoy 164 ta davlatdan 43084 talabani o'qishga qabul qildi. Xitoydan chet elga o'qishga ketgan talabalar soni 23 mlanni tashkil etdi. Xitoy Oliy o'quv yurtlari 3/2 qismi davlat tasarrufida, qolgan 1 qismi xususiy bo'lib, hozirgi kunda 3 mingta Oliy o'quv yurtlarida 20 million talaba tahsil olyapti.

### MAXSUS TA'LIM

Xitoyda maxsus ta'limga katta ahamiyat beriladi. Nogironlar ta'lim olish huquqini kafolatlovchi qonun va ko'rsatmalar qabul qilingan. Hozirgi kunda 1655 ta maxsus ta'lim o'quv muassasasida 365 mingdan ortiq kishi tahsil oladi.

**Masofaviy ta'lim.** Hozirgi kunda Xitoyda onlayn universitetlar ko'p. Oliy ma'lumotni masofaviy ta'lim orqali, uydan chiqmay o'tirib ham olish mumkin.

Masofaviy ta'lim sekin-asta keng rivojlanib bormoqda. Masofaviy ta'limdan uzoq rayonlarda yashovchi talabalar eng katta foyda ko'radilar. Kirish imtihonlaridan yiqilgan talabalar ham ta'lim va kasbiy tayyorgarlik oladilar.

**Kattalar uchun ta'lim.** Xitoy Xalq Respublikasining ilk tashkil topgan yillari savodsizlar soni aholining 80%ini tashkil etgan paytlarda, xalq hukumati "savodxonlikka o'rganish, savodsizlikni yo'q qilish"ga chorladi. Shundan beri kattalar uchun ta'lim keng yoyildi. Kattalar uchun ta'lim madaniy bilimlarni ish bilan band bo'lgan kishilar orasida ommalashtirish, ishsizlarni kasbiy tayyorlash, savodsizlikni bartaraf etish, ma'lum bilimga (jumladan oliy) ega, lekin uzoq davom etuvchi ta'lim yoki bilimlarni to'ldirish uchun joriy etilgan.

Kattalar uchun ta'lim tizimiga radio – va teleuniversitetlar, ishchilar, xodimlar va dehqonlar uchun oliy o'quv yurtlari, boshqaruv kadrlari uchun institutlar, pedagoglar uchun institutlar, sirtqi institutlar, oliy o'quv yurtlari qoshida kattalar uchun ta'lim kurslari (masalan, sirtqi, kechki kurslar, o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursi), masofaviy ta'lim kursi va boshqalar; ishchilar va xizmatchilar uchun o'rta maxsus kurslar, kattalar uchun o'rta maktab va texnik tayyorgarlik o'rta maktablari, kattalar uchun o'rta maxsus maktablar yoki o'rta umumta'lim maktablari qoshida dehqonlar uchun madaniy – texnik maktablar, dehqonlar uchun radiotelemaktablar va h.k.

Kattalar uchun ta'lim tizimi quyidagi shakllarda amalga oshadi; to'liq o'quv kuni bilan auditoriya ta'limi, audio-vizual o'quv qo'llanma ta'limoti bilan sirtqi ta'lim, ishlab chiqarishdan qisman yoki to'liq ajralgan holdagi ta'lim, kechki ta'lim va h.k.

Kattalar uchun ta'lim maqsadiga ko'ra 2 ta toifaga bo'linadi: ta'lim olganligi haqida attestat berish yoki bermaslik.

Birinchi toifaga to'liq muddatli oliy o'quv yurtlari kursi, ta'limning qisqa muddatli kursi, o'rta maxsus va o'rta umumta'lim.

Ikkinchi toifaga savodsizlikni bartaraf qilish kurslari, amaliy texnologiyalarni qishloqlarda yoyish bo'yicha alohida fanlarni o'qitish kurslari, oliy ta'limdan keyingi kurslar.

Oliy ta'lim barqaror rivojlanmoqda. 2003 yil oxirida Xitoyda 19 million talaba tahsil oldi. Aholini oliy ta'lim bo'yicha qamrab olish koeffitsienti 17 %ni tashkil etadi. Xalqaro tan olingan standartlarga ko'ra, Xitoy ommaviy ta'lim bosqichiga o'tdi. 2003 yil 23 iyunda YUNESKOning "dunyoda oliy ta'lim sohasidagi holati haqida"gi ma'ruzasida ko'rsatilishicha, Xitoy oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilar soni juda qisqa muddat ichida 2 martagacha oshdi, oliy ta'lim ko'lami bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turibdi. Ko'p yillar davomida oliy o'quv yurtlariga qabul kengaymoqda. 1999 – 2002 yil oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalar soni 3,2 millionga yetdi. 2003 yil 3,82 million talaba qabul qilinib, o'tgan yilgidan 620 ming talabaga ko'paydi. Oliy o'quv yurtlari aspiranturasi va tadqiqot institutlariga 269 ming tadqiqotchi qabul qilinib, 2003 yilga nisbatan 66 ming tadqiqotchiga ko'paydi. 2004 yil davlat rejasiga ko'ra 230 ming tadqiqotchi qabul qilish kutilmoqda. Bu esa 2003 yil nisbatan 22,7 % ga ko'proq.

## XITOIDA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH MASALALARI

Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda Osiyo davlatlari ichida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatdir. O'quv jarayoni va ishlab chiqarishda eng zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi mamlakat istiqbolining porloqligidan dalolat beradi. Albatta, har bir mamlakat va jamiyat rivojining asosida ta'lim yotadi.

Xitoy Xalq Respublikasidagi ta'lim jarayoni maktabgacha, boshlang'ich, to'liq bo'lmagan o'rta, o'rta umumiy ta'lim, oliy ta'lim va aspiranturani o'z ichiga oladi. Bog'chalarga bolalar 3 yoshida qabul qilinib, 6 yoshdan boshlang'ich sinfga o'tkaziladi. Boshlang'ich va to'liq bo'lmagan o'rta ta'lim «6,3», «5,4» va «uzluksiz 9 yil» ta'lim tizimini qo'llab kelmoqda. O'rta umumiy maktablarga o'quvchilar 15-16 yoshdan qabul qilinib, ular 4 yil davomida bilim oladilar. Maktabni bitirgan yoshlar kasbga yo'naltiruvchi ta'lim muassasalarida bilim olish huquqiga ega bo'ladilar. Ular mazkur dargohda 2 yil o'qisalar, to'liq bo'lmagan o'rta maktabni bitiruvchilari uchun o'qish muddati 4 yil qilib belgilangandir.

Xitoy oliy o'quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Institut va universitetlarda ta'lim muddati 4-5 yil qilib belgilangan bo'lsa, faqatgina tibbiyot institutining talabalari ixtisosliklariga qarab 7-8 yilgacha bilim oladi. Yuqori oliy ta'lim hisoblangan aspiranturada ta'lim olish ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchisida magistrlik ilmiy darajasi berilsa, ikkinchi bosqichini tugallagan tadqiqodchi fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'ladi.

Aynan shu tizimdan kelib chiqqan holda Xitoyda ta'lim boshqaruvi amalga oshiriladi. Sohadagi boshqaruv «bir xil daraja, bir xil standartlar» tamoyili asosida olib borilmoqda, ya'ni mehnat jarayonidan ajralgan holda ta'lim olayotgan yoshlar va mehnat qilish bilan birga faqat kechqurun yoxud sirdan o'qiyotganlarga bilim berish darajasi bir xildir.

Mamlakat ta'lim boshqaruvi o'z ichiga ma'muriy ta'lim tizimini olib, u 4 bosqichdan iboratdir: markaz, shahar, avtonom hududlar va uyezdlardir. Mazkur hududiy bo'linishlar ular tasarrufidagi ta'lim muassasalari boshqaruvini yengillashtiradi.

«Xitoy Xalq Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni»da ko'rsatilishicha «Davlat Kengashi va mahalliy xalq hokimiyatlari o'z hududlaridagi boshqaruv tamoyillari asosida ta'lim tizimini boshqaradilar. O'rta va to'liq bo'lmagan o'rta ta'lim muassasalari Davlat Kengashi tasarrufidagi mahalliy xalq hokimiyatlari tomonidan, oliy ta'lim Davlat Kengashi, avtonom hudud, shahar xalq hokimiyatlari tomonidan boshqariladi. Mazkur qonunning 15-bandida aytilishicha, «Davlat Kengashidagi ta'limning ma'muriy organlari mamlakatdagi ta'lim sohasini boshqaradilar, umumiy reja asosida ish ko'radilar va uning faoliyatini muvofiqlashtiradilar».

### **BOSHQARUVNING QONUNIY ASOSLARI**

Mamlakatda ta'lim jarayoni va uni boshqarish «Xitoy Xalq Respublikasining ta'lim to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining majburiy ta'lim olish to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta'lim to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining kasbga yo'naltirilgan ta'lim to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq



Respublikasining o'qituvchilar to'g'risida»gi qonunlari «Xitoy Xalq Respublikasida ilmiy darajalar to'g'risidagi Yo'riqnoma»si bilan boshqarilib, ular bilan bir qatorda XXR Davlat Kengashi «Nogironlar ta'limi xususidagi holat», «Ta'limdagi muvaffaqiyatlari uchun taqdirlash to'g'risidagi holat», «O'qituvchilar mandati xususidagi holat», «Bolalar bog'chalarini boshqarish haqidagi holat» va boshqa (jami 10 ta) turli xil qarorlar asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari Ta'lim vazirligining 600 dan ortiq ma'muriy aktlari Respublikada zaron talablari va jahon standartlariga mos keladigan qonun hujjatlaridan iboratdir. O'tgan yili «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga qo'shimcha ravishda yana 138 ta mahalliy qarorlar qabul qilinib barcha qonunlar nazorati va amaldagi ijrosi yuqori mavqega ega tashkilotlar tasarrufidadir.

Ayni paytda sohadagi barcha qonun hujjatlarining amaldagi faoliyati qattiq nazorat ostiga olingan. Aynan shu qonun va qonuniy hujjatlar Xitoyda davlat ta'limi yo'nalishi va sohaning asosiy g'oyalari ta'lim muassasalarida olib borilishi lozim bo'lgan axloqiy-tarbiyaviy ishlar mezonini belgilab berdi.

50 yil ichida Xitoy Xalq Respublikasining ta'limi ulkan yutuqlarga erishdi, Ayniqsa, so'nggi 20 yil davomida Xitoyda olib borilgan siyosiy islohotlar va ta'lim tizimining ochiqligi ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va albatta, o'quvchilar sonining keskin ortishiga olib keldi.

Bugungi kunga kelib XXRda 1590 ming ta'lim muassasalari faoliyat yuritib, ulardan 860 mingtasi yoshlarga mo'ljallangan bo'lsa, 730 mingta ta'lim muassasalari katta yoshdagilar ta'lim olishiga ixtisoslashgan. O'quv yurtlarida 230 milliondan ortiq o'quvchilar ta'lim olib, ularga 16 million o'qituvchilar dars berishmoqda.

Xitoy hukumati boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor berib kelmoqda. 181100 ta bog'chada 23,262,600 nafar 3 yoshdan maktab yoshigacha bo'lgan bolalar tarbiyalanib, milliy g'oyani singdirish, bolajonlarni Vatanga muhabbat, xalq ishiga sadoqat ruhida tarbiyalash mudira vazifa qilib belgilab qo'yilgan. 1949 yili mamlakat aholisining 80% savodsiz bo'lib, shu yildan boshlab Xitoy hukumati mamlakatda mazkur muammoni tugatish borasida keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshira boshladi. Yarim asrdan so'ng savodsizlar soni 5,5% ni tashkil qilib, bular ham 60 yoshdan oshgan qariyalar edi.

Bugunga kelib hukumat diqqat-e'tiborini maxsus ta'lim rivojiga qaratmoqda. Xalq farovonligini oshirish, jismoniy nuqsonga ega odamlar, nogironlarning jamiyatdan ajralib qolmasliklari hamda ularning intilishlarini rag'batlantirish maqsadida ochilgan mazkur ta'lim muassasalarining soni ayni paytda 1600 dan ortib ketdi. Bu o'rinda Xitoyda mahalliy aholi bilan birgalikda bir tanu bir jon bo'lib yashayotgan kam sonli millat vakillarining ta'lim olishlari uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan.

Xitoydagi 55 ta elatdan 53 tasi o'z tiliga ega bo'lib, mamlakatning beshta avtonom hududlari-Sintszyan, Tibet, Ninsya, Ichki Mo'g'iliston va Nuansisda 12 ta milliy universitetlar, 74 ta kasbga yo'naltirilgan milliy oliy o'quv maktablari, 3500 ta milliy o'rta maktablar va 20 mingdan ziyod milliy boshlang'ich ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatayotir.

Shuningdek, hukumat turli xil ko‘rinishdagi ta‘lim muassasalari va kurslarini ochayotgan jamoat tashkilotlarini ham qo‘llab-quvvatlamog‘da. Ayni paytda samarali faoliyat yuritayotgan ta‘lim muassasalarining bunday ko‘rinishlarida 10 milliondan ziyod har xil yoshdagi aholi vakillari bilim olmoqdalar.

Masofadan turib ta‘lim olish tizimi Xitoyda 1990 yillardayoq shakllanib bo‘lgan edi. Asosan bu teleko‘rsatuv va radio eshittirishlar 2000 yilga kelib Xitoyning barcha hududlariga yetib borgan INTERNET va CERNET bo‘ldi. CERNET 1994 yili tashkil topib, ta‘lim va ilmiy tekshirishlar tarmog‘i hisoblanadi. Aynan shu tarmoq hozirgi kunda 70 ta shahar va 400 ta oliy o‘quv yurtlarini qamrab olib, mamlakatda va xorijda qilinayotgan kashfiyotlar, ta‘lim sohasidagi yangiliklarning tezkorlik bilan tarqalishiga imkon yaratib bermoqda. INTERNET orqali masofadan o‘qitish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bugunga kelib Xitoyda 30 ta oliy o‘quv yurtlari o‘z talabalariga ularni mehnat faoliyatlaridan uzmagan holda bilim olishlariga ko‘maklashayotir. Xitoy ta‘lim tizimining yorqin qirralaridan yana biri, bu - mamlakatda har bir odam hayotining oxirigacha har qanday ta‘lim muassasalarida o‘qish huquqiga egadir.

## **USTOZ - BUYUK SIYMO**

Xitoyda ming yillar davomida shakllanib, bugungi kunga kelib o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan go‘zal an‘analardan biri ustozni ulug‘lashdir. Deyarli barcha Sharq xalqlarida bo‘lgani kabi bilim beruvchi har qanday odam ustoz sifatida qadrlanadi. Buyuk Konfutsiy ta‘limoti asoslari mujassamlashgan bugungi Xitoy ta‘lim tizimida o‘qituvchiga bo‘lgan e‘tibor alohida o‘rin tutadi.

Xitoy hukumati 1985- yili 10- sentyabr kuni “O‘qituvchilar kuni”ni umumxalq bayrami sifatida nishonlashni e‘lon qildi, 1993- yili esa, mamlakatda «Xitoy Xalq Respublikasining o‘qituvchilar to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun o‘qituvchilarning huquq va majburiyatlari, ularga to‘lanadigan oylik maosh, maqomi, toifalari, o‘qituvchini tayyorlash jarayoni, ish faoliyatida rag‘batlantirish shartlari, huquqiy mas‘uliyatini belgilab beradi. 1998- yili Xitoy hukumati oliy o‘quv yurtlariga «Yosh olimlarni rag‘batlantirish» rejasini taklif etdi. Mazkur rejaga ko‘ra, mamlakatdagi va xorijdagi yosh olimlarni Xitoy oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirish, ularning moddiy va ma‘naviy salohiyatini oshirish ko‘zda tutilgan edi. Bugunga keib 200 nafar turli mamlakatlardan kelgan olimlar Xitoyda professor unvoniga ega bo‘lishgan.

Hukumat shuningdek, o‘qituvchilarning ijtimoiy mavqeini ko‘tarish orqali ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish, ta‘lim sifatini oshirishga erishmoqda. «O‘qituvchilar to‘g‘risida»gi qonunda aytilishicha, «o‘qituvchilarning o‘rtacha ish haqi davlat xizmatchilarining o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmasligi va doimo o‘sib bormog‘i kerak». Shuningdek, o‘qituvchilarning turmush farovonligini ko‘tarish maqsadida esa, Xitoy hukumati 1994- yildan bugungi kunga qadar davlat byudjetidan 10 milliarddan ko‘proq AQSh dollarini o‘qituvchilarga uy-joy qurilishi uchun sarfladi.

## **O‘ZBEKISTON – Xitoy ta‘lim tizimining qiyosiy tahlili**

Aholining keng qatlami ta'lim olish huquqiga 1949- yildan keyin ega bo'ldi. Unga qadar ta'limning asosiy maqsadi faqat mansabdor shaxslarni tarbiyalashdan iborat edi. Hozirgi kunga kelib, avvalgi bob va paragraflarda ko'rib o'tganimizday, Xitoy ta'lim tizimi o'z ichiga maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, to'liq o'rta maktab, universitet, aspiranturalarni oladi.

- Doktorantura 25-28 yosh
- Magistratura 22-25 yosh
- Bakalavriat 18-22 yosh
- Kasbiy oliy maktabi 18-22 yosh
- To'liq o'rta maktabi 15-18 yosh
- Kasbiy o'rta maktabi 15-18 yosh
- To'liqsiz o'rta maktabi 12-15 yosh
- Kasbiy boshlang'ich maktabi 12-15 yosh
- Boshlang'ich ta'lim 6-12 yosh
- Maktabgacha ta'lim 3-6 yosh

O'zbekiston ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb - hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi.

- Xitoyda maktabgacha ta'lim 3 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi;
- O'zbekistonda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar;
- Boshlang'ich ta'lim Xitoyda 6 yoshdan 12 yoshgacha ya'ni 6 yil davom etadi,
- O'zbekistonda esa 7 yoshdan 11 yoshgacha, ya'ni 4 yil davom etadi.
- Xitoyda boshlang'ich ta'limdan keyin to'liqsiz o'rta maktabga yoki kasbiy boshlang'ich maktabga boorish mumkin. O'qish 12 yoshdan - 15 yoshgacha.
- O'zbekistonda boshlang'ich ta'limdan keyin o'rta ta'limga o'tiladi. O'qish muddati - 5 yil, 11 yoshdan 16 yoshgacha.
- Xitoyda to'liqsiz o'rta maktabni bitirgan o'quvchilar to'liq o'rta maktabga o'tadilar; kasbiy boshlang'ich maktabni bitirganlar esa kasbiy o'rta maktabga o'tadilar. O'qish muddati 3 yil.
- O'zbekistonda o'rta ta'limdan keyin o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga o'tiladi. Bu ta'lim o'z navbatida o'rta maxsus ta'lim (AL) va kasb-hunar ta'limi (KXK)lariga bo'linadi. O'rta ta'lim bitiruvchilari xohishiga ko'ra akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishlari mumkin. O'qish muddati 3 yil.
- Xitoyda to'liq o'rta maktabni bitirganlar oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichiga topshiradilar. Kasbiy o'rta maktabni bitirganlar esa kasbiy oliy maktabga topshiradilar. O'qish muddati 4 yil.
- O'zbekistonda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini tugatganlar oliy o'quv yurtlariga topshiradilar. O'qish muddati 4 yil.
- Xitoyda kasbiy oliy maktabni bitirganlar ishga joylasha oladilar (18-22 yosh).
- O'zbekistonda kasb-hunar kollejini bitirganlar ishga joylashishlari mumkin yoki oliy o'quv yurtiga kirib, o'qishni davom ettirishlari mumkin.
- Xitoyda oliy ta'limning magistratura va doktorantura bosqichlari mavjud.

- O‘zbekistonda ham magistratura, doktorantura bosqichlari mavjud.
- Xitoy 9 yillik majburiy ta’lim joriy etgan.
- O‘zbekistonda 9 yillik majburiy ta’lim mavjud.
- Xitoyda 9 yillik majburiy ta’lim olganlar miqdori 99,3 % ni tashkil etadi.
- O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 99,5 % dan iborat.
- Xitoyda 9 yillik ta’lim bepul.
- O‘zbekistonda 9 yillik majburiy ta’lim bepul.
- Xitoyda oliy o‘quv yurtida faqat iqtidorli talabalargagina stipendiya beriladi.
- O‘zbekistonda esa 55 % dan ortiq ball to‘plagan barcha talabalar stipendiyalar bilan ta’minlanadi.
- O‘qish yili aynan bizdagiday, Xitoyda ham 1 sentabrdan boshlanadi va iyulgacha davom etadi.
- Xitoy talabalari uzoq qishki ta’tilga chiqadilar: dekabr oxiridan fevralni boshiga qadar.
- O‘zbekistonda esa qishki ta’til 28 dekabrda - 10 yanvargacha davom etadi, yozgi ta’til iyul, avgust oylarida o‘tadi.
- Xitoyda kattalar uchun ta’lim mavjud. Unda e’tibor savodsizlikni tugatishga ham qaratilgan.
- O‘zbekistonda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’limi bor.

Izchil islohotlar natijasida har ikkala davlat ta’lim tizimining ko‘lami oshib, takomillashib bormoqda. Masalan, Xitoyda 1993 yildan birinchi darajali dunyo miqyosidagi 100 universitetni yaratishga kirishildi. Natijada 708 ta oliy o‘quv yurti 302 ta ko‘p tarmoqli universal oliy o‘quv yurtlariga qo‘shib yuborildi. Xususan, Amaliy san’at markaziy akademiyasi Xitoyning eng nufuzli bilim o‘chog‘i “Tsinghua” universiteti bilan qo‘shildi. 100 yildan beri mavjud bo‘lgan Pekin universiteti Xitoydagi eng yaxshi tibbiyot oliy o‘quv yurti Pekin tibbiyot akademiyasiga qo‘shildi.

Oliy o‘quv yurtlarining bunday qo‘shilishi oliy ta’limni boshqarish tizimida chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish, pedagogik resurslarni ratsional joylashtirishi, o‘qitish sifati va o‘quv jarayoni darajasini oshirish imkonini beradi. Dunyodagi eng nufuzli oliy o‘quv yurtlariga qatoriga kiruvchi 30 ta oliy o‘quv yurtlari uchun maxsus davlat qo‘llab-quvvatlash fondi yaratilgan.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Xitoy ta’lim tizimining asosiy jihatlari haqida ma’lumot bering.
2. Xitoyda maktabgacha ta’lim va tarbiya. Boshlang‘ich ta’lim. O‘rta va kasbiy ta’lim haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Xitoyda oliy ta’lim sistemasi haqida ma’lumot bering.
4. Maxsus ta’lim haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Masofaviy ta’lim. Kattalar uchun ta’lim.
6. Xitoy ta’lim tizimini boshqarish masalalari. Boshqaruvning qonuniy asoslari.
7. Ustoz – buyuk siymo tushunchasi Xitoyda qay tarzda ifodalanadi?
8. O‘zbekiston – Xitoy ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

### Topshiriq:

Keltirilgan Xitoy tarixidagi muhim voqealarni sodir bo'lgan sanasi bilan juftlang.

№	Ta'rif	№	Sana	
1	Xitoy hukumati "O'qituvchilar kuni"ni umumxalq bayrami sifatida nishonlashni e'lon qildi	A	1985-yil 27-may	
2	"Ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.	B	1986-yil	
3	XXRning "Kasbiy ta'lim haqidagi Qonuni" qabul qilindi.	C	1985- yili 10- sentyabr	
4	Majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonun qabul qilindi.	D	1996-yil	
<b>Javobi:</b>	1 –	2 –	3 –	4 –

## 8-mavzu: AQSH ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

### Mavzu rejasi:

1. AQSHda ta'lim tizimi: asosiy tamoyillar.
2. Amerika maktabgacha ta'lim tashkilotlari.
3. Amerikadagi maktab: ichki qoidalar, mavzular, o'qish shartlari. AQSHda o'rta ta'lim.
4. Oliy ta'limning o'ziga xos jihatlari. AQSHda o'qituvchilar tayyorlash va malaka oshirish.
5. Zamonaviy AQSH ta'lim tizimidagi o'zgarishlar.

**Tayanch so'z va iboralar:** Kindergarden, maktabgacha tarbiya, Amerikadagi maktab: ichki qoidalar, mavzular, o'qish shartlari. AQSHda o'rta ta'lim, oliy ta'limning o'ziga xos jihatlari, AQSHda o'qituvchilar tayyorlash va malaka oshirish.

### AQSHda ta'lim tizimi: asosiy tamoyillar.

Qo'shma Shtatlardagi ta'lim ta'limning alohida bosqichlaridan iborat — maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy. Uch darajada nazorat qilinadi va moliyalashtiriladi: federal, shtat va mahalliy hukumatlar.

AQSHning barcha shtatlarida shtatga qarab besh yoki sakkiz yoshdan o'n olti yoki o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy ta'lim qonunlari mavjud. Ta'lim dasturi shtatdan shtatga va maktab okrugiga qarab farq qilishi mumkin,

ammo barcha shtatlar qonun bo'yicha davlat maktablari o'quvchilarini kerakli minimal ta'lim darajasiga erishishlarini tekshirishlari kerak.



AQSH da ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 1-8-sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda bolalar 6 yoshdan 13yoshgacha o'qiydilar);
- 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17) yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar).

U quyi va yuqori bosqishdan iborat. Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqishi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlarda amaga oshiriladi. So'nggi bosqish dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir. AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlarida davlat jamoa, xususiy tashkilotlarida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin. Shuni diqqatga sazovorki, AQSH maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilaridan tashqari barcha o'quvchilar ta'tillar paytida asosan ish bilan band bo'ladilar. AQSH maktablarida o'quv yili 180 kun. Bir soat dars 45-50 minut. Amerika konstitutsiyasiga muvofiq ta'lim tizimi tashkilotdagi shtatlar boshqaruv muassasalari ixtiyoridadir.

Majburiy ta'limni boshlash muddati va yoshi shtatdan shtatga farq qiladi. Ular 5 yoshdan 8 yoshgacha mashg'ulotlarni boshlaydilar va 18 yoshdan 19 yoshgacha tugaydilar.

Taxminan 5 yoshda amerikalik bolalar boshlang'ich maktabga boradilar (inglizcha: elementary school), nol sinfga (nemischa: kindergarten). Ko'pgina

shtatlarda nol sinfi ixtiyoriydir. Biroq, deyarli barcha amerikalik bolalar bog'chaga boradilar.

1979 yilgacha ta'limni mablag' bilan ta'minlash, ta'limda davlat siyosatini amalga oshirish, o'quv yurtlarida faoliyatini muvofiqlashtirib borishini Sog'liqni saqlashi, Ijtimoiy ta'minot va ta'lim ishlari vazirlari olib borar edi. 1979 yilda Ta'lim vazirligi mustaqil bo'lib ajralib shiqdi. Ta'lim tizimlariga mablag' ajratish bo'yisha AQSH dunyo mamlakatlari o'rtasida yetakshi o'rinlardan birini egallaydi. AQSH ta'lim tizimining rivojlanish sur'ati ansha yuqori bo'lib, uning boshlang'ish ta'lim bosqichida o'qishi lozim bo'lgan bolalarning 99,9 foizi, o'rta bo'g'ini 94,5 foizi ta'lim oladi.

O'quvchilar umumiy sonining 46 foizi o'rta maktabning tamomlagach, kollej va universitetlariga kiradilar. Barcha toifadagi ta'lim maskanlarida 58 million yosh, shu jumladan ta'limning oliy bosqichida 12 million yigit qiz tahsil oladi. AQSHda har 10 ming aholiga 307 talaba to'g'ri keladi. Bu jaxonda yuksak ko'rsatkichlardan biridir. Bulardan tashqari AQSHda har yili 33 million kishi uzluksiz ta'lim malaka oshirish tizimlarida bilim oladilar. Mamlakatda 3 million o'qituvshi mehnat qiladi. har yili o'rta maktabni 3 million o'quvshi, bakalavr darajasidagi esa 300 ming kishi tugallaydi, yiliga 30 ming kishi doktorlik ilmiy darajasini oladi.

### **Amerika maktabgacha ta'lim tashkilotlari.**

Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga to'lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan. Farzandlarga qarab uyda o'tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O'zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o'ynaydigan, uxlaydigan ovqatlanadigan alohida xonalari bo'lgan bog'sha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila ushun haftasiga 200 dollardan kam tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo'ljallangan xususiy va davlat tassarufigidagi bog'shalar mavjud. Ular enaga yolashdan bir oz arzonroqqa tushadi. Lekin xar ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni yedirishadi, krovatshalar, ko'rpa, to'shak, yostiqni otaonalar olib borishadi.

Amerikada bizdagidek taomnomalar o'quv dasturlari yo'q. Bolalar yozda atrofdagi ko'klamzorlarida o'ynab dam oladilar. Bu bog'chalarda ham bolalar yoshlarida qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyashi mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi turli qo'shiqlar, she'rlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o'uz uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan. Lekin bolalar ushun haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi.



Ana shu yoshda ular «**Kinder garden**» deb ataluvchi tayyorlov bogʻchalariga jalb etadilar. Ular hukumat tassarufida boʻlib bogʻchalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «Maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yoʻl-transport hodisalardan toʻla muhofaza etilgan; sariq ranga boʻyalgan uning signallariga barsha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib oʻtishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar. AQSH televideniya kanalida «Sezam koʻchasi» deb nomlanuvshi koʻrsatuvlar dasturi mavjud, u oʻquvshilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarini, bajarish sanash, koinot, tabiat, jugrofiya, tarix, boʻyisha bilimlarni oʻta kiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi. Amerika koʻpmillatli mamlakat. Lekin har bir millat oʻz farzandiga milliy urfodatlarini tilini oʻrgatishga jidiy ahamiyat beradi. Koʻpinsha bu vazifalarni katta avlod amalga oshiradi. Oʻzbeklar ham oʻz ona-tilini, urf-odatlarini dinini oʻz farzanlariga singdirishga astoydil intiladilar.

Oʻzbek bolalari ham Markaziy Osiyoda oʻz mamlakatlari borligini biladilar, gʻoyibona intiladilar, u haqda koʻp narsalarni koʻrish, eshitish, oʻqishni istaydilar. Oʻzbekistonga kelish har bir amerikalik oʻzbeklarning muqaddas orzusidir. Besh yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashgʻulotlarning asosini ularni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Olti yoshli bogʻcha guruhlarida boʻlsalarda, lekin bu guruhlardagi taʼlim boshlangʻish sinfdagi taʼlimga yaqin turib, amalda uning dastlabki bosqichi hisoblanadi.





Maktabgacha tarbiya muassasalarning ta`lim dasturi ko`p jihatdan ota- onalar bilan hamkorlikda ish olib borishga mo`ljallangan, u pirovard natijada bolalarni boshlang`ish maktablarga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak.

**Amerikadagi maktab: ichki qoidalar, mavzular, o`qish shartlari. AQSHda o`rta ta`lim.**

### **Boshlang`ich maktab**

Boshlang`ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo`lgan bolalarga to`laqonli bilim, ta`lim berish ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo`lib shaklanishi ta`minlashdan iboratdir. Boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan o`quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo`lib, ular o`quvchilarning umumiy savodxonligini ta`minlab berishdan tashqari ma`lum darajada kasb yo`nalishiga ham ega qiladi. Sinf-dan-sinfga ko`chirish o`quvchining o`qish tezligi, yozuvi, husnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san`at kabi predmetlarni boshlang`ich sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o`zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi. Amerika maktablarida o`quv-tarbiya ishlari bilan bog`liq masalalarni to`lalgicha har bir shtat o`ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang`ich maktablarda o`quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. Ya`ni boshlang`ich ta`lim 4,5,6,8 yillik bo`lishi mumkin.



O'quvchilar shu davr ichida ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiyena, matematika, hunarmandchilik va san`at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. AQSh maktablarida o'qish har bir o'quvchi uchun faxr-iftixor bo'lishiga o'quvchi bilimi imkoniyati, nuqtai nazariga ishonch hissini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. O'quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyocsiz va loqayd bo'lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi.



### **O'rta maktab**

AQSh da to'laqonli o'rta maktab sirasiga 10,11,12-sinflar kiradi. 7,8,9-sinflarni aksariyat holda quyi o'rta maktab deb ham yuritiladi. Binobarin, quyi o'rta maktab kursini muvafaqiyatli o'taganlar yuqori bosqichga- to'laqonli o'rta maktabda qabul qilinadilar. Ma`lum darajada 9-sinfni bitirganlar yuqori o'rta maktablarga tanlov yo'li bilan qabul qilinadilar, lekin yuqori o'rta maktablar o'quvshilarning bilimiga qarab tabaqalashtirilganligi tufayli 86,4% o'quvchi ularga qabul qilinadi.

Amerikalik yoshlarning ko'pchiligi o'rta maktablarni tugatgach, tegishli diplom va maxsus kurslarni bitirganliklarini isbotlovchi hujjatlar oladilar. O'quvchilar odatda ma`lum bir sinfni, kurs yoki maktabni yakunlashda test sinovlarga jalb etiladilar.

O'quvchilar bilimi quyidagicha belgilanadi:

A) – 95-100 ball.

B) – 85-92 ball.

S) – 71-80 ball.

D) – 65-70 ball.

G) – 0-64 ball. (qoniqarsiz)

Test natijalariga ko'ra qoniqarsiz baholangan o'quvchilar yil davomida ma`lum vaqt o'tkazib sinovdan qayta o'tkaziladilar. Bu sinovlarga o'quvchilarning sinf muloqotida qatnashganligini natijalari, og'zaki yoki yozma vazifalarning yechimlari ham ilova qilinadi. AQSH maktablarida chorak va o'quv yili natijalariga ko'ra ham o'quvchilar test sinovlaridan o'tkaziladilar. AQSH maktablarida odatda o'quvchilar o'quv yili davomida ikki marta o'zlashtirish tabeli oladilar. Ayrim okruglarda bunday tabellar har bir fan bo'yicha 6 martagacha beriladi.

Har bir maktab o'quv yili boshlanishidayoq o'z o'quv tartibini oldindan belgilab oladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin;

7 sentabr- o'quv yilining boshlanishi:

12 oktabr- Kolumb kuni munosabati bilan bayram:

21 oktabr- o'quvshilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlovshi test sinovlari:

10 noyabr- insholar konkursi:

22-27 noyabr- dastlabki ta`tillar:

2 dekabr- kollejga kirish imtihonlarning birinchi bosqichi:

22 dekabr-Rojdestvo ta`tili:

13 yanvar - kollejga kirish imtihonlarning ikkinchi bosqichi:

26 yanvar- o'quv yili ikkinchi yarmiga o'tish imtihonlari:

24 fevral- yaxshi o'quvchilarni aniqlovchi milliy imtihonlar:

2 mart- kollejlarga kirish imtihonlarning uchinchi bosqishi: 5 aprel- 3-davrga o'tish imtihonlar:

12-20 aprel- bahorgi ta`tillar:

4- iyun-kollejlarga kirish imtihonlarning to'rtinchi bosqichi:

30 may- Xotira kuni: 12 iyun- bitirish kechasi;

20 iyun-yozgi ta`tilga chiqish kuni.

O'rta maktablarda o'quvchilarga o'zlari tanlagan yo'nalishlariga mos holda predmetlar tanlashda ma'lum erkinliklar bor. Masalan ingliz tili, ijtimoiy fanlar matematika, fizika predmetlari asosiy fan bulib, shet tillari, nafis san`at, kasb ta`limi predmetlari o'quvchilarning xohish istaklariga qarab qo'yilishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, AQSh o'rta maktablari o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-kor, umumiy yo'nalishlarida bilim beradilar.



Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda hunar, kasb-kor asoslari berib boriladi. Bular quyidagilar:

Birinchisi, qishloq xo'jalik kasblari ta'limi hisoblanib unda tinglovchilarga fermerlik asoslari o'qitiladi va unda qishloq xo'jaligi buyicha menejmentlar yetishtirib beriladi bunday ta'lim Amerikaning bo'lg'usi fermerlari dasturi asosida ish olib boradi.

Ikkinchisi, biznes ta'limidir. Unda o'quvchilarga tijorat iqtisodiyoti, ichki iqtisodiyot mutaxassisligi o'rgatiladi, bunday o'quv yo'nalishlarida bolalarda muruvvat be'morlarga g'amxo'rlik qilish insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash masalalariga ham jiddiy ahamiyat beriladi.

Uchinchisi, savdo va sanoat ta'limi bo'lib unda yoshlarga mahsulot ishlab chiqarish va mexaniklik kasbi o'rgatiladi.

To'rtinchisi, qurilish ta'limi bo'lib, bu ta'lim tizimi orqali turli qurilish kasblari bo'yicha bilim va ko'nikmalar beriladi. Bu kasb dasturlari o'quvchilarning ana shu kasblarga tayyorlashga ham, ularni shu kasb korini yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha o'qishni davom ettirishni ham tayyorlashi mumkin. Bundan tashqari, dasturning uchinchi turi ham mavjud bo'lib bu umumiy ta'lim dasturidir. Bu dastur kasblar yuzasidan umumiy tushunsha beradi va o'quvshilarga kasblarning o'ziga xos xususiyatlarini oshib beradi.

## **Oliy ta'lim**

AQSHda oliy ta'lim turlari:

### **Davlat kolleji yoki universiteti**

Davlat universiteti davlat yoki mahalliy boshqaruv tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va boshqariladi. Amerikaning 50 ta shtatining har birida kamida bitta davlat universiteti va bir nechta davlat kollejlari mavjud. Ushbu jamoatchilikning ko'plari, shuningdek, ular deyilganidek, universitetlar o'z shtatlari nomini oladi: masalan, Vashington universiteti (Vashington shtati universiteti) yoki Michigan universiteti (Michigan universiteti).

### **Xususiy kollej yoki universitet**

Ushbu universitetlar xususiy ravishda boshqariladi va odatda, ularda o'qish davlatga qaraganda qimmatroq. Xususiy maktablar ko'pincha davlat maktablariga qaraganda kichikroq.

Diniy jamoalardagi universitetlar va kollejlari ham xususiy muassasalardir. Deyarli hamma narsani turli dinlarga mansub talabalar qilishlari mumkin. Faqat bir nechtasi faqatgina universitet tashkil etilgan jamiyatning e'tiqodiga sherik bo'lgan abituriyentlarni qabul qilish bilan cheklanadi.

### **Jamoat kolleji**

Jamoat kollejlari bu ikki yillik o'quv muassasasi bo'lib, unda siz ilmiy daraja va sertifikat olishingiz mumkin. Diplom turiga qarab ular ikkiga bo'linadi - biri bilan boshqa universitetda o'qishni davom ettirish mumkin, ikkinchisi bilan - faqat

ishlash. Siz o'rtayoshdagi mutaxassisning diplomini (san'at assotsiatsiyasi) va tugallanmagan oliy ma'lumot (fanlar dotsenti) diplomi bilan o'qishingiz mumkin. Ular amaliy fanlar doktori dotsenti diplomi va tugatganlik haqidagi sertifikat bilan ishlaydi.

Jamoat kollejarining bitiruvchilari odatda oliy ma'lumotni tugatish uchun 4 yillik kollej yoki universitetlarga o'tkaziladi. Kollejdan o'z kreditlarini topshirishlari mumkinligi sababli, bakalavr darajasini olish uchun universitetda yana ikki yil bo'shatishlari kifoya qiladi. Ko'plab jamoat kollejarida ikkinchi kurs sifatida ingliz tili kurslari mavjud bo'lib, bu chet ellik talabalarga universitetda o'qishga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini beradi.

**Texnologiya instituti.** Texnologiya instituti texnik va tabiiy fanlar bo'yicha 4 yillik o'qishni o'z ichiga oladi. Ba'zilarida magistr darajasiga ega bo'lishingiz mumkin, boshqalarida siz faqat qisqa kurslarga borishingiz mumkin.

AQSHda oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi; kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Oliy ta'limdagi bosqichlar o'z oldiga qo'ygan maqsadi va o'quv dasturlari jihatidan bir-biridan qat'iy chegaralangan.



Birinchi bosqich garchi AQSH oliy ta'lim bosqichi deb yuritilsada, ularni vazifasiga ko'ra bizdagi maxsus o'rtayosh yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu bosqich 2 yillik kollej shaklida amalga oshirilib, bitiruvchilarning uchdan ikki qismi 4 yillik kollejlarning 3 kursiga qabul qilinadilar. Qolgan bir qismi esa kichik mutaxassis guvohnomasini oladi.



